



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI

**SHARQ ADABIYOTIDA BADIYYATSHUNOSLIK MASALALARI
(ARAB)**

fanidan

MA’RUZALAR MATNI

Bilim sohasi: 100000 – Gumanitar soha
Ta’lim sohasi: 120000 – Gumanitar fanlar
Mutaxassislik:: 5A12010 - Adabiyotshunoslik

Toshkent – 2014

Fanning maruzalar matni namunaviy dastur va ta'lim yo'nalishining o'quv rejasiga asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

Xodjayeva R.U. – Toshkent davlat sharqshunoslik instituti
“Xorijiy sharq mamlakatlari adabiyoti” kafedrasida
professori, filologiya fanlar doktori

Taqrizchilar:

1. **Akbarova M.H.** – Toshkent davlat sharqshunoslik instituti “Xorijiy sharq mamlakatlari adabiyoti” kafedrasida dotsenti.
2. **Alimbekov A.** – O'zbekiston milliy universiteti dotsenti

MA'RUZA №1. POETIKA TUSHUNCHASI

Darsning maqsadi: Poetika tushunchasini tushuntirish, qoidalarini bilish, fan bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarga qo'yiladigan talablarni aniqlash.

Tayanch iboralar:

Poetika, adabiyot nazariyasi, adabiyot qoidalari, janr, kompozisiya, syujet, badiiy til, uslub.

Nazorat savollari:

1. Nega poetika – adabiyotshunoslikning yetakchi nazariy fani hisoblanadi?
2. Poetikani o'zlashtirishdagi vazifalar nimadan iborat?
3. Poetika atamasining keng va tor ma'nolarini bilasizmi?

Poetika fani magistratura mutaxassisligidagi adabiyotshunoslikning yetakchi nazariy fani sifatida o'qitiladi. Uning mazmuni, asosan, badiiy adabiyot, uning qonuniyatlari, adabiyot nazariyasi, adabiyot qoidalari: janr, uning shakl va mazmun jihatlarining o'zaro munosabati, kompozisiya tiplari, syujet qurilishi va boshqa poetikaga oid masalalarni qamraydi. Poetika qoidalarini bilish, adabiyot haqida so'z yuritish, uni o'rganish va unga baho berish, umuman, adabiyotshunos bo'lish huquqini ta'minlovchi fandır.

Mamlakat adabiyoti poetikasi magistrantga adabiyot fanining asosi nimadan iborat ekanligi haqida to'liq ma'lumot berishga qaratilgandır.

Fanni o'qitishdan maqsad – talabalarda o'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti poetikasi, adabiyot nazariyasi fanlarida o'rganilayotgan milliy badiiy adabiyotning o'ziga xos xususiyatlari, uning rivojlanish qonuniyatlari va xarakteri, metodlari, janrlari, poetikani tashkil qiladigan asarning badiiy tili, uslubi, turli badiiy-tasviriy vositalari to'g'risida bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishdir.

Fanning vazifasi – talabalarni adabiyotshunoslik masalalari bilan tanishtirish, ularni badiiy asar bilan ishlashga, uning poetikasini ajrata olishga, tadqiq va tahlil etishga hamda xulosa chiqarishga o'rgatishdan iborat.

Fan bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalarga qo'yiladigan talablar "O'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti poetikasi" o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida magistrant:

1. Adabiyot nazariyasining asosiy tushunchalarini, badiiy adabiyotning umumiy qonuniyatlari haqida;
2. Badiiy asar tabiati, she'r ilmi va adabiy jarayon haqida;
3. Mamlakat adabiyotining jahon adabiyoti tizimida tutgan o'rni haqida bilishi;
4. Mamlakat adabiyotida mavjud asosiy manbalar haqida umumiy tushunchaga ega bo'lishi;
5. Mamlakat adabiyotining o'rganilish darajasi;

6. Hozirgi zamon jahon adabiy jarayoniga turli nazariy qarashlardan xabardor bo'lishi;
7. Mamlakat adabiy jarayoni va mintaqaviy adabiy jarayonlarning o'zaro ta'siri haqida bilimga ega bo'lishi hamda ulardan foydalana olishi;
8. O'rganilayotgan mamlakat adabiyoti tarixini bilishi, undagi bosqichlarni, adabiy jarayonlarni tashkil qilgan badiiy oqimlar va yo'nalishlarni ajrata olishi;
9. Biror tarixiy bosqichdagi badiiy ijodga xos bir qancha barqaror xususiyatlarni, asosiy vositalar va prinsiplarni ajrata bilishi;
10. Muayyan badiiy yo'nalishda ijod qilgan yozuvchining uslubidagi umumiylikni, o'xshashlikni va o'ziga xoslikni aniqlay bilishi;
11. Mamlakat adabiy merosida davr ruhi, mafkuraviy yo'nalishlar, ijtimoiy-siyosiy munosabatlar masalasi va ularning adabiy jarayonga ta'sirini baholay olishi;
12. Yozma adabiy manbalar bilan ishlashi;
13. Nazariy materiallar asosida o'rganilayotgan adabiyotga oid ma'lumotlarni tasnif qila bilishi kerak.

Poetika fanining o'quv rejadagi boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi va uslubiy jihatdan uzviy ketma-ketligi. Fanni o'zlashtirish uchun bakalavriat va magistratura yo'nalishlariga rejalashtirilgan umumkasbiy filologiya fanlari – tilshunoslik va adabiyotshunoslikka oid filologiyaga kirish, adabiyotshunoslikka kirish va ixtisoslik fanlari – o'rganilayotgan milliy adabiyotning tarixi (o'rta asrlar va yangi davr), she'riy janrlar (qasida va h.), she'riyat tizimi (aruz), magistratura mutaxassisligida arab adabiyotidagi badiiy oqimlar, ifodaviy tasviriy vositalar, arab adabiyotshunosligi tarixi va nazariyasi hamda boshqa fanlardan bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishlik talab etiladi. Shuningdek, talabada jahon adabiy jarayoni to'g'risida tushuncha bo'lishi lozim.

Fanning ishlab chiqarishdagi o'rni. “O'rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti poetikasi” fani asosiy ixtisoslik fani hisoblanib, milliy adabiyotni o'rganishda, asarlarning xususiyatlarini, janrlari, shakl va mazmun jihatlari o'zaro munosabatlarini, kompozisiya tiplari, asosiy qurilishi va boshqa tomonlarini aniqlab, magistrlik dissertatsiyalar, so'ng ilmiy tadqiqotlar, monografiyalar, darsliklar, o'quv qo'llanmalar, maxsus kurslar tayyorlashda qo'llaniladi.

Zamonaviy “poetika” atamasining ma'nolari:

Keng ma'noda – badiiy adabiyot, uning qonuniyatlari, adabiyot nazariyasi, adabiyot qoidalari, janr, kompozisiya tiplari, syujet qurilishi va hokozolar ushbu atama bilan yuritiladi. Bunda poetika atamasi bevosita adabiyot nazariyasi atamasining sinonimi vaifasini o'taydi. Bu umumiy tarzda poetika.

Tor ma'noda – she'riy asar va uning evolyusiyasi, ularning kelib chiqishi va taqdiri, she'riy stilistika, she'riy nutq va uning xarakteri, turli she'riy va tasviriy vositalari ham poetika atamasi bilan yuritiladi.

Tor ma'noda bir janrga yoki yozuvchining ijodiga, yoki oqimga yoki milliy adabiyotga xos yaxlit tizim sifatida qabul qilinishi ham mumkin: roman poetikasi, A.Navoiy poetikasi, romantizm poetikasi, yapon adabiyoti poetikasi, aniq adabiy asar poetikasi, XX asr zamonaviy badiiy oqimlar poetikasi va boshqalar.

Nazorat topshiriqlari:

1. “Poetika” atamasi keng ma’noda nimani ifodalashini aniqlang.
2. “Poetika” atamasi tor ma’noda qachon ishlatilishini misollarda ko‘rsating.

Mustaqil ish mavzulari:

1. “Poetika” atamasining kelib chiqishi, uning bugungi kundagi ma’nolari va qo‘llanilishi.
2. Yetuk adabiyotshunoslarning “poetika” tushunchasiga bergan izohlari.

Asosiy adabiyotlar:

1. Xalizev V.E. Teoriya literaturi. – M., 2000.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. – T., 2002.
3. Kudelin AB. Srednevekovaya arabskaya poetika. – M., 1983.
4. Sharq mumtoz poetikasi: manba va talqinlar. – T., 2006.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Lukov V.A Istoriya literaturi. Zarubejnaya literatura ot istokov za nashix dney. – M., 2005.
2. Boriev Yu. Estetika. Teoriya literaturi: ensiklopediyskiy slovar terminov. – M., 2003.
3. Ziyovuddinova M. Abu al-Xorazmiyning «Mafotix al-ulum» asarida poetika. – T., 2001.

MA'RUZA № 2 ARISTOTEL "POETIKA" SI VA UNING ADABIYOTSHUNOSLIK UCHUN AHAMIYATI

Darsning maqsadi: Jahon adabiyotiga ta'sir etgan Aristotel poetikasini o'rganish hamda uning adabiyotshunoslik uchun ishlab chiqqan prinsiplari bilan tanishish.

Tayanch iboralar:

Mimesis, san'at turlari, katarsis, epos, lirika, drama, trop, metafora, taxayyul, to'qima, sharq adabiyoti.

Nazorat savollari:

1. "Birinchi muallim" – Aristotel (Arastu) bilan arablar qachon tanishdi?
2. Aristotelning "Poetika" asari qachon vujudga keldi?
3. Aristotelning qadimgi yunon eposi va dramasi tarkibidagi umumiy qonunlarni ajratish prinsiplari nimadan iborat?
4. "Mimesis" va "katarsis" tushunchalarini bilasizmi?
5. Aristotelning "Poetika" si adabiyotshunoslik fanining rivojida tutgan o'rni.

"Poeziya", ya'ni badiiy adabiyot so'zining ilmiy muomalaga kiritilishi Aristotel nomi bilan bog'langan. Aristotel o'zining "Poetika" asarida badiiy adabiyotni shu nom bilan, ya'ni poeziya deb nomlagan. Hozirgi zamon ilmi esa badiiy adabiyot tarkibidan faqat she'riyatni poeziya nomi bilan ataydi. Ammo Aristotelning nima uchun badiiy adabiyotni "poeziya" deb ataganligida jon bor. Chunki, Aristotel davridagi dastlabki adabiyot, ya'ni epos va drama — marosim xorlaridagi rivoyat va hajviy dialog asosida yozilgan she'riy asarlardan iborat bo'lgan.

Aristotelning "Poetika" asarining asli nomi "Poeziya" san'ati to'g'risida" deb nomlangan. Aristotelning bosh maqsadi qadimgi yunon adabiyotidagi rivojlanish jarayonlarini tanqidiy anglash va ular asosida alohida xulosalangan tizim yaratishdan iborat bo'lgan. Aristotel qadimgi yunon eposi va dramasi tarkibidagi umumiy, qonunlashgan holatlarni, ya'ni badiiy tur elementlarini ilmiy aniqlashga, badiiy adabiyotni esa tur va xillarga bo'linishiga asos solgan. Primitiv tarzda bo'lsa ham badiiy aks ettirish (xudojestvennoe otrajenie – mimesis) badiiy adabiyot va boshqa san'at turlarining vujudga kelish prinsipi ekanligi to'g'risidagi fikr ham Aristotelga tegishlidir. *Mim*, ya'ni biz "masxaraboz" deb bilgan so'z ham, qadimgi yunonchadan "taqlid qiluvchi" deb tarjima qilinadi.

Aristotel fantaziya orqali hayotning o'xshashi obrazlarda yaratilishi haqida gapiradi hamda ana shu jarayonni **mimesis** deb ataydi. Shuningdek, **katarsis** to'g'risidagi ta'limot ham adabiyotshunoslikka Aristotel tomonidan kiritilgan. Katarsis qadimgi yunonchadan *poklanish* mazmunida tarjima qilinadi. Pifagor ta'limoti bo'yicha musiqani qalbni poklash uchun tavsiya etiladi, ya'ni musiqani eshitish va anglash jarayonida inson estetik va etik prinsiplari shakllanadi. Ana shu katarsis g'oyasi asosida keyinchalik Aristotel adabiyotshunoslikda "katarsis" atamasini qo'llagan. Katarsis badiiy adabiyotning musiqa kabi insonga ta'siri va ana shu ta'sirning inson ongi va shuurini poklash qobiliyatiga egaligi haqidadir.

Qalbni poklash mavzui qadimgi Gresiyada ko'plarni qiziqtirgan bo'lib, Geraklid olov bilan poklanish, Platon esa insoniy hissiyotni o'ziga bo'ysundirish tananing o'z ruhidan ozod bo'lishiga tengligi to'g'risidagi fikrni ilgari surgan.

Aristotel musiqa bilan poeziyaning juda katta tarbiyaviy ahamiyati haqida gapiradi hamda mazkur san'atlar insonning poklanishi (tarbiyalanishi) uchun xizmat qiladi, deb hisoblaydi. Hozirgi zamon adabiyotshunosligi va nazariyasining asosiy tamoyillarini belgilovchi ko'pchilik istilohlar ham ilmga Aristotel tomonidan kiritilgan. Masalan, *epos*, *lirika* va *drama*, *asar fabulasi*, badiiy matnda uchrashi mumkin bo'lgan badiiy *trop*, ya'ni badiiy sifatlash usullari bo'lgan *metafora*, *metonimiya*, *sinekdoxa* atamaları ham Aristotel tomonidan birinchi bor nazariyaga kiritilgan va tushuntirilgan.

Aristotelning, adabiyot to'g'risidagi fanni so'z san'ati sifatida rivojlantirishdagi bosh roli shundaki, u boshqa olimlardan farqli o'laroq, (masalan Gorasiydan), adabiyotshunoslikni nazariy fan darajasiga ko'tarib, uni normativlikdan qutqarganligidadir. Shu bilan birga badiiy adabiyotni badiiylilik hodisasi sifatida nazariy anglash Aristotel tomonidan boshlab berilgan bo'lib, so'zsiz, bu ta'limot o'z ta'sirini ham G'arb adabiyotiga, ham Sharq adabiyotiga o'tkazgan.

Mashhur yozuvchi va adabiyotshunos olim Taxa Husayn dunyo sharqshunoslarining anjumanida (1931 yil) qilgan ma'ruzasida, arab ritorikasi (notiqlik san'ati) o'zining ibtidosida uch yaxlit elementni arab, fors va yunon elementlarini mujassamlashtirgan deydi. Ana shu sanab o'tilgan elementlar ichida yunon elementi Aristotel ta'limotiga suyanishi tabiiydir. Umuman olganda, adabiyot ilmi, ko'pchilik sohalarida bo'lgani kabi tarixiy rivojlanish davrida o'zida turli yo'nalishlar va tasavvurlar oqimini mujassamlashtiradi va adabiyot ilmining bugungi takomili qadimgi davrlardan boshlab ilmga sadoqat bilan xizmat qilgan minglab olimlar kashfiyotlari majmuidan iboratdir.

Masalan, adabiyotdagi fantaziya, yoki "yolg'on" haqidagi fikr qadimgi yunon olimi Gesiod tomonidan fanga kiritilgan. Gesiod fikriga ko'ra, asardagi aks ettirish jarayoni - fantaziya asosiga qurilgan. Chunki, badiiy aks ettirish aslan aks ettirish bo'lmay, ya'ni hayotning aynan, to'g'ri aks etishi bo'lmay, balki "yolg'on", ya'ni tasavvur etilgan aks ettirishdir. Mana shu g'oya keyinchalik O'rta asrlarda arab olimlari tomonidan o'ziga xos tarzda rivojlantirilgan. Ibn Rashiq: "Real hayotda qoralanadigan har qanday yolg'on she'riyatning fazilati hisoblanadi", deydi. Ibn Muqaffa esa: "Notiqlik aniq bo'lmagan haqiqatning yolg'on tarzida kelishidir", deb aytadi.

Aristotelning adabiyot prinsiplariga bag'ishlangan "Poetika" asari Sharq davlatlarida ham, G'arb davlatlarida ham O'rta asrlarda adabiyot to'g'risidagi ilmining keng rivoj topishi uchun turtki, katalizator vazifasini o'tadi.

Sharq mamlakatlarida X-XI asrlarda Forobiy, Ibn Sino, Ibn Rushd va boshqa faylasuflar ijodida "Al-muallimi al-avval", ya'ni "birinchi muallim" Arastu (Aristotel) ilmiy-nazariy qarashlarining sharhlanishi va rivojlantirilishi keng

kuzatiladi. Aristotel asarlariga yozilgan sharhlar va Aristotel fikrlarining turli fan sohalarida rivojlantirilishi bois, musulmon Sharqida Forobiy “Al-muallimi assoniy”, ya’ni “ikkinchi muallim” sharaflı nomiga sazovor bo‘ladi.

Aristotel “Poetika”sini dastavval Abu Bashr Matta (vafoti 932) suriyoniy tilidan arabiyga ag‘dargan, Yaxyo ibn A‘diy (vafoti 960) esa asarni yana suriyoniydan tarjima qilgan. Ibn Sino ana shu ibn A‘diy tarjiması asosida unga sharhlar yozgan. Ibn Rushd ham ibn A‘diy tarjimasini sharhlagan. 12 asrda Toledoda ibn Rushd sharhini olmoniyalik Xermen (vafoti 1256) lotin tiliga o‘giran. Insoniyat madaniyati tarixida Aristotelning “Poetika” asari anchayin murakkab taqdirni boshidan o‘tkazib, musulmon arab madaniyati va G‘arb renessansi tarkibida bizning davrimizgacha eramizdan oldingi 3 asrdan yetib kelgan.

Forobiy “*she’r san’atini bezaydigan narsa so’zdir*”, -deydi. Olim so’zning ta’siri kuchi mavjudligini tan oladi va unga ishonadi. Shu bois, ko‘pchilik shoirlar o‘z fikr va mulohazalarini boshqalarga o‘tkaza oladilar, deb hisoblaydi. Olim fikriga ko‘ra, vaznni buzmaslik she’r qurilishining to‘kis, tarashlangan bo‘lishiga olib keladi. Ammo Forobiy hozirgi ma’nodagi adabiy turlar va janrlar tuzilishini aniq idrok eta olmagan. Ibn Sino tasavvurida ham badiiy adabiyotning tur va janrlarga bo‘linishi ilmiy tafakkur darajasija emas. Ibn Sino she’riy asarning inson va uning ruhiyatiga ta’siri, she’r insonni taajublantirishi, xissiyotlarni kuchaytirishi, she’rning o‘zida “tuyg‘u” bo‘lishi haqida gapiradi. “Forobiy va Ibn Sinolar Aristotel “Poetika”siga yozgan sharhlarida epos va drama haqida, shuningdek turni aniqrog‘i zohlab berishga qaratilmagan edi”.

Keyinchalik esa qadimgi yunon ilmiy tafakkurining Sharqda ilmiy-ijodiy o‘zlashtirilgan natijalarini, uning Yevropa madaniyatiga ta’siri va mazkur ta’sir asosidagi adabiyot nazariyasi rivojini ko‘rish mumkin. “sharq ta’siri faqat ilm-fan, falsafadagina emas, adabiyotda ham ancha sezilarli bo‘ldi. Ovrupadagi dunyoviy mazmundagi adabiyot dastavval Ispaniyada, avval arab tilida, keyinchalik mulamma (shiru shakar) turida shakllandi. Bu she’rlar ko‘pincha zajal va muvashshax janrlarida yaratilgan bo‘lib, ayniqsa, zajal keng rivoj topgan. Sharq bilan uchrashmaguncha Ovrupa mamlakatlari, xatto ilg‘or Fransiyada ham yozma adabiyot din arboblari tomonidan diniy mazmunda, lotin tilida yaratilgan asarlardan iborat bo‘lgan”.

O‘rta asrlar yevropa adabiyotidagi keng tarqalgan, hamda inson ichki ruhiyatiga qaratilgan romantizm hodisasining ilk vatanlaridan biri ham sharqdadir. Romantizm asosida ham sharq (arab va musulmon) adabiyoti namunalari ta’siri, aniqrog‘i uning arab ishqiy lirikasi asosida shakllanganligi, ya’ni G‘arb romantizmi asosida Sharq ishqiy lirikasi yotishi ham isbotlangan ilmiy faktdir.

Aristotel va Gorasiylarning she’r san’atiga aloqador bo‘lgan ilmiy qarashlari keyinchalik Yevropada keng tarqalgan renessans, ya’ni Uyg‘onish davrida, aniqrog‘i XIV-XVI asrlarda, arab-musulmon madaniyati ta’siri orqali qayta shakllantirilib, ya’ni Yevropa poetikalarining kelib chiqishiga asos bo‘ladi.

Nazorat topshiriqlari:

1. Aristotelning “Poetika”sini jahonshumul ahamiyatni ko‘rsating.
2. Mimesis atamasini izohlang.
3. Aristotel ta’limoti Sharq adabiyotida qanday rivoj topgani haqida ma’lumot bering.
4. G‘arb va Sharq madaniyatlarini o‘zaro ta’siri va mutanosibligini ochib bering.

Mustaqil ish mavzulari:

1. G‘arb adabiyotida Aristotel poetika.
2. Mumtoz sharq adabiyotida poetika masalalari.

Asosiy adabiyotlar:

5. Xalizev V.E. Teoriya literaturi. –M., 2000.
6. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. –T., 2002.
7. Kudelin AB. Srednevekovaya arabskaya poetika. –M., 1983.
8. Shark mumtoz poetikasi: manba va talkinlar. –T., 2006.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

4. Lukov V.A Istoriya literaturi. Zarubejnaya literatura ot istokov za nashix dney. –M., 2005.
5. Boriev Yu. Estetika. Teoriya literaturi: ensiklopediyskiy slovar terminov. – M., 2003.
6. Ziyovuddinova M. Abu al-Xorazmiyning «Mafotix al-ulum» asarida poetika. –T., 2001.

MA'RUZA №3 ADABIY JARAYON VA POETIKA

Darsning maqsadi: Adabiy jarayonni tushuntirish, uni tarkibiy qismlarini aniqlashdan iboratdir.

Tayanch iboralar:

Adabiy jarayon, poetika, adabiy yo'nalish, badiiy uslub, antik adabiyot, epos, drama.

Nazorat savollari:

1. Antik adabiyot poetikasi nima?
2. Badiiy uslub deganda nimani tushunasiz?
3. Adabiy jarayonini nima tashkil etadi?
4. Adabiy yo'nalish nimadan iborat?
5. Adabiy yo'nalish bilan poetika qanday munosabatda?

Badiiy adabiyot anvoyi janrlarda yozilgan. Xilma-xil adiblar qalamiga mansub bo'lgan, turli tuman davrlar, xalqlar, tabaqalar hayotini aks ettirgan yuzlab va minglab adabiy asarlardan iborat. Muayyan adabiy asarning g'oya va mazmuni, janri va qahramonlarini tanlashda yozuvchiga tarixiy sharoit, zamon talabi, adabiyotning umumiy ahvoli va juda ko'p omillar ta'sir ko'rsatadi. Badiiy adabiyotning tarkibiga kirgan alohida asarlar bir-birlari bilan va voqelik bilan doimo uzviy bog'lanishda bo'ladi.

Badiiy adabiyot qadimgi zamonlarda miflar, ertaklar, xalq qo'shiqlari va dostonlari, antik dunyo eposlari va dramatik asarlari tarzida paydo bo'lganidan beri necha ming yillar davomida juda ko'p tarixiy o'zgarishlarni boshdan kechirdi, uning ijtimoiy mazmuni, badiiy shakli ham juda ko'p taraqqiyot bosqichlaridan o'tdi.

Adabiy jarayon bu adabiy yo'nalishlarni almashinuvidir. Adabiy yo'nalish — ma'lum tarixiy davrda o'z tajribasi bilan bir-biriga yaqin turgan bir necha yozuvchilar ijodidagi g'oyaviy-badiiy xususiyatlari — mavzu, g'oya, badiiy tasvir vositalari va h. birligidir. Har bir yo'nalishning o'ziga xos estetik tamoyillari, ya'ni dasturi shu yo'nalish vakillari ijodida bajarilishi shart bo'lganligi — adabiy yo'nalishning muhim belgisidir.

Adabiy yo'nalish u yoki bu milliy adabiyotida ma'lum bir davrda yuzaga kelib, ma'lum bir davrda yo'qoluvchi tarixiy hodisadir. Adabiy yo'nalish bilan adabiy oqim tushunchalarini bir-biriga qorishtirib yubormaslik kerak. Adabiy yo'nalish adabiy oqimga nisbatan kengroq tushuncha bo'lib, u ma'lum bir davrda biror adabiyot doirasida harakat qiladi. *Adabiy oqim* esa adabiy yo'nalishga nisbatan torroq tushuncha bo'lib, u yoki bu umumadabiy doirada harakat qila olmaydi. Masalan, klassisizm XVII-XVIII asrlar umumevropa adabiyotida asosiy yo'nalish bo'lgan bo'lsa, adabiy oqim bunday keng miqyosda harakat qila olmasdi. Ma'lum bir davr adabiyotida adabiy yo'nalish bitta bo'lib, u shu davr adabiy jarayonini muayyan tomonga yo'naltirib yuboradi. Masalan, roman tizim yo'nalishi, realistik yo'nalish va h.

Biror davr adabiyotida bir nechta adabiy oqim bo'lishi mumkin, ammo u umumadabiyotni biror tomonga yo'naltira olmaydi. Masalan, **naturalizm**, **sentimentalizm**, **akmeizm**. Adabiy aloqa va adabiy ta'sir adabiy jarayonning, adabiyotlarning o'zaro bir-biri bilan aloqa va ta'sir qilib turushidan, bir adabiyot

badiiy tajribasini boshqa adabiyot tomonidan o'zlashtirishdan iborat asosiy qonuniyatlaridan biri.

Dunyoda boshqa xalqlarning adabiyoti bilan aloqada bo'lmagan, yolg'iz o'zi rivojlanuvchi adabiyot yo'q. Avval adabiy aloqalar bo'ladi, so'ngra adabiy ta'sir yuz beradi.

Har bir adabiy yo'nalish o'z poetikasi bilan rivojlanadi.

Jahon adabiy jarayonda bir nechta bosqichlarni ajratish mumkin, (biz umumevropa miqyosini nazarda tutamiz): antik adabiyot, uyg'onish davri adabiyoti, klassisizm adabiyot, romantizm, realizm, modernizm, postmodernizm.

Antik adabiyot va uning poetikasi: badiiy rivojlanish bosqichi –evropadagi yozma adabiyotni boshlanish bosqichidir. Uning badiiy konsepsiyasi: qahramon go'zal, ammo taqdir-qismati xudolarga bog'liq bo'lib, u shu qismati bilan kurashadi. Ayni shu davrlarda miflar paydo bo'ladi. Mif – bu xudolar va afsonaviy qahramonlar to'g'risidagi aqida va xayollarni bayon qilgan qarashlar. Qadimgi inson qarashi, badiiy tafakkuri bevosita mif bilan bog'liqdir. Har qanday mif asosida ham konkret narsalar yotadi, biroq bu narsalarning bajaradigan funksiyasi reallik kasb etmaydi.

1. Mifologiya.
2. Gomergacha bo'lgan she'riyat (lirik ashulalar, epik poeziyasi, Orfey, u to'g'risida miflar-asotirlar)
3. Gomer eposi.

Gomerning "Iliada va Odisseya" poemalari bizning davrimizgacha bo'lgan ming yillikning birinchi uchligida ijod etilgan. Troya mifologiyasiga asoslangan, unda qadimgi yunonlar va troyaliklar o'rtasidagi urush tasvirlangan. Uning ikki sababi bor:

- 1) Zevsni inson hayotiga aralashuvi.
- 2) Troya shahzodasi Pariyaning Sparta malikasi Yelenani o'g'irlab ketishi.

Badiiy uslub

1) Epik uslubning asosiy prinsipi: Umumiylikni shaxsiylikdan ustun kelishi, chunki jamoa urug'chiligiga asoslangan vaqtini tasvir qiladi, ammo sodda va ibtidoiy tasavvurlardan uzoq, ya'ni ibtidoiy jamoa jo'nligidan farqli o'laroq ziddiyatlarga to'la.

2) Qat'iy epik uslub – ob'ektiv reallik nuqtai nazardan talqin, xatto xudolar va jinlar, ajoyibotlar go'yo haqiqiy mavjudotlar kabi tasvirlanadi.

3) E'tibor asosan hodisalarning tashqi ko'rinishiga beriladi. Qahramonlar ruhiy hayoti to'g'risida juda kam ma'lumotlar bor. Tashqi tavsiflar muhabbat bilan tasvirlangan.

4) An'anaviylik – sobit, doimiy asliy personaj, uning hamma qabul qilgan va zarur tomonlari aks etadi. Shuning uchun poemalari xalq dostonlariga yaqin turadi.

5) Monumentallik – keng qamrovlilik, poemalarning moziyning buyuk yodgorligiga aylanishining sababi shunda.

6) Qahramonlik – mayda xususiyatlarda ham, umumiy xalq hayoti bilan bog'liq. Uning psixologiyasi umumiy xalq psixologiyasiga javob berishi kerak.

7) O'zgarmas xotirjamlik – avlodlar almashinuvi qonuniyatini yaxshi anglagan hikoyachi xotirjamligi. Bu munosabat loqaydlik belgisi emas, yoki katta

ehtiroslardan uzoqlik ham emas. Bu xalq eposiga xarakterli hikmat, roviy, hikoya tabiat va jamiyat qonuniyatlarini doimiylikni biladi. U katta hodisalarni asriy rivojida ko'ra biladi, shuning uchun uning nutqida o'zgarmas xotirjamlik bor.

Gesiod – va uning didaktik uslubi

(Gesiod – didaktik epos muallifi)

Qahramonlikka asoslangan jamiyat buzila boshladi. Qahramonlik epos emas. ("Mehnat va kunlar" muallifi) dehqon hayoti tadbirkorlik, moddiy boylik to'plash, ya'ni syujet xudolar mavjud bo'lsa ham, samoviy va qahramonlik mavzularda oddiy hayotga kiritilgan.

Uslubi: qisqa, quruq, lo'nda, Gomerning ko'pso'zligi, kenglik va baland parvozligiga to'la zid. Axloqiy nasihatlar bilan to'lib toshgan.

Drama

1) Esxil – kishanlangan Prometey. Istibdod bilan kurashish, zaif va mazlumlangan insonning himoyasi.

2) Sofokl – "Shoh Edip", "Antigona" inson bilmasdan yomon ishlar qiladi. Insoniy munosabatlar, ziddiyatlar, lekin qismat, taqdir xudolar qo'lida, qismat bilan kurash.

3) Yevripid – "mediya"-xudolar salbiy tomondan tasvirlanadi, ular shafqatsiz ("Gerakl"– Zevs va uning xotini Gera Geraklning hayotini musibatga aylantiradi).

Feodal tuzumdan, kapitalistik bosqichga o'tib kelayotgan davrda adabiyot yangi qadriyatlar va tamoyillarga, ulug' siymolarga muhtoj edi. XIV-XVI asrlarda chinakam o'z tafakkur kuchi, o'z ehtiros va xarakterlari, mukammalligi va ko'pqirraliligi jihatdan ulug' siymolar yetishib chiqdi.

Umuman olganda, o'zining tarixiy bosqichida taraqqiyot bosqichidan o'tsa, o'sha xalq orasidan mumtoz jihatini ifodalab beradigan ijodkor yozuvchi chiqadi. Masalan, Gomer - qadimgi yunonlar orasidan, Dante - Uyg'onish davrining birinchi siymolaridan. Albatta, bu adabiy hodisa sodda emas, balki murakkab, va unda ob'ektiv va sub'ektiv omillarni ham nazarda tutish lozim.

Nazorat topshiriqlari:

1. Adabiy jarayonni aniqlang.
2. Adabiy yo'nalish tushunchasini tushuntiring
3. Antik adabiyot poetikasidan misollar keltiring.
4. Jahon adabiy jarayonida asosiy yo'nalishlar va oqimlarni ko'rsatib o'ting.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Badiiy uslub.
2. Adabiy yo'nalish va adabiy oqimlar.

Asosiy adabiyotlar

- 1.Xalizev V.E. Teoriya literaturi. –M., 2000.
- 2.Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. –T., 2002.
- 3.Kudelin AB. Srednevekovaya arabskaya poetika. –M., 1983.
- 4.Sharq mumtoz poetikasi: manba va talqinlar. –T., 2006.

Qo'shimcha adabiyotlar

- 1.Lukov V.A Istoriya literaturi. Zarubejnaya literatura ot istokov za nashix dnei. –M., 2005.

2. Boriev Yu. Estetika. Teoriya literaturi: ensiklopediyskiy slovar terminov. –M., 2003.
3. Ziyovuddinova M. Abu al-Xorazmiyning «Mafotix al-ulum» asarida poetika. –T., 2001.

MA'RUZA №4. ARAB ADABIYOTI POETIKASIGA KIRISH

Darsning maqsadi: qadimgi arab adabiyoti poetikasi va obrazlar tizimi bilan tanishtirish.

Tayanch iboralar:

Vazn, qofiya, muallaqa, obrazlar tizimi, qabilaviy fikr yuritish, an'anaviy syujet, qasida kompozitsiyasi.

Nazorat savollari:

1. An'anaviy arab poetikasi to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Muallaqa poetikasi nimadan iborat?
3. Qadimgi arab adabiyoti obrazlar tizimiga nimalar kiradi?
4. An'anaviy syujet va kompozitsiya prinsiplari nimalardan iborat?

O'rganilayotgan mamlakat adabiyoti poetikasiga o'tar ekanmiz, avvalambor, biz klassik arab she'riyati va prozasi mualliflarining ijodidagi adabiy tamoyillar tizimini o'rganamiz. Bu tamoyillar shu davr she'riy tasavvurlarida va ta'limotlarida ishlab chiqarilgan. Biz she'riy va ba'zi nasriy yodgorliklar hamda tanqidiy va adabiy-nazariy asarlarni tahlilga tortdik.

An'anaviy arab poetikasida badiiy ijodning ko'pgina ilmiy-nazariy muammolari ko'riladi. Ko'proq ishlangan bu muammolardan biz vazn va qofiya, adabiy nutqni ifodaviy-tasviriy vositalari muammosi, asillik muammosi, mazmun va shakl mutanosibligi muammosi va boshqa muammolarni ajratib olamiz.

An'anaviy arab poetikasi ko'p mamlakatlar filologlari tomondan o'rganilib kelindi va o'rganilmoqda. Ulardan Nyoldeke, Freytag, Alvart, Meren, so'ng Goldsyur, rus arabshunoslaridan Rozen V.R., Krinskiy A.E., ayniqsa, Krachkovskiy I.Yu., sovet davrida Shidfor B.Ya., Kudelin A.B.larni eslab o'tish mumkin.

VI-XII asrlarda rivojlangan arab adabiyoti jahon adabiyoti tarixining eng yorqin sahifalari bo'lgani uchun hanuzgacha o'ziga e'tibor qaratadi va qiziqish uyg'otadi. Arab adabiyoti bilan tanishish johiliya (islomgacha bo'lgan) she'riyatidan qadimgi arab she'rlari Imrulqays, Taraf, Antara va boshqa muallaqotlar mualliflari ijodidan boshlanadi.

XX asr boshlanishiga qadar musulmon mamlakatlarida va Yevropada adabiyotning asosiy namunalari nashr etildi. Ular manbashunoslik nuqtai nazardan o'rganilgan, ammo poetika fani arab nasri va nazmini o'sha davr madaniyati xususiyati nuqtai nazaridan o'rganadi, uni tipologik xususiyatlarini nazarga oladi, o'sha davr ijodkorlarining dunyoqarashini, falsafiy va estetik tizimlarining mohiyati, psixologiyasini ochib beradi va nazariy qarashlarini amaliy tajriba bilan taqqoslaydi. Ayniqsa, arab adabiyoti obrazlar tizimini o'rganish alohida ahamiyatga ega.

Qadimgi arab adabiyoti obrazlar tizimining asoslari. Qadimgi badaviylar she'riyatini belgilari: syujetni nisbiy kamligi, baytlar orasidagi mantiqiy aloqa zaifligi, tabiatni va hayvonlarni uzundan uzoq tavsifi, dunyoqarash doirasi chegaralanganligi. Bularning hammasi urug'chilik jamiyatidan chiqqan insonning dunyoqarashi xususiyatlaridir. Ko'chmanchi arablarni o'ragan muhit ancha og'ir bo'lib, insonga nisbatan ko'proq muruvvatini emas, balki shafqatsiz olamni

ko'rsatadi. Taqdir inson hayoti ustidan hukm suradi, u yoki barakali yomg'ir, yoki halokatli qurg'oqchilik olib keladi. Inson bu olamda o'zini shaxs sifatida ko'rmaydi, u olam bilan o'z urug'i, qabilasi orqali bog'langan. Uning nigohi o'z ruhiy dunyosi ichiga qaratilmagan, balki ko'proq tashqari olamga, tabiat dunyosiga qaratilgan.

Qadimgi arab she'riyati yodgorliklari yaratilgan muhit xususiyatlari:

Qabila shayxlarining (doxolarining) to'la hukmdorligi, qabilalar o'rtasidagi adovat va ittifoqlik, qariyalar majlisi va qabila a'zolarining to'la yig'ilishi, qonli qasos olish odati, bu odat qabilaning hamma a'zolariga nisbatan tarqalgan, qotil etilgan uchun ajr to'lash, kohinlarning hukmdorligi, tabiatni kuchiga sig'inish, qabilaning o'z ilohiga ega bo'lish, o'g'il asrab olish odati va boshqalar.

Mana shu muhitda, ya'ni urug'chilik-qabilaviy munosabatlar rivojlangan paytda, ajoyib she'riy namunalar paydo bo'ldi va muallaqa nomini oldi. Bu yodgorliklar ancha keyin yozildi, ya'ni oldin og'zaki shaklda roviylar ularni o'qib yurar edi. Keyinchalik esa VIII-IX asrlarda Bag'dod tilshunoslari tomonidan yozib olina boshlandi.

Arab poetikasining “an'anaviy” tamoyillari

Qasidaga odat bo'lib qolgan quyidagi syujetlar kiradi:

1. Shoir yo'lida qabila xarobalarini uchratadi, unda uning ma'shuqasi yashagan va xotiraga beriladi.
2. Ma'shuqasi ko'chib ketadi.
3. U bilan uchrashuv xotiralari.
4. Sahro bo'ylab yo'l tavsifi
5. Peyzaj, vasf qasidaning markaziy qismini egallaydi (tuyaning va otning vasfi, uchragan hayvonlarning vasfi).
6. Ajralish qushi – qarg'aga murojaat, shoir yovuz qushni la'natlaydi, chunki u firoqni bashorat qiladi.
7. Faxr – qabilasini tarannum etish, dushman qabilasini yerga urish.
8. Xamriyat – ziyofat vasfi.
9. Riss – o'lgan qahramonga marsiya.
10. Dushman qabilasiga yurish vasfi, jangning tavsifi.
11. Qasos mavzui.

Bular har xil tus olib, takrorlanadi, ammo 5-6 syujet albatta mavjud bo'lishi lozim. Eng sobit va doimiy unsuri – bu nasib (kirish qismi) tashlab ketilgan xarobalar bilan uchrashib, ma'shuqani eslash va vasf qismi.

Qanchalik shoir o'z ijodida ixtiyoriy ozodlikka ega edi? Eng asosiysi shoirning ijodiy hayoloti aniq bir doira ichida parvoz qilishi lozim edi. Eshituvchi o'zi o'rgangan ma'lumotlarni yana bir bor eshitishni xohlar edi. Bu qasidaning eng asosiy xususiyatlaridan biri. Shuning uchun biz “odat bo'lib qolgan estetika” to'g'risida so'z yuritamiz.

To'g'ri, ba'zida bu odatga nisbatan biz e'tirozni uchratamiz, masalan, Antara muallaqasida yozilgan: Shoirlar o'zlaridan keyin bir yangi narsa qoldirishdimi?", ammo bu e'tiroz anglangan e'tiroz emas edi.

Qadimgi arab she'riyatini asosi – bu syujetning turfaligida emas, balki uning takrorlanishida, ammo uni shakllantirganda yangilik va tasodifiy unsurlar kiritish sharti bilan (Bir nechta she'rlardan namuna).

Doimiy obrazlar borligiga qaramay (masalan, qoldiqlarni qadimgi yozmalar bilan taqqoslash), syujetni takroriga qaramay, ularni ishlab chiqishda asllik bor, takror yo'q. Odatiy syujet eshituvchida ijobiy emotsional ko'nikma hosil qiladi. Eshituvchi tanish nomlarni eshitish bu emotsional turtkidir va ijodiy yondashuv. Takrorga qaramasdan, har bir shoirning o'ziga xosligi yo'qolmagan, ayniqsa, shoirlarning ijodiy individualligi ma'shuqa bilan uchrashuvda yaqqol seziladi. Antarada –poklik va qahramonlik motivlari, Imrulqaysda ochiq va nafis erotika, A'sha – hikmat mavzulariga berilish.

Nasib – qasidani lirik qismi, ishqiy she'riy paydo bo'lishiga olib keldi. Unda dialog shakli ayniqsa, ahamiyatli (g'azalda ham uchraydi) va “dedi”, “dedim” dan boshlanadi.

Demak, qadimgi arab poeziyasi syujetlar tomondan hech ham zaif emas, chunki ko'chmanchi arab-badaviy yo'lida (umrida) uchraydigan barcha hayotiy vaziyatlarni o'ziga qamrab oladi.

Nazorat topshiriqlari:

1. Qadimgi arab adabiyoti poetikasi kimlar tomondan o'rganilganini aniqlang.
2. Muallaqaning mohiyatini ochib bering.
3. Urug'-qabilaviy munosabatlar she'riyatda qanday o'z aksini topganini ko'rsating.
4. Qasidaning qismlarini sanab o'ting.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Mashhur mumtoz qasidanavislari.
2. Qasidaning doimiy syujetlari (misollar bilan).

Asosiy adabiyotlar:

1. Xalizev V.E. Teoriya literaturi. –M., 2000.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. –T., 2002.
3. Kudelin AB. Srednevekovaya arabskaya poetika. –M., 1983.
4. Sharq mumtoz poetikasi: manba va talkinlar. –T., 2006.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Lukov V.A Istoriya literaturi. Zarubejnaya literatura ot istokov za nashix dney. –M., 2005.
2. Boriev Yu. Estetika. Teoriya literaturi: ensiklopediyskiy slovar terminov. – M., 2003.
3. Ziyovuddinova M. Abu al-Xorazmiyning «Mafotix al-ulum» asarida poetika. –T., 2001.

MA'RUZA №5. JOHILIYA DAVRIDAGI ADABIYOTDA INSON VA TABIAT

Darsning maqsadi: Johiliya davrida adabiyotdagi obrazlar bilan tanishish, qasida janri tarkibiy qismlarini o'rganish, an'anaviy prinsiplari bilan tanishish, shuningdek, asosiy qahramon obrazini aniqlash.

Tayanch iboralar:

Tabiat obrazlari, g'ul, layl, qahramon, badaviy, sahro, tashbeh, balag'a.

Nazorat savollari:

1. Qasida poetikasida vasfni roli qanday?
2. Qahramon konsepsiyasi nimadan iborat?
3. Badiiy-ifodaviy vositalar (tashbeh, mubolag'a, talmeh, tazod)dan qaysi birini bilasiz?

Urug'chilik – qabilaviy munosabatlar rivojlangan jamiyatda inson butun borliqni yaxlit tasavvur qiladi. Qadimgi arab madaniyati olamni falsafiy anglamasa ham, uning badiiy tafakkuri o'ziga xos yorqin, jozibali va obrazlidir. Uning uchun barcha tabiiy narsalar go'zallik timsolidir. Uning o'rgan muhitni vasf etganda, bu olamga abstrakt falsafiy kategoriyalar orqali yondashmasdan, balki go'zal badiiy obrazlar orqali sharhlaydi.

Yomg'ir – saxiylik, qora bulut, momaqaldiroq, chaqqoq, uning unsurlari, bulutli osmon, dovul.

Qurg'oqchilik – baxillik obrazi.

Vasfda peyzaj katta rol o'ynaydi va qasidaning markazini egallaydi. Manzara va tabiat ko'rinishlari tashxislangan, ya'ni jonlantirilgan, insonning sifatleri berilgan.

Tun – uyqudan turgan hayvon.

Taqdir – odam qonini ichuvchi yirtqich.

G'ul – yovuzlik ramzi, u insonga doim yovuzlik qilib, to'sqinlik qiladi.

Qadimgi shoir tabiat hodisalarini sevadi va ular qanday bo'lmasin tarannum etadi. Shoir tabiatni o'zining qismi, o'zini esa tabiatning qismi deb anglaydi. Shuning uchun tabiat vasfi eng o'ziga xos individuallashtirilgan qasidani qismi sanaladi. Bu shoir uchun oq rangli eshak yoki tosh ustida yotgan ilon go'zallik timsoli.

2. An'ana: 1) faqat yoqqan hodisalarni va hayvonlarni tavsif etish;

2) Qo'rqan narsani tilga olmaslik. Masalan, sher yoki qoplondek yirtqich, insondan kuchli hayvonlarni she'rlarida tavsif etmaydilar, ammo ularga o'xshatish mumkin. Masalan, "sherdek kuchli", "qoplondek chaqqon" va h. ammo yaxshi ko'rgan narsalarning nomini qayta va qayta takrori omad keltirishga ishonar edilar.

3) Manzara bilan bog'liq syujet yoki vasf ob'ekti tanish muayyan his-tuyg'ularni paydo qiladi. Yomg'ir-gullayotgan dala - hursandchilik – koinot go'zalligi, tabiat kuchi.

Tezlik – yovvoyi eshak, kaklik, starus timsolida, jasurlik va g'urur- bo'ri timsolida.

Muxlislik va onalik muhabbati – kiyik timsolida. Bu hayvonlarga o'nlab she'rlar bag'ishlangan. Shoir ularni sifatlarini o'zining shaxsiyatiga o'tkazadi.

Masalan, bo‘rini tavsifi ayniqsa, deydi shoirlar Ta’abbata Sharran va Shanfaralarda ko‘p uchraydi. Shanfar o‘z qabilasidan haydalgan, mag‘rur, qo‘rquv bilmagan daydi yoki bezori shoir.

Demak, manzarani tavsifi o‘zidan keyin muayyan bir syujetni kelib chiqishini nazarda tutadi.

Qahramon obrazi

Misoliy badaviy qahramon barcha shoirlarda deyarli bir xil bo‘yoqlarda tasvirlangan: u doim yo‘lda, saxiy, jasur jangchi, ziyofatlarni yaxshi ko‘radi. Ayollar hayotida muhim rol o‘ynaydi, muhabbat va nafratida chegara bilmaydi. Tashqi ko‘rinishi: qoraqosh, qorako‘z, sochi ham qora, bo‘yi baland, ixcham qomatli.

Bu tavsiflarda individual xususiyatlar juda kam. Qahramon odatda an’anaviy fazilatlariga ega. Ammo johiliya davri shoirlari ichida Imrul Qaysda shunday obrazlar uchraydiki, ularda shoirning o‘ziga xosligi, asilligi yaqqol seziladi. Ayniqsa, bu hodisa “Muqatta’at”larda uchraydi, ya’ni an’anaviy janrlardan farqli o‘laroq yozilgan kichkina qit’alarda. Imrul Qays lirikasi zamonaviy lirikasi yaqin.

Umuman olganda, badiiy ong rivoji bilan shoirlar eski ideallar bilan qanoatlanmaydi. Qadimgi arab she’riy hayot o‘tkinchi ekanligi to‘g‘risida ma’yus ohanglar, o‘lim haqligi to‘g‘risida fikrlar, taqdirga tan berish va uning insonga nisbatan o‘yini to‘g‘risida mulohazalar va boshqa mavzular paydo bo‘ladi. Yulduzli osmon – o‘zgacha kayfiyat bag‘ishlashi insonlar o‘limidan keyin tenglikka erishishi, insonni tabiat oldida zaifligi kabi mavzulardir.

Misoliy qahramon obraziga qaytsak, uning timsolida bir-biriga ziddiyat xususiyatlar bor: dushmanlarga – shavqatsiz va jasur, do‘stlariga –saxiy va mehmondo‘st, xolis. Qabila va ma’shuqasiga cheksiz berilgan. Jangda dushmanini qirishda charchoq bilmas, ammo qabila ko‘chgan xaroba ustida ko‘z yoshini to‘kadi. Yo‘lda tinmasdan bir necha kun katta masofani bosib o‘tadi, bo‘sh vaqtini ziyofatda do‘stlari va cho‘ri ayollar orasida beg‘am o‘tkazadi. Mana shu narsalar to‘g‘risida yozar ekan, bir syujetdan ikkinchi syujetga izchillikni saqlamagan holda o‘tadi, shuning uchun ham qadimgi arab she’riyatini tarqoqlikda ayblashgan. Ammo ayni ana shu emotsional to‘laqonlik eshituvchilarni e’tiborini jalb qilgan va ziyraklik bilan asarga yondoshishga undagan. Bu fragmentarlik badaviy she’riyatni xislatidir, uning badiiy tafakkurini xususiyati. Shuning uchun tushkunlik bilan sug‘orilgan qismdan to‘ppa-to‘g‘ri ziyofatni va maishatni kuylovchi qismga o‘tishni biz o‘sha zamon ongi uchun tabiiy deb hisoblaymiz. Ular hammasi eshituvchiga emotsional ta’sir ko‘rsatishga qaratilgan.

Qadimgi arab she’riyatini badiiy vositalari va johiliya she’riyati so‘nggi davrlaridagi arab she’riyatini rivojiga shakl va badiiy vositalar ishlatishda juda katta ta’sir ko‘rsatdi. Ayni shu davrda asosiy ko‘chimlar va obrazlar paydo bo‘ldi.

Badiiy obrazlar shakllantirishda quyidagi badiiy vositalar ishtirok etgan:

1) O‘xshatish – tashbeh. Tabiatdan kelib chiqadi, shuning uchun qiz bolani barmoqlari – pushti rangli chuvalchang, o‘zini – qo‘tir tuyaga, jiyanini maqtab ilonga o‘xshatsa, bular tabiiy hol. Doimiy epitelar paydo bo‘lgan va ular an’anaviy tus olgan.

2) Xarobalar qoldiqlari – qadimgi yozmalar bilan ma’shuqa – kiyik yoki jayron. Qizning yuzi – quyosh, chiroq.

3) Bu yo‘nalishlar johiliya she’rida har xil syujetlarda ishlatilar edi, keyin adabiy shtampga aylangan. Sekin-asta atrofdagi xalqlarning ta’siri (eronliklar, rimliklar) badiiy obraz yaratishda sezila boshladi. O‘zini qo‘tir tuyaga o‘xshatish kamsitish emas, balki yolg‘izliklarini ko‘rsatish.

4) O‘xshatish – mubolag‘aga o‘tib ketadi. So‘ng tashxis - jonlantirish, tabiatni hamma hodisalarini jonlantiradi – iste’origa aylanadi.

Johiliya davri adabiyotining syujetlari

Johiliya davrining shoirlari asarlaridan tashqari shu davr adabiyotini o‘rganish uchun yana bir manbaa bor, u ham bo‘lsa shoirlarning tarjima hollari. Ular bizgacha Abu-l-Faraj al-Isfaganiyning “Qo‘shiqdar kitobi”da (“Kitab-ul-ag‘ani”) asarida yetib kelgan, shuningdek, o‘rta asr tazkiralardan (“Masari al-‘ushshaq” – “Sevishganlar fojeasi”) va keyinroq tuzilgan to‘plamlardan ma’lumotlar olamiz.

Bu tarjimon hollarda bitta xususiyat ko‘zga tashlanadi: shoirlarning shaxsiyati ustura (asotir) tusini olib, hatto ertaksimon syujetlar hayotini to‘lg‘azadi. Shoirlar obrazi aniq bir inson tilini o‘zida mujassamlashtiradi.

Imrul Qays – saxiy, xotinboz, ayshu ishratga berilgan. Zuxayr, Nabig‘a – qabila hokimlari (oqsoqollari).

Jamil va Majnun – baxti yurishmagan oshiqdar.

Roviy u yoki bu shoir to‘g‘risida hikoya qilganda uning asarlarini o‘qish bilan birga uning hayotini gapirib beradi va shoirni o‘zini qahramon sifatida tasvirlaydi.

Nazorat topshiriqlar:

1. Qadimgi she’riyatda inson va tabiat mutanosibligini aniqlang.
2. Johiliya davridagi shoirlardan bilganingizni sanab o‘ting.
3. Johiliya davri shoirlarining she’rlaridan keltiring.
4. She’rlarni tahlil qiling.
5. Johiliya davri adabiyotida inson va tabiat mavzuni aniqlang.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Badiiy-ifodaviy vositalar.
2. Mumtoz arab she’riyatida qahramon konsepsiyasi.

Asosiy adabiyotlar:

5. Xalizev V.E. Teoriya literaturi. –M., 2000.
6. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. –T., 2002.
7. Kudelin AB. Srednevekovaya arabskaya poetika. –M., 1983.
8. Shark mumtoz poetikasi: manba va talkinlar. –T., 2006.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

4. Lukov V.A Istoriya literaturi. Zarubejnaya literatura ot istokov za nashix dney. –M., 2005.
5. Boriev Yu. Estetika. Teoriya literaturi: ensiklopediyskiy slovar terminov. – M., 2003.
6. Ziyovuddinova M. Abu al-Xorazmiyning «Mafotix al-ulum» asarida poetika. –T., 2001.

MA'RUZA №6. ARAB ADABIYOTINING VII -VIII ASRLAR POETIKASI

Darsning maqsadi: VII -VIII asrlar poetikasida ramzlar va ularning mohiyati bilan tanishtiradi hamda Qur'oni karimning rivoyatlarida obraz va syujetlariga to'xtalinadi.

Tayanch iboralar:

Obrazlar tizimi, Ibn Quteyba, Ibn abd Rabbix, epik qahramon, ramzlar, Qur'oni karim, etalon.

Nazorat savollari:

1. Ramzli obrazlar tushunchasi nimani anglatadi?
2. Qur'on obrazlari, ularning ahamiyati nimada?
3. Obrazlarni yangi bosqichda yangi rivoji?

Obrazlar tizimining asosiy prinsiplari. Johiliya davri adabiyoti, ayniqsa, she'riyati to'g'risida, uning obrazlar tizimi to'g'risida bir muncha tasavvurga ega bo'lgan ekanmiz, uning buyuk shoirlari haqida ma'lumotlarni Abu-l-Faraj al-Isfahoniyni (897-966) "Qo'shiqlar kitobi" asarida, hamda 8-asr adiblari Ibn Quteyba, Ibn abd Rabbixilarning tazkiralariidan topishimiz mumkin. Bu ma'lumotlar tarjimai hol shaklida emas, balki "rivoyatlar, hikoyatlar" shaklidir. Unda shoirlar haqidagi rivoyatlar afsonalashtirilgan, shoirlar esa epik qahramonlarga aylanganlar.

Antara –jasur paxlavon, botir.

Imrul Qays –sahiy, aysh-ishratga berilgan.

Tarafa – sarguzashtlarni yaxshi ko'radi.

Zuxeyr, Nabig'a – qabila hakimlari, donishmandlari.

Ular haqiqatda yashagan shoirlar, ammo qadimgi arab eposi qahramonlari bilan bir qatorda turishadi. Hayotlari esa og'izdan og'izga o'tib, xatto ba'zida ajabtovur, ertaksimon unsurlarga ega bo'lib qoladi. Arab eposi qahramonlari: Xatim at-Tan cheksiz saxiylik ramzi, Samaval-ixloslik ramzi, Jamil va Majnun – baxtsiz oshiqlar ramzlari. Bundan epos asarlarda bayon bilan she'rlar almashinib yaxlit bir kuzatish hosil bo'ladi.

2. Qur'oni karim. 8 asrning ikkinchi yarmida boshlangan arab adabiyotining gullab yashnagan davri. Filologlar uchun Qur'on matni arab nutqining yuksak namunasi. O'rta asrlarda musulmon mamlakatlaridagi adiblar Qur'oni karimga murojaat qilganlarida, uni syujetlar va iqtiboslar olish uchun bahosi yo'q, oltin xazina deb hisoblaydilar. Shuning uchun Qur'oni karim rivoyatlari, obrazlari va syujetlari ularning ijodida doimo gavdalangan. Agar biz Qur'onni diniy ahamiyatini bir tomonga qo'yib, asl manba sifatida unga baho bersak, uning emotsional go'zalligi, oyatlar lo'ndaligiga qaramay chuqur tengi yo'q ma'no kasb etishini ko'ramiz. Uning asotirlar jozibasini, ixloslilik, isti'oralar va majoziy ma'nolarga boy ekanini va shu bilan birga ular ta'sirchan va samimiy etib ifodalangan.

8 asrdan boshlab biz ko'proq "Arab Islom madaniyati" deb nomlangan va juda katta mintaqada tarqalgan madaniyat va adabiyot haqida gapiramiz. Bu madaniyatning shakllanishida ko'p xalqlarning madaniyati ishtirok etgan:

- Asl arab

- Fors (Eron)
- Qadimgi yunon

7-8 asrlar Islom madaniyatining gullab yashnagan davrini boshlanishi. Shu davrda uning shakllari, uslublari, qoidalari ishlab chiqarilgan. Albatta qadimgi arab madaniyati bilan o'xshash joylari qolgan va xattoki, 8 asr filologlari johiliya davri she'riyatini etalon deb bilganlar. Ammo qadriyatlar, baho berish mezonini o'zgardi. Avvalgi birinchi o'rinda turgan unsurlar 2-chi darajada bo'lib, dastavval uncha ahamiyatli bo'lmagan unsurlar chiqdi. Yangi vaziyat va jarayon: tasodifiy anglamasdan, hodisalar va tushunchalarga yondashish o'rniga ularning to'la anglash tamoyili paydo bo'ladi. Shuning uchun ham 8 asrdan boshlab, juda ko'p nazariy ishlar paydo bo'lib, ular bilimning har bir sohasini qamrab olishga harakat qiladi. Shularning ichida aruz, adabiyot qonunlari, koinotning rivojlanish qoidalari, insoniyat rivoji, tarixi, bosqichlari va hokazo.

Adabiyotda she'riyat bilan bir qatorda nasrnavislik ham o'z o'rnini egallaydi. Ayniqsa, adiblarning estetik dunyoqarashlarini ifodalaydigan asarlar soni ko'payib ketadi. Ayni shu davrda madaniyat va adabiyot xarakterlarini ko'rsatuvchi holatlar shakllandi va adabiyotning so'nggi o'z ta'sirini ko'rsatdi.

Nazorat topshiriqlar:

1. Johiliya davri va ilk islom davri adabiyoti poetikasidagi farqni ko'rsatib bering.
2. Yangilanish davridagi ro'y bergan o'zgarishlarni izohlang.
3. Badiiy ong va badiiy did poetikada qanday aks etishini tushuntiring.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Islom davri she'riyati poetikasi.
2. Yangilanish davri adabiyoti poetikasi.

Asosiy adabiyotlar:

1. Xalizev V.E. Teoriya literaturi. –M., 2000.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. –T., 2002.
3. Kudelin AB. Srednevekovaya arabskaya poetika. –M., 1983.
4. Sharq mumtoz poetikasi: manba va talkinlar. –T., 2006.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Lukov V.A Istoriya literaturi. Zarubejnaya literatura ot istokov za nashix dnei. – M., 2005.
2. Boriev Yu. Estetika. Teoriya literaturi: ensiklopediyskiy slovar terminov. –M., 2003.
3. Ziyovuddinova M. Abu al-Xorazmiyning «Mafotix al-ulum» asarida poetika. –T., 2001.

MA'RUZA №7. ARAB ADABIYOTINING VIII-IX ASRDA KO'RINISHLARI VA JANRLARI

Darsning maqsadi: Ushbu mavzu arab adabiyotidagi yangilanish davriga bag'ishlangan bo'lib, unda ilmu-l-balag'a, ilmu-l-badi', ilmu-l-ma'no kabi tushunchalar mohiyati ochib beriladi va yangilanish davrining tamoyillari izohlanadi.

Tayanch iboralar:

Ilm al-badi', al-balag'a, zuxdiyat, xija, muvashshax, zajal, yangi uslub, yangilanish.

Nazorat savollari:

1. Yangi janrlar deganda nimani tushunasiz?
2. Ibn al-Mu'tazzning "Kitab al-badi'" asari haqida nimalar bilasiz?
3. Yangi uslub ko'rinishlari tushunchasi nimani anglatadi?

Mantiq faqat logika emas, balki to'g'ri tuzilgan nutqu mantiq qonunlariga bo'ysungan.

Al-balag'a – eshituvchiga yetkazilgan va tushunarli va ravon bo'lgan nutq. U turli ko'rinishda ishlatiladi.

Al-fasaxa ham shu ma'noda ishlatilgan.

Al-bayan – bu ham tushunarli nutq.

Al-lug'atu-l-fusxa –adabiy til

-adabiy

- ajami (arablarga mansub bo'lmagan xalqlar).

Yangilanish davrini 3 tamoyiliga to'xtalik:

- 1) aql –zakovat
- 2) masxara (kulish) orqali tarbiya berish
- 3) So'zga sig'inish.
- 4) Muvozanat
- 5) Tabaqalanish prinsipi – hamma o'z joyida bo'lishi kerak va o'z o'rnini bilishi lozim.

Qasida ko'p syujetlardan iborat. Lekin unda muayyat tartib bor. Yuqori janrlarga - adresatniy ahamiyati, -nozik bo'lsa tavsif, - nasibdan ajralib chiqqan.

-norasmiy muhitda, masalan, xalifa tavlanish kayfiyatida bo'lsa.

Andalusiyada -yuqori sinfdagi adabiyot hisoblanadi.

Uslub qoidalarni buzish – adabiy mahoratni eng oddiy tomonlari bilmaslikda ayblanadi.

Cho'pchaklar (ertaklar), asotirlar va siralar – past qatlamlar uchun ozuqa hisoblanar edi. Boshqa qahramonlar boshqacha uslub. Antara sirasi.

Demak, 1 mdx, vasf 2) zuxdiyat, 3) g'azal, xamriyat – dramatizatsiya, vasf, estetizatsiya omil.

6. Tasniflash kategoriyasi yoki omili - hamma narsani tasniflash tamoyili. Arab mumtoz adabiyotining yuksalish davrida ko'p mualliflar badiiy ijodini qonunlarini topishga, tasniflash nuqtai nazardan uning tasviriy-ifodaviy vositalarni anglashga harakat qildilar. Bunda ular nasr va nazm orasida farqga ahamiyat

berishmoqda. Bu nuqtai nazardan “Kitab al-badi” – yangi uslub kitobi “Ibn al-Mu’tazz. O‘z zamonasining she’riyatini xarakterini ko‘rsatib o‘tdi. Demak, arab tilining obrazlar tizimini birinchi tasniflagan asardir, keyin Askari “Kitab as-sina’atayn”, 3 Qudama Ibn Dja’far “Naqd ash-she’r”.

Asosiy obraz vositasi (yangi uslub bo‘yicha) –ista’ara (metafara). Xalifa Ali etgan ekan, saxobalar gapi bo‘yicha

Aytdi Ali, roda Allax alayxi, bilim-kulib, kaliti –savol.
Tavil

Necha marotaba tun dengiz to‘lqinlari kabi, toshlardan ustimga anvon tashvishlar yeping‘ichin, meni yutish uchun.

Abu Zu’ayb al-Xuzali. Agar o‘lim qo‘yib yuborsa uzun tirnoqlarini
Kurasan, hech qanday tumor qutqarmaydi seni.

Masalan, tun juda sekin o‘tishini ko‘rsatish uchun Imrulqays uni og‘ir o‘rnidan turayotgan tuyaga o‘xshatadi, oldin gavdasini cho‘zadi, orqasini to‘g‘irlamaydi, orqa oyoqlariga turadi va qiynalib ko‘kragini yerdan ko‘taradi.

Ularni soddaligi, to‘ppa-to‘g‘riligi ko‘zga tashlanadi. Abstrakt holatni odam yoki hayvon xislati bilan taqqoslang. Yangi uslub shoirlarini iste’oralari boshqacha tusda, ular so‘z ko‘p ma’noligiga, ko‘p planligiga tayanadi.

Oltin rang moy tilka pora qiladi

Ammo sen mudrashdan boshqa undan jarox ko‘rmaydi.

Johiliya davridagi istiora-anii, nolasii bo‘lgan, “mifologik obraz, masalan, taqdirni tishlari va tirnoqlari”.

تَحْيَى النَفُوسَ إِذَا أُرْوَاهُهَا نَفَحَتْ

وَحَرَّشَتْ بَيْنَ أَوْرَاقِ الرِّيَاحِ

2. تَجْنِيس –tajnis. Bir ildizda tarqalgan so‘zlarni ishlatish. Yoki tovushdan kelib chiqib o‘xshagan so‘zlarni ishlatish.

إِلَّا رَدَامِرَ اللَّهِ صَبِيَّةً
وَلَمْ أَدِرْ أَنَّ الْفَأَلَ بِفِيلٍ

وَسَمَّيْتَهُ يَجْبَى لِيَحْيَى وَلَمْ يَكُنْ
تَيَمَّمْتُ فِيهِ الْفَأَلَ جِئْتُ رَرْقَةً

Tajnis tom – to‘la shakldosh

Tajnis noqas. Men unga Yaxyo ism qo‘ydim yashashi deb, bo‘laman

Alloh amriga rad bo‘lar edi, uni qolishi

U menga rizq bo‘lib kelganda men uchun quvonch edi.

Bilolmasdim aylanishni quvonchni yomonlikka.

(لَحْيَا) يَحْيَى لِيَحْيَى
فَأَلْ فَالْ

Ikkala bayt ham ma’naviy, ham obrazli, ham talaffuzli yaxlitlikni tashkil etgan.

Bu baytdan biz yana yangi tushuncha olamiz, bu parallelizm. Arab oʻrta asr adabiyoti obrazlar tizimining eng muhim hislatlardan biri – bu parallelizm – ikki ish, harakat, hodisa va x.k. bir birlariga nisbatan bir xilda barovar davom etish.

Intizom yuksalishi – oʻqish sifati oshishi.

Xarakterli xususiyatlarni bir xilda bajarilishi.

Boshqa soʻz bilan troplarni, koʻchimlarni simmetriyasi – mutanosibligi.

Tashbih – oʻxshatish.

Muqobala – qarshi joylash, qarshisiga qoʻyish, muqobila

Mutabaqa – taqqoslab qarshisiga qoʻyish (sopostavlenie kontrasnoe).

Jarir baytidan yana bir misola (tajnisa)

و ما زال مغفولا عقالاً عن الددى
و ما زال محبوباً عن المجد حبيباً

Ikal yaxshi ish (sahovatdan) hali toʻxtamadi

Xabis hali xam karomat qilishda maxbusdir.

Bu yerda ham “parallelizm” aniq koʻrinib turibdi.

Yana aniq boʻlsin deb tajnisa oʻzbek mumtoz sheʼriyatidan misollar keltirsak boʻladi. Mana Navoiy sheʼridan bir bayt. Misol:

Anda har *baytgacha* maʼni ila

Bayt emaskim gʻaribxonadir. (Navoiy).

Birinchi misrada *bayt* soʻzi sheʼrda ishlatiladigan ikki misralik baytni nazarda tutadi, ikkinchi misrada *bayt* soʻzi uyni nazarda tutmoqda.

Ahli ishq balki kitobim nazmi ishq *deb ochadir*,

Yoʻq, kitobim sevgining devoniga *debochadir*.

Ikkinchi sheʼrda “deb ochadir” bilan “debochadir” soʻzlar tajnis holatda, vaholanki, ulardan bittasi feʼldir, ikkinchisi “boshlanish” maʼnosida kelgan ism.

Nazorat topshiriqlari:

1. Yangilanish davri tamoyillarini aniqlang.
2. Sheʼriyatda yangilanish qachon roʻy berganini koʻrsating.
3. Ibn al-Muʼtazz oʻz kitobida tasnifni izohlang.
4. Yangi janrlar qaysi maʼnodagi sheʼrlarda oʻzini namoyon qilishini aytib bering.
5. Istiora, tajnis va boshqa soʻz sanʼatlari qanday qoʻllanilishini tushuntiring.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Arab adabiyotida yangilanish davri sheʼriyati.
2. Arab mumtoz adabiyotida sheʼriy janrlar.

Asosiy adabiyotlar:

1. Xalizev V.E. Teoriya literaturi. –M., 2000.
2. Sharq mumtoz poetikasi: manba va talkinlar. –T., 2006
3. Kudelin AB. Srednevekovaya arabskaya poetika. –M., 1983

Qoʻshimcha adabiyotlar:

4. Lukov V.A Istoriya literaturi. Zarubejnaya literatura ot istokov za nashix dnei. – M., 2005.
5. Boriev Yu. Estetika. Teoriya literaturi: ensiklopediyskiy slovar terminov. –M., 2003.
6. Ziyovuddinova M. Abu al-Xorazmiyning «Mafotix al-ulum» asarida poetika. –T., 2001.

MA'RUZANº8. JOHIZNI ARAB POETIKASI RIVOJIGA QO'SHGAN XISSASI

Darsning maqsadi: Johizning arab poetikasiga qo'shgan rivoji; yangi davrning asosiy prinsiplari Johizning asarlari orqali ochib beriladi.

Tayanch iboralar:

Xijo, satira, oliy so'zlar, past so'zlar, nutq san'ati.

Nazorat savollar:

1. Poetikada xija (satirani o'rni)?
2. Johiz va nutq san'ati?

Shunday qilib, sobiq darslarda biz “yangilanish davri”ni ikkita prinsipi – tamoyillari bilan tanishdik. Bular “aql-zakovat” prinsipi va shaxsiyatni tarbiyalashda eng ta'sirchan va faol omillardan bo'lgan “bir narsani ustidan kulish”. Dastavval “kulish” haqiqiy satiradan uzoq bo'lib, qo'pol va sodda ko'rinishda ro'y berdi.

Dushman ustidan kulish ko'pincha qarg'ishlarga o'xshab ketar edi va aksariyat holda “Eringa tushmasin yomg'ir suvlari, yoki “Yomg'ir sug'ormasin sening yeringni...” so'zlari bilan boshlanar edi. Tashqi insonni kamchiliklariga, xatto insonga tekkan kasal, bo'yi basti, hunukligi – barchasi kulgi uchun ob'ekt bo'lgan. Hali bu kulgu satira emas edi, chunki satirada bir-biriga nomutanosib bo'lgan narsalarni munosabatga keltiriladi, bir-biriga o'xshamagan narsalar ustida (assotsiativ ravishda) kulgi paydo bo'ladi. Ularning kulgisi to'g'ridan-to'g'ri, ochiq, qo'pol. Yumor ham kamdan-kam uchraydi. Lekin Johiz, Tauxidi, Abu Dulaf asarlarda haqiqiy satira paydo bo'ldi.

Joxiz o'zining nasriy asarlarida haqiqiy satirani qo'llaydi. Ayniqsa, jaxolat va nodonlikka, axmoqligiga qaratilgan asarlarida u muayyan obraz va tiplar ustidan kuladi. Masalan, Qur'on ma'nosini tushunmasdan “koriyga” (qori) yoki o'zi kaltafahm bo'lib o'qitgan odam. Bolandparvoz iboratlar juda “past iboralar” bilan chalkashadi. Yoki pafosli, balandparvoz so'zlar “past” syujetlarni ochib beradi. Bunday satirani tushunish uchun o'quvchi tayyor bo'lishi kerak edi. Jaholat nodonlik ustidan kulib Johiz aql-zakovatni tarannum etardi.

Misol Ibn Abd Rabbixi masalan mutakallimlar ichida uchraydigan gerdaygan nodon odamlar ustidan kulib ular “g'orda uxlab qolganlarning iti qaysi rangda bo'lganligi to'g'risida jiddiy uzoq munoqasha olib borishidan kuladi. (“Bayon va izoh” kitobida.)

Arab tili Johizda 1- o'rinni egallaydi, faqat Qur'on tili bo'lganligi uchun emas, balki balog'aga ega bo'lgani uchun va xalqlarni taqqoslaydi, so'z ustamoni – arab bo'lib chiqdi.

Johiz bo'yicha so'z bilan odamni tarbiyalash mumkin. U insonni yaxshilaydi, odob beradi, poklaydi (Rivoyatlarda qancha qahramonlar so'zning ustasi bo'lganligi uchun yutib chiqadi).

Mantiq, chiroyli jumla tuzish, grammatikani roli, to'g'ri talaffuz qilish, nahv va sarflarni roli – bularning hammasi Johiz nazaridan qolmagan.

البلاغة

Soʻz sanʼatining ahamiyati

Aql-ijodkor va vujudlik asosi, u siz orqali ifodalanadi. — الكلمة الإلهية
القرآن.

Badaviylar adabiyoti uchun

Nazorat topshiriqlari:

1. Nima uchun arab filolog nazarida xijo (satira) tarbiyaviy ahamiyatga molik?
2. Johizni poetikaga doir qaysi asarlarini bilasiz?
3. Johiz qaysi sanʼatga alohida ehtiros qoʻygan?

Mustaqil ish mavzulari:

Asosiy adabiyotlar:

1. Xalizev V.E. Teoriya literaturi. –M., 2000.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. –T., 2002.
3. Kudelin AB. Srednevekovaya arabskaya poetika. –M., 1983.
4. Sharq mumtoz poetikasi: manba va talkinlar. –T., 2006.

Qoʻshimcha adabiyotlar:

1. Lukov V.A Istoriya literaturi. Zarubejnaya literatura ot istokov za nashix dney. –M., 2005.
2. Boriev Yu. Estetika. Teoriya literaturi: ensiklopediyskiy slovar terminov. –M., 2003.
3. Ziyovuddinova M. Abu al-Xorazmiyning «Mafotix al-ulum» asarida poetika. –T., 2001.

MA'RUZA №9. AN'ANAVIY POETIKA AKSIDA KLASSIK ARAB ShE'RIYatINING EVOLYUSIYASI

Darsning maqsadi: qadimgi an'anaga qaytish poetikasini o'rganish. Shu davrda ijod qilgan poetik nazariyotchilarining ijodi va ularning qarashlari o'rganiladi.

Tayanch iboralar:

“Qadimgi” she’riyat, “yangi” she’riyat, arab filologlari, adabiy tanqid, Isloamgacha bo’lgan davr, arab-musulmon davri, fahl-shoir, fahl bo’lmagan shoir, muruvva tushunchasi.

Nazorat savollari:

1. “Qadimgi” she’riyat qaysi davrdagi she’riy ijodni nazarda tutadi?
2. “Yangi she’riyat” qachon paydo bo’ldi?
3. Nimaga filologlar qadimgi she’riyat poetikasini afzal ko’rishdi?
4. “Muruvva” so’zining semantikasi qanday o’zgardi?

Islomgacha hamda XI asrning oxirlarigacha bo’lgan katta davr ichida klassik arab she’riyati murakkab yo’lni bosib o’tdi. She’riyat evolyusiyasi VIII-XI asrlarda yaratilgan tanqidiy va nazariy-adabiy asarlarda o’z aksini topdi.

An’anaviy poetikada arab klassik evolyusiyasining aksi haqida gapirilganda VIII asrning 2 yarmi va XI- asrlarda yashab ijod etgan yirik arabiy tanqidchilar, nazariyotchilar ishtirok etgan “qadimgi” hamda “yangi” she’riyat borasidagi bahs nazarda tutiladi. Mazkur bahsning asosiy muammosi klassik me’yor edi.

Islom dini ta’sis etilgandan keyin ikki asr mobaynida “qadimgi” she’riyat juda yuqori baholangan, eng oliy namuna sifatida qaralgan. Islomgacha bo’lgan davr she’riyati namunalarini to’plab yurgan arab filologlari ushbu she’riyatni mukammal deb hisoblaganlar. Ularning fikricha, “yangi” shoirlar “qadimgi”larning ishlarini rivojlantirishlari lozim edi, ammo buning uddasidan chiqolmaganlar. Bu nafaqat qadimgi she’riyat tili bilan aloqaning uzilganligida, balki islomgacha bo’lgan davrdagi klassikaning yaratilgan vaqtidagi shart-sharoitlarning yo’q bo’lib ketganligida deb tushuniladi.

Ushbu bahsda Islomgacha bo’lgan shoirlarning asarlari u yoki bu so’zning qo’llanilishi, har xil iboralarining to’g’ri ishlatilganligi va shu kabi jihatlari bilan filologlari uchun qo’l kelgan, chunki ular fikriga ko’ra, musulmon-shoirlarning asarlarida xatoliklar ko’p uchragan.

Mashhur arab filologlari, xususan, Al-Asmaiy va Ibn al-Arabiya taalluqli ko’plab latifalar saqlanib qolingan. Ularga ko’ra, ushbu filologlar “qadimgi” lar qalamiga mansub deb topgan she’rlariga yuksak baho berishar, biroq o’sha she’rlar “yangi” shoirlarga tegishlilikini bilgach esa darrov ularni rad etishar edi.

“Yangi” adabiyotga bunday nazar bilan qarshi musulmon davridagi asarlarni yetarli darajada baholamaslikka olib keldi. Hattoki, buyuk arab adibi Al-Joxiz o’z asari mashhur bo’lishini istasa, uni qadimgi shoirga tegishli qilib ko’rsatishi lozimligidan noligan.

“Yangi” shoirning qadru qimmatini pasaygan, uning haq-huquqlari e’tiborlan holi bo’lgan. Bundan kelib chiqib “yangi” shoirlarning o’zlari haqidagi va filologlarning ular to’g’risidagi qarashlari nomutanosib bo’lganligini kuzatish

mumkin. Shu bilan bir qatorda, “yangi” shoirlar orasida “qadimgi”larga o‘xshashni va ular darajasiga yetishni istovchilari ham bo‘lgan. Bularning barchasi o‘tmish bilan hozir, ko‘pxudolik bilan Islom muammosiga borib taqalgan.

Birinchilardan bo‘lib, filolog Al-Asmaiy vaziyatning paradoksli ekanligini tushunib yetib, aynan Islomning she‘riyat sifatiga ta‘siri muammosini ko‘tarib chiqqan. Ustozi Abu Amir ibn Al-A‘loning shoir Labid haqidagi fikrini qaytarib, uning she‘rlarida Alloh, Islom va payg‘ambar zikr etilganligi uchungina yoqishi mumkin, ular yaxshi ishlangan, ammo yoqimlilik yo‘q, deb ta‘kidlaydi.

Filologlar she‘riyatga diniy qarashlarning kiritilishi bilan uning asl tabiati o‘zgarib, an‘anaviy ko‘rinishini yo‘qotadi, “qadimgi”lar izidan qolib, natijada she‘riyat “zaiflashadi”, degan g‘oyani ilgari suradilar.

Al-Asmaiy ham o‘zidan oldingi barcha filologlarning fikriga qo‘shilgan holda “qadimgi” she‘riyatning “yangi”sidan ustunligini tan oladi. Diniy tomondan u “yangi”lar tarafida bo‘lsada, yangi mazmun Islom bilan bog‘liq bo‘lib, she‘riyatni “qadimgi”lar yo‘lidən qoldirib, uning poetikasi, obrazlaridan foydalanishi da‘vat etadi. Bundan quyidagi xulosaga kelish mumkin: hamma shoirlar Imrulqays, Zuxayr, An-Nabig‘alar izidan borishi shart, zero she‘riyat yo‘li aynan “qadimgi” shoirlar yo‘lidir. Aks holda esa, “yangi” shoirlar omadsizlik tomon yuz tutadilar. Al-Asmaiy barcha shoirlarni ikki katta toifaga ajratadi: fahl va fahl bo‘lmagan. Ammo fahl bo‘lmaganlar orasida fahllarga yaqinlashadigan bir necha darajalarni ham ko‘rsatib o‘tadi.

Al-Asmaiy shoirning fahl unvoniga sazovor bo‘lishi uchun ikkita shart bajarilishi kerakligini ta‘kidlaydi:

Birinchidan, she‘riyat shoir uchun hayotidagi eng muhim narsa bo‘lishi shart. Masalan, Islomgacha bo‘lgan davrda mashhur sanalgan Antarani u fahl deb bilmaydi: shoir faqatgina poetik jihatdan qobiliyatga ega bo‘lgan askar, xolos.

Ikkinchidan, shoirning boshqa shoirlardan ustunligini namoyon qiluvchi bir necha she‘rlari, ya‘ni qasidalari bo‘lishi shart.

Al-Asmaiyning eng mashhur asari “Fahl shoirlar kitobi” deb nomlanadi. Ushbu filolog “qadimgi” she‘riyatni tanqid qilish mumkinligini ko‘rsatib, shu tanqid yo‘nalishlarining rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqanlardan biri sanaladi. I. Abbos IX asr boshidagi arab tanqidi zamonaviy she‘riyatda ro‘y berayotgan chuqur o‘zgarishlarni ifodalay olishga qodir bo‘lmagan, deb hisoblaydi. Chunki Al-Asmaiy ham o‘z asarida VIII-IX asr boshlarida ijod etgan mashhur shoirlar sanalmish Bashshar Ibn Burd, Musli m Ibn al-Valid, Abu Nuvvos, Abul-Atahiyalarni zikr etmagan. IX asr birinchi choragigacha yashagan mazkur filolog uchun izlanish predmeti bo‘lib, yuz yil oldin yashab etgan Ummaviy-lar davri shoirlari hisoblangan. Bu esa, adabiy jarayonning tanqidda adekvat va to‘la aks etmaganligini ko‘rsatib beradi. Lekin O‘sha jarayon ham o‘z yo‘licha tanqidga ta‘sir o‘tkazgan hamda “qadimgi” va “yangi” she‘riyat to‘g‘risidagi qarashlarda to‘ntarishlarga shart-sharoitlar yaratib bergan.

Shunday qilib, VIII asrning ikkinchi yarmi va IX asr boshlarida Islomgacha bo‘lgan davr hamda musulmon she‘riyatiga nisbatan yangi munosabat paydo bo‘lganligi aniq ko‘zga tashlana boshladi. Eski qadriyatlarining o‘sha davrda

haddan ziyod yuqori baholanishi arab-musulmon jamiyati mafkurasidagi o'zgarishlar bilan uzviy bog'liq edi.

I.Goldsier shu o'rinda arab madaniyati uchun muhim sanalgan "muruvva" yoki "mur'a" tushunchasini tahlil qiladi. Sodda tilda bu tushuncha "Haqiqiy erkakka xos fazilatlarga ega bo'lish" ma'nosini beradi.

Muruvva so'zining barcha an'anaviy atributlari, ya'ni sharaf, shijoat, saxiylik, mehmondo'stlik va x.k.lari bilan qadimgi johiliya davrida yanada yorqinroq namoyon bo'lgan, degan g'oya muqim edi. She'riyat –bu so'zga o'ralgan muruvvadir, uning gullab-yashnashi, tanazzulga yuz tutishi ham hayot tarzi va ruhiyatining holatiga bog'liqdir.

B.Fares "Muruvva" tushunchasining johiliya davridan to VIII asrga bo'lgan vaqt mobaynidagi evolyusiyasini kuzatib boradi. Islom kirib kelgunga qadar, muruvva "Jar (ya'ni, qo'shni yoki muhtoj odam)ga iltifot ko'rsatish, qonli uch olish qonuniga rioya qilish, mard va sahiy bo'lish kabi bir necha axloqiy qoidalarni anglatgan, xolos. Islom kirib kelgandan so'ng esa, u axloqiy tus oladi.

Lekontning Ibn Qutayba asaridan keltirgan parchasiga ko'ra, muruvva "yaxshi xulq-atvorga, yaxshi xislatlar va nufuzga ega bo'lish, did-farosat bilan kiyinish va yoqimli hid taratuvchi suyuqliklardan foydalanish, arab tilini mukammal bilish, foyda keltiradigan ishlar bilan mashg'ul bo'lish, lazzatlardan voz kechib, hech narsani berkitmaslik, kimdir bilib qolishdan qo'rqib, uyatga soluvchi amallarni bajarmaslik" kabi fazilatlarni o'z ichiga qamrab olgan.

Qadimgi va ilk Islom davri she'riyatida bu so'z shu ma'nolarda ishlatilsa, so'nggi davrlarga borib bu so'z poetikasi o'zgarib, u "zo'ravon", kuch ishlatib ishini bajaradi odamni atab boshladilar. XX asrga borib "muruvva" ijobiy xislatlarini to'la yo'qotib faqat salbiylarini saqlab qoldi.

Nazorat topshiriqlari:

1. "Qadimgi" she'riyat qaysi davr she'riyat ijodi ekanligini aniqlang.
2. "Qadimgi" she'riyat poetikasining afzalligini aniqlang.
3. "Yangi" she'riyat bilan "qadimgi" she'riyatni nimadaligini aniqlang.
4. "Muruvva" tushunchasini aniqlang.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Mumtoz Sharq adabiyoti poetikasiga nazar.
2. Qadimgi Sharqning asosiy adabiy yodgorliklari.
3. Qadimgi she'riyat poetikasi.
4. Sanskrit poetikasi.

Asosiy adabiyotlar:

1. Xalizev V.E. Teoriya literaturi. –M., 2000.
2. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. –T., 2002.
3. Kudelin AB. Srednevekovaya arabskaya poetika. –M., 1983.
4. Shark mumtoz poetikasi: manba va talkinlar. –T., 2006.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Lukov V.A Istoriya literaturi. Zarubejnaya literatura ot istokov za nashix dney. –M., 2005.
2. Boriev Yu. Estetika. Teoriya literaturi: ensiklopediyskiy slovar terminov. –M., 2003.

3. Ziyovuddinova M. Abu al-Xorazmiyning «Mafotix al-ulum» asarida poetika. – T., 2001.

MA'RUZA №10. ARAB MUMTOZ SHE'RIYATIDA INDIVIDUAL MUALLIFLIKNING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI.

Darsning maqsadi: G'arb arabshunoslarning arab poetikasiga bo'lgan munosabatlari, ularning klassik she'riyatga nisbatan chiqargan formulalari va arab filologlarining poetika faniga nisbatan tasniflari ko'rsatiladi.

Tayanch iboralar:

She'riy formula, lafz, ma'no, bayt, misra, ilm al-badi', og'zaki ijod, yozma ijod.

Nazorat savollari

1. Nega Manrou johiliya davridagi she'rni formulali she'r deb tavsif etdi?
2. Monrou kategoriyalari nimaga asoslangan?
3. Ibn Kutayba "lafz" va "ma'no" tushunchalarda nimalarni nazarda tutdi?
4. Salabni tasnifi nimaga asoslangan?

O'rta asr tanqidchilari va nazariyotchilari VIII-XI asr she'riyatiga "Yangi" va "qadimgi" islomgacha bo'lgan she'riyatni taqqoslash orqali ularga baho berganlar va ular bir xil tabiatga ega deb bilganlar. Ularning fikricha. Har qanday davrda ijod ustuni bo'lib individual mualliflik prinsipi xizmat qilgan.

O'rta asrlar va hozirgi zamon olimlari qadimgi va ancha keyingi she'riyatning o'ziga xosliklarini ajratib ko'rsatganlar: birinchisi, og'zaki yaratilgan va asrlar VIII asrning ikkinchi yarmidan boshlab, yozma shaklga o'ta boshlagan. Ammo bu jiddiy o'zgarish "qadimgi" va "yangi" she'riyatning mualliflik tabiati o'zgarishiga sabab bo'lmagan. Faqatgina arab she'riyatining birinchi namoydalarini va ularning ijodini o'rganishni qiyinlashtirdi. Olimlar og'zaki holda saqlanib qolgan ijodni o'rganishga katta e'tibor berdilar.

Amerikaliklar olim Dj.T.Monrou o'zining "Islomgacha og'zaki she'riyatning xarakteri" nomli maqolasida o'zining qarshi fikrini keltirib, uni isbotlashga harakat qiladi. Uning fikricha, arablarning yozma va og'zaki she'riyati muallif tabiatining tubdan o'zgarishiga sabab bo'ladi. Chunki, "qadimgi" va "yangi" she'riyat bir-biriga qaramay qarshi bo'lgan uslublar asosida yaratiladi. Bular: "og'zaki-formulali" va "adabiy-yozma uslublardir". Olimning ushbu maqolasida klassik arab she'riyatini o'rganishda samarali yo'nalish ochib berilgan. Ammo taklif etilayotgan yechimlar hali xamon o'z savolariaga ega ekanligini olimning o'zi ham tushunadi. Bu borada e'tiboringizni maqoladagi bir nechta ma'lumotlarga qaratmoqchi edik.

Monrou islomgacha she'riyatning formulali ekanligiga isbot qilib, 4 kategoriyani keltiradi:

1. So'zma-so'z qaytarilishi (2-3 so'zdan boshlab butun bir qatorgacha qaytarilish);
2. Formulali sistema (bunda so'z 2chi yoki 3 chi qator uchun umumiy bir so'z bo'lib, u qatorlarda bir xil joy egalladi);

3. Strukturali formula (bunga muallif 2 yoki undan ko‘p guruh so‘zlarni kiritadi, ular qatorlardan bir xil joy egallasada, ammo umumiy kalit so‘ziga ega bo‘lmaydilar).
4. Umumqabul bo‘lgan leksika (bunga Monrou alohida doimiy yoki etimologik qarindosh so‘zlarni kiritadi).

Formulali g‘oyaning yaratuvchilari keltirilgan kategoriyalarning faqat 2tasigina uslubning formulali ekanligidan dalolat beradi. T.Monrou shuni ta’kidlab aytadiki, “og‘zaki-formulali usul ilmsiz shoir uchun oddiy va yagona usuldir”. Ammo shuni ham aytib o‘tish lozimki, islomgacha she’riyatda ushbu usulning o‘ziga xos bir tomoni bo‘lgan. Formulali xarakterga ega bo‘lgan qadimgi asarlarning yaratilishi “improvizatsiya”, ya’ni o‘rnida to‘qib chiqarish bilan bog‘liq bo‘lmagan. Chunki biz bilamizki, islomgacha she’riyatga asarlar yaratilishi juda uzoq davom etgan. Yana shuni ham aytib o‘tish lozimki, islomgacha she’riyat davridan bizgacha yetib kelgan asarlar hajmi unchalik katta emas. Buni biz Imrul Qays, Antara va xokazolarning asarlaridan ko‘rishimiz mumkin. Shuning uchun ham islomgacha she’riyat davrida she’rlarni yod olish qiyinchilik tug‘dirmagan.

Ko‘pgina izlanishlardan so‘ng yana bir xulosaga kelamiz: u davrda arab she’riyati og‘zaki ijoddan, ya’ni qaysidir ma’noda folklordan yozma bayonchilikka o‘tayotgan davrdir. Ibn Qutaybaning “She’riyat va shoirlar kitobi” nomli asarida bu borada qiziqarli ma’lumotlar mavjud. Uning yozishicha, shoir Kusayyir yozishni umuman bilmagan va ba’zan she’r to‘qishda ham qiynalgan. Bunday holda u hech kimsasiz, yam-yashil o‘tloqlarga ketib ijod qilar ekan. Eng zo‘r she’rlar aynan shu holda yaratilgan ekan.

Filologlar Islomgacha bo‘lgan davr va islomning ilk davri she’riyatini ko‘rib chiqar ekanlar, ular alohida ta’kidlaydilar: har qanday muallif u yoki bu an’anani turli guruhga oid so‘zlar bilan ifodalaydi. Filologlar uchun bu yangilik emasdi, chunki og‘zaki ijod shoirlari o‘z asarlarini individual –mualliflik ijod qonunlari asosida yaratar edilar.

Filologlarning islomgacha she’riyat va ilk islom davri she’riyatiga aloqador fikrlari chuqur izlanishlarni talab etadi.

Ibn Qutaybaning yuqorida aytib o‘tilgan (850-870 yillar oralig‘ida yaratilgan) asarida “Ma’na” va “lafz” ma’nolari asosida qilingan matnlar klassifikatsiyalarini topishimiz mumkin. Olimning fikricha, she’riy matnlar 4 xil bo‘ladi:

1. Yaxshi ma’noli va yaxshi lafzli.
2. Yaxshi lafzli ammo yomon ma’noli.
3. Yomon lafzli ammo yaxshi ma’noli.
4. Yomon lafzli va yomon ma’noli.

Endi esa, boshqa bir olimning klassifikatsiyaga doir fikrlarini ko‘rib chiqsak. U mashhur filolog Salaba (815-904), uning fikricha, klassifikatsiya asosini “bayt” va “ma’no” tashkil etadi. U arab she’riyatida 5 xil baytni ajratib ko‘rsatadi:

1. Har bir misrasi ma’no kasb etuvchi bayt, ko‘p hollarda ular maqollarga ham o‘xshaydi. So‘z san’ati (al-balag‘a)ga yaxshi mos tushadi.
2. Birinchi misrasi ma’no kasb etadi, ikkinchi misrasi esa birinchi qatorga izoh sifatida beriladi.

3. Birinchi misrada ma'no faqat shakllana boshlaydi, keyingi misrada ma'no to'la ifodalangan bayt.
4. ma'no bir nechta qatorlarga bo'linib tanlangan. Har 3-4 qatorda ular bir qatorga tiziladi.
5. Ma'no faqat she'r so'ngida ayon bo'luvchi bayt.

Bundan tashqari shuni ham aytib o'tish lozimki, qadimgi og'zaki arab she'riyatida ma'nosi tugallanmagan baytlar ko'pgina. Bunga Imrul Qaysning she'riyati misol bo'la oladi. Bu holat esa, sezishimizcha qo'rqinchli emas. Ushbu hislat og'zaki arab she'riyatining yana bir o'ziga xosligidir. Bir baytda tugallangan ma'no bo'lishi esa ilk islom davri she'riyatiga yaqinroq. Lekin bu bilan islomgacha she'riyatda ma'nosi tugallangan baytlar yo'q degani emas.

Filolog Salabning fikrlariga qaytsak, uning fikricha, eng yaxshi bayt bu har misrani ma'no kasb etuvchisidir. Eng yomoni esa she'r ma'nosi uning so'ngida chiqishidir. Baytning eng yaxshi turi "badi' ilmiga" yaqin, eng yomoni esa, barchasidan yiroqdir. Undan farqli o'laroq, Qudama Ibn Ja'far aynan ana shu salab eng yomon deb aytib o'tgan bayt turi "badi'" ilmiga xosdir deydi.

Shu tariqa til go'zalligi ya'ni "badi'" ilmi haqidagi fikrlarimiz 2 tomonga ajralmoqda. Shu tariqa o'rat asr arab olimlari o'zlari bilmagan holda individual-mualliflikning boshlanishi va rivojlanishidagi 2 muhim jihatni ajratib ko'rsatdilar:

Bulardan biri - arab she'riyatining an'anaviy tushunchalarini odat bo'lib qolgan turli xil guruh so'zlaridan foriq etish. Bu holat esa islomgacha bo'lgan davrda boshlangani aniq.

Ikkinchisi esa – motivdagi so'zlarning uzaytirilishidir. Agar og'zaki formulali she'riyatda ular odatda, bir qatorni egallasa, formulali uslubning tarqalishi bilan u 2 qatorni egallay boshladi.

Bizdagi ma'lumotlarga ko'ra, mumtoz arab she'riyatining "deformulyatsiyasi" ancha vaqt davom etib, juda qiyin kechgan. Islomgacha va ilk islom davri she'riyatining tili yuqori darajada qoliplashtirilgan. Shu tariqa ilk she'riyat davrining so'z lug'ati keyingi she'riyat taqdiriniam qaysidir ma'noda belgilangan. Shuning uchun VIII-XI asrlar she'riyatida uchraydigan alohida so'zlar va iboralar avvalgi formulali qonuniyatning xislatlarini eslatadi. Va albatta, og'zaki formulali ijodning ham yozma ijodga ta'siri katta bo'lgan, axir yozma ijod og'zaki ijod tufayli yuzaga kelgan. Ana shu davrdan boshlab mumtoz arab she'riyatidagi ijodiy jarayon individual-mualliflik qonuniyatlari asosida boshqariladi.

Xullas, bir so'z bilan aytganda, o'rta asrlar nazariy arab she'riyati bu, individual-mualliflik adabiyoti she'riyatidir.

Nazorat topshiriqlar:

1. Nega Manrou johiliya davridagi she'rni formulali she'r deb tavsif etganini aniqlang.
2. Monrau kategoriyalari nimaga asoslangan.
3. Ibn Kutayba "lafz" va "ma'no" tushunchalarida nimalarni nazarda tutganini aniqlang.
4. Salabni tasnifi nimaga asoslangan.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Sharq poetika maktabining shakllanishi va manbalar.

2. “Ilm al-badi’” san’atining ifodaviy-tasviriy vositalari bilan bog‘liqligi.
3. Abu-l- Faraj Udama ibn Ja’far (888-948)ning poetik fazilatlar.
4. “Tarixiy poetika”.

Asosiy adabiyotlar:

1. Xanna al-Faxuri. Istoriya arabskoy literaturi. –M., 1059.
2. Lukov V.A. Istoriya literaturi. –M., 2005.
3. Shidfar B.Ya. Obraznaya sistema arabskoy klassicheskoe literaturi (6-7) – M.:Nauka, 1974.
4. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. –T., 2002.

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Xalizev V.E. Teoriya literaturi. –M., 2000.
2. Shark mumtoz poetikasi: manba va talkinlar. –T., 2006.
3. Kudelin AB. Srednevekovaya arabskaya poetika. –M., 1983.
4. Boriev Yu. Estetika. Teoriya literaturi: ensiklopediyskiy slovar terminov. –M., 2003.

MA’RUZA №11. MAMLUKLAR DAVRI ADABIYOTI VA UNING POETIKASI

Darsning maqsadi: mamluklar davridagi adabiyotning poetikasi, undagi o‘zgarishlar, yangiliklar o‘rganish.

Tayanch iboralar:

Mamluklar, birinchi musulmon ensiklopediyalar, “adaba”, al-xamd an-nabavi, muvashshax, kompelesiya.

Nazorat savollari:

1. Nega musulmon madaniy markazi Qohiraga ko‘chdi?
2. Kompelesiya usuli nimani ifodalaydi?
3. “Adaba” janri mamluklar davrida ravnaq topilishi?
4. Birinchi musulmon ensiklopediyalar janri qaysi jihatlari bilan ajralib turali?
5. Mamluklar davridagi nasrnavislik poetikasi qanday takomillashdi?

Mamluklar saltanati (XII-XV), ayniqsa, uning birinchi davri (XII-XIV) Misr va Suriya tarixida o‘ziga xos yorqin bir davrni tashkil etadi. Bu o‘ziga xoslik birinchian mamluk sultonlari nasl –nasabi qullar-mamluklarga borib taqalishidadir. Mamluklar yoshligida qullar bozorida sotilib olib maxsus harbiy tarbiya olishgan, ulardan ko‘plari o‘zlarining shaxsiy fazilatlar, ayniqsa, jasorat va sodiqligi uchun yuqori harbiy mansablarga ko‘tarilib, hatto lashkarboshi va amirlar darajasiga yetishgan[2,117-118]. Yana bir o‘ziga xosligi – XII asrning ikkinchi yarmida – XIV asrlarda Misr va Suriyada (Shomda) hukm surgan mamluk sultonlari Oybek at-Turkmaniy, Qutuz, Beybars, Qala’un, Muhammad Nosir va boshqalar [4,99-100] arab qavmiga emas, balki turkiy ellatlarga, Dashti Qipchoqda ko‘chib yurgan qipchoq, o‘g‘uz va boshqa turkiy qabilalarga yoki mo‘g‘ul istilosidan qochgan xorazmliklarga taalluqligini shu davrning mashhur tarixchilari al-Maqriziy, Ibn al-Iyyaslar ko‘rsatib o‘tishgan[2. 115-130]. Sultonlar saroyida va devonxonalarida qadimgi turkiy tilning og‘uz-qipchoq shevasi keng iste’molda bo‘lgan[B, 29]. XV asrda esa, Misrda Kavkazdan chiqqan mamluklar hukmdorlik qilgan.

Mamluk sultonlari davrida Misr kuli davlatga aylandi. Ayni ular Falastinda salbchilarning qolgan kuchlarini tor-mor qilib, mintaqadan butunlay yo‘qotganlar,

va ayniqsa, butun musulmon dunyosini qaqshatgan mo'g'ullarni saltanat, chegarasida to'xtatib Ayn Jalun degan joyda ularga katta zarba yetkazib mag'lubiyatga uchratishi xalqlar xotirasida unitilmas voqea bo'lib qoldi. Al-Maqriziy va Ibn al-Iyyas tarixiy xronikalarda misr lashkarlari boshida turgan amir bo'lajak Misr sultoni Qutuz Xorazmshoh Jaloliddin Manguberdini jiyan deb taxmin qilingan[3, 103-105].

Ayn Jalun jangida xorazmliklar alohida jasorat ko'rsatganligi to'g'risida tarixiy ma'lumotlar bor. Bog'doddagi abbosiylar xalifaligi mo'g'ullar zarbasi ostida yemirilganidan keyin Misr musulmon dunyosining madaniy markaziga aylandi. Bu yerga har tomondan adiblar va olimlar to'planishi adabiy-madaniy hayotni jonlantirishiga olib keldi. Mamluk sultonlari ilmga, adabiyotga, dinga alohida katta hurmat va e'tibor bilan qarash edilar. Ular davrida Misrda, ayniqsa, Qohirada katta qurilishlar olib borilgan masjidlar, madrasalar, xonakoxlar qurilgan mamluklar davrida qurilgan xashamatli binolar hanuzgacha Qoxiraning qadimgi mahallalarida himoyaga olingan. Mamluklar sultonlari sochgan madrasalarda Qur'oni karim, hadis, fiqh islomning 4 mazhabi talqinida maxsus tayinlangan mudarrislar tomonidan o'rgatilardi. Xonakoxlar g'ariblar va sufiylar uchun faqat boshpana bo'lmasdan, balki bu yerda diniy va dunyoviy kitoblarni qiroat qilishardi, jumladan, Abu Ali ibn Sinoning "ash-Shifo"sini o'qishardi [6,91-96], Ilmiy hayoti al-Azhar universiteti doirasida ham.

Mamluklar saltanati davrida ko'p ilmiy kitoblar yozildi, birinchi musulmon ensiklopediyalar yaratildi. Umuman olganda, bu davrdagi adabiyot umumiylik tushunchasiga ega bo'lib yangi zamon adabiyotidan farqli o'laroq, o'ziga bor yozma mahsulotni qamrab olardi va badiiy ijod bilan bir qatorda diniy-falsafiy, tabiiy fanlar, filologiya, tarix, jo'g'rofiya va boshqa fanlarga mansub risoolalardan tashkil topgan edi. She'riyat ham, umuman, badiiy ijod "ilm", "bilim" yetkazuvchi omil hisoblanardi.

Bu davr ayniqsa, o'zining ensiklopedik asarlari bilan tanildi. Ularning mualliflari o'z ishlarini devonxona kitoblaridan (kotiblarga) kitobxonlarning foydalanishi uchun yozishgan, zamonaviy ibora bilan ularning kasbiy malakasini va mahoratini oshirishga qaratilgan edi. Shuning bilan birga, bu kitoblar nafaqat tor doirada foydalanish uchun, balki, aslida, ular keng o'qimishli doiralarga ham mo'ljallangan edi va kampilyatsiya uslubida tuzilib turli sohalarida mavjud bo'lgan bilimlarni jamlab va tartibga solib tasniflashtirgan asarlardir. Chunki har bir o'qimishli musulmon muayyan ilm va bilimlarga ega bo'lishi nazarda tutilgan edi. Birinchi musulmon ensiklopediyalardan eng mashhurlari quyidagilarni eslab o'tsak bo'ladi:

1. Nihayat al-arab fi funun al-adab ["Adab ilmlarida maqsadning nihoyasi"]. Muallifi Shaxobiddin Ahmad an-Nuvayriy (1279-1332). Ensiklopediya 30 tom XIII-XIXdan iborat, besh qimga bo'lingan. Birinchi qism –samoviy jismlar va yerni tavsifi, ikkinchi qism insonga bag'ishlangan, uchinchi qismi – hayvonot olami, to'rtinchi qismi o'simliklar, beshinchi, tarix, din, islom siymolari, rivoyatlar va xabarlariga bag'ishlangan. Misrxo'jalik masalalariga ham ko'p o'rin ajratilib, divon xodimlariga hujjatlar tuzishda qimmatli maslahat va tavsiyalar beriladi.

2. Shixab ad- Din al-Umariyning (1301-1348) “Masalik al-absar fi mamalik al-amsar” (Yirik markazlardagi mamlakatlarga nigoh tashlash yo‘llari) nomli ensiklopediyasi 20 qismdan iborat bo‘lib, o‘ziga adabiyot, tarix, jug‘rofiyalardan turli ma’lumotlarni mujassamlashtirgan asar edi.

3. Shixab ad-Din al-Qalqashadiyning (1355-1418) 12 tomli ensiklopediyasining nomini o‘zi, ya’ni “Subx al-aashe fi sinaat al-insha” (Insho yozishda ko‘zi ojizga tong nuri) asar yozishdan muallifi nima maqsad ko‘laganini ko‘rsatib turibdi. Asarda adabiyotga, adabiyotshunoslikka, ilm al-balag‘a, adibning mas’uliyatiga ko‘r o‘rin berilgan. Ishda hujjatlar tuzish, diplomatik yozishmalar shakli, tarixiy xronikalar yaratish borasida maslahatlar va tavsiyalar berilgan, shuningdek, turli mamlakatlar va mintaqalar, jumladan, Markaziy Osiyo davlatlari to‘g‘risida ham qiziqarli ma’lumotlar bor. Al-Qalqashandiy faqat ma’lumotlarni boshqalardan kompelyatsiya usulida jamlash bilan qanoatlanmasdan o‘z davri to‘g‘risida ko‘p yangi ma’lumotlar qoldirgan, jumladan mamluk sultonlari va Markaziy osiyolik hokimlar o‘rtasidagi yozishmalarni keltirgan, adabiyotni nazariy masalalarini ko‘targan, umuman ilm-fan borasida o‘zining munozaralar fikru qarashlarini jasurona ifodalangan. Uning ushbu shoh asarning 1913-1920 yillarda Qohirada nashr etilgan bir nusxasi O‘zbekiston fanlar Akademiyasining kutubxonasida nodir kitoblar bo‘lishida saqlanib kelmoqda. Bizning fikrimizcha, bu asar – tarix, adabiyot, jug‘rofiya, qaysi borada bo‘lmasin ilmiy izlanish olib borish uchun o‘zining sinchkov tadqiqotchisini kutmoqda.

Biz o‘sha davrda yaratilgan musulmon ensiklopediyalar ichidan faqat eng mashhur uchtagiga to‘xtadik. Bularni yoniga Tunisdan chiqqan va Misrga kelib ijod qilgan Ibn Xaldun (1332-1406) asarlari ham qo‘shiladi. Ibn Xaldunning “Muqaddimasida”da falsafiy, tarixiy va ijtimoiy masalalar, inson va jamiyat munosabati nuqtai nazardan ko‘tariladi, shuning uchun ham Ibn Xaldun birinchi arab sotsiologi degan nom olgan. Shuning bilan u haqiqiy mavsuviy (ensiklopedik) olim sifatida filologiyaning ham eng muhim masalalarini ko‘rib chiqqan va bu borada bir nechta asarlar yaratgan, jumladan grammatikaga oid “Mufasssal” nomli asarini.

Yana bir mavsuviy bilimlar sohibi – bu Abd al-Rahmon as-Suyutiy (1445-1505) 350 ga yaqin asarlarni tarixdan, dindan, adabiyotdan, tildan yaratdi.

Mamluklar sultanati davrida yozilgan ilmiy risolalar soni yuzlardan oshib umumiy musulmon madaniyatining salmoqli qismini tashkil qiladi.

Uslub jihatdan musulmon ensiklopediyalar 9 asrdan rivojlanib ketgan “adab” nomi adabiy janr uslubiga yaqin turadi va undan keng qamrovi, tasniflashga bo‘lgan alohida ahamiyati bilan ajralib turadi.

“Adab” adabiyotning asosiy qonunlaridan biri – bu bilimni, ma’rifat va ilmni, hamda odob to‘g‘risida nasihatlarini qiziqarli usulda ktobxonga yetkazishdir. Ilmiy adabiyot uslubiga bunday qarashni boisi bu turli bilim sohalarida (tarixga, jug‘rofiyaga, tabiiy fanlarda) yozilgan kitoblarga keng doiralarda qiziqish kuchayib, ularning ommaboprog yozishga ixtiyoy paydo bo‘ldi. Shuning uchun ilmiy mavzudagi asarlarga nasihatgo‘ylik ohanglar bilan ko‘ngil ochar unsurlar kirganiga ajablanmasa bo‘ladi. Qiziqtiruvchi unsurlar – bu badiiy ijod bo‘lib, ularning qamroviga afsonalashgan tarixiy misollar, she’r (shu jumladan, muallifni o‘ziniki),

turli rivoyatlar, hikoyalar, asotirlar va latifalar kirar edi. Ensiklopediyalarda ham badiiy ijodga ilmiy mavzular bilan bog'langan holda yetarli o'rin ajratilgan. Masalan, an-Nuvayriy ensiklopediyada quyoshga ilmiy tavsif berib, unga she'riy tavsif ilova qiladi.

Ko'rdingmi quyoshni, chiqaanida

ko'zni qamashtiradi uning nurlari

Qizil va sariq ranglarda jilvanadi u

go'yo shikoyat qilgandek uyqusiz tunda

Chiroyli kelinchak u, o'sha kechasi

qulida ushlagan ko'zgusi – to'lin oy edi. (6,98).

Bu qit'ada badiiy vositalarga – o'xshatish, iste'ora, majozga ko'p o'rin berilgan. Xuddi shuningdek, u oyga, tunga, Nil daryosiga Misr diyori tavsifiga ilmiy va badiiy tavsif beradi va turli rivoyatlar, hikoyalar, she'rlarni jalb etadi. Masalan, to'lin oyni inson ruhiga salbiy ta'sir etishini zamonaviy tibbiyot ham tan olgan. an-Nuvayriy bu to'g'risida rivoyat keltiradi: "Hikoya qilishadiki, ko'chmanchi arab bir kishini oyga tikilganini ko'rib – tikilmagin unga, unda nuqsonlar bor. Agar eshakda nuqsonlar bo'lsa, uni qaytarib bermas edingmi?" – dedi. U so'radi: - "Ular (nuqsonlar) qanday?" u javob berdi: "U umrga zavol bo'ladi, ajalni yaqinlashtiradi, dinni buzadi, yo'lni yoritadi, o'g'riga yo'l ko'rsatadi. (6,98).

Mamluklar davridagi she'riy ijodga kelsak, bu sohada ko'rinarli o'zgarishlar ro'y berdi. Bu ta'sirli o'zgarishlar shakliy izlanishlarda o'z ifodasini topdi: "tashtir", taxmis" kabi yangi shakllar, aruzning yaxlit vaznda va qofiyada yozilgan baytlari o'rniga band she'ri turli shakllarlari – muvashshax, zajal, mavval, dibayt kabi shakllar xalq she'riy ijodiyatidan kirib keldi. Mumtoz she'riyatidagi an'anaviy vaznlar "tavil, kamil, basit" o'rniga yengil vaznlar – "ramal, xafif, rajaz"larning qisqartirilgan qofiyali ko'rinishlari paydo bo'ldi. She'ning tili ancha soddalashib unga real hayotda uchraydigan oddiy kundalik iboralar boshqa tillardan so'zlar krib keldi, xazil-mutoyibaga mayillik sezildi. Bu chekinishlar yangi davrning ba'zi adabiyotshunoslariga arab she'riyati mamluklar davrida inqirozga uchradi, deb ta'kidlashga olib keldi (masalan, Xanna al-Faxuri [8, 294] yoki Mahmud Ribdaviy) [7, 34]. To'g'ri, Abbosiylar davridagi gullab yashnagan saroy mumtoz she'riyati haqiqatdan inqirozga uchradi. Ammo mamluklar davridagi she'riyat yorqin iste'dodlardan xoli emas edi, ular ham arab adabiyoti taraqqiyotiga o'z xissasini qo'shdi. Biz eng avvalo, shoirlar al-Busiriy (1212-1296), ash-Shab az-Zarir (1263-1289), Safiddin al-Xilliy (1278-1349), Ibn Nubatalarni (1287-1366) nazarda tutamiz. Al-Busiriyning mashhur "Qasidat al-burda" ("Plash qasidasi") butun arab dunyosida tarqalib she'riyatda al-madh al-nabavi (payg'ambar madhi) janrini paydo bo'lishiga sabab bo'ldi. U Muhammad payg'ambarni madhiyasi bo'lgan 162 baytdan iborat bu qasida jahonning ko'p tillariga – ingliz, fransuz, hind, fors, turk, nemis (olmon) va o'zbek tillariga tarjima qilingan. Qasidani mashhurligi uni afsonaviy yaratilishi bilan bog'liq. Og'ir kasal va yarim badani shol bo'lib qolgan shoir qasidani yozganidan so'ng, keyingi kuni butunlay sog'ayib ketadi. Bu hodisa "Qasidat al-burda"ga ("Odamlar nigohida "ilohiylik") sifatini beradi va uni og'izdan-og'izga o'tishiga, unga o'nlab sharhlar

yoʻzishga, unga taqlid qilishga olib keldi. Qasida shifobaxsh qudratga egaligi toʻgʻrisidagi afsona bizning fikrimizcha, ham yetib kelgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasining Sharqshunoslik instituti qoʻlyozmalar fondida “Qasidat al-burda”ni 30 tadan ortiq qoʻlyozmalari saqlanmoqda, ular har xil manbalarda joylashgan va koʻchiruvchilar tomonidan juda katta diqqat bilan xatosiz yozilgan. Qasida oʻzbek tiliga tarjima qilinganligiga qaramay, uning mazmuni hanuzgacha ilmiy jihatdan, tahlil qilinmagan, vaholanki, qasida shunday eʼtiborga va tadqiqotga loyiqdir. U anʼanaviy mumtoz qasida janriga toʻla amal qilib yozilgan, oʻzida unga xos unsurlarni mujassamlashtirgan va ichki janrlarga, yaʼni vasf, madh, faxr, xijolarga boʻlingan. Oʻz majmuasida ular paygʻambar hayotini yorqin va shoirona chiroyli obrazlarda tasvir etgan, qasida uning haqiqiy muxlisini samiy izxoridir.

Anʼana ayniqsa, vasf qilishda seziladi, shoirning asoiy maqsadi – madhga oʻtishidan oldin, manzaralar vasfida xayol parvozi baland va keng tarqaladi. Saxro boʻylab sayohat, yoʻlda koʻrgan-oʻtganlarni vasfi, tabiat manzaralari, hayvonot olami, ov qilish marosimi, soʻng paygʻambar ishtirok etgan janglar vasfi, bogʻ va qasrlar koʻrinishi, chashmalarda suvlarni jilvalanishi, bazmlar tavsiri jonli manzaralarni yaratadi.

Qasidaning soʻngi baytlarida Paygʻambar hayotida roʻy bergan hodisalar, uning daʼvatlari, olib borgan kurashlari, janglari, hammasi oʻz ifodasini topgan, ular orqali Muhammad paygʻambarni yorqin jonli obrazi gavdalanadi. Qasidada ishlatilgan majoziy obrazlar, soʻz sanʼatidan –chiroyli oʻxshatishlar, isteoralar, tazodlar, tajnislar va boshqa tasviriy ifodaviy vositalardan unumli foydalangan al-Busturiyning sheʼriy mahoratini qanchalik yetuk ekanligidan dalolat beradi. Al-Busturiyning boshqa asarlari ahamiyatga molik boʻlsa ham, bitta “Qasidat al-burda” asarining oʻzi unga soʻnmas shuhrat olib kelganini qayd qilish lozim.

Mamluklar davrining eng isteʼdodli shoirlaridan Safiddin al-Xilliy (1278-1349) ham hisoblanadi. Shoirlik mahoratida uni hatto XI asrda yashagan mashhur arab shoiri al-Mutanabbi bilan taqoslashadi. Al-Xilliy ranglar toʻgʻrisida yozgan bayti hozirgi Suriya bayrogʻini ranglariga asos boʻldi:

Oq – xayrli ishlarimiz, qora –qilmishimiz

Yashil – oʻtlogʻimiz, qizildir – bizning umdimiz.[7,40]

Tabiat manzaralarini vasf etishda oʻz zamonasida shoirga tengi keladigani yoʻq edi. Uning sheʼrlari dabdabalik, samarasiz soʻz oʻyinlari, mavhumlikdan xolidir. Shoir qasidani anʼanaviy shaklini oʻzgartirib jurʼat bilan ularning muvozanatini buzdi, yangi shakllar – tashtir, taxmis, hamda xalq ogʻzaki ijodidan keng foydalanib muvashshax, qumo shakllarini ijodiyatga kirgʻizdi va notiqlik shoir sifatida arab sheʼriyati sahifalarida iz qoldirdi. U anʼanaviy qasida qoidalariga sunʼiy yondoshish oʻrniga, haqiqiy ilhom samarasi boʻlgan lirik sheʼrlar yaratdi. Cafiddin al-Xilliy qatoriga Abu an-Nubata, Shab az-Zariflarni ham qoʻysak boʻladi. Ular ham oʻziga xos shoirlik olamini yasab, oʻzlarining yorqin obrazlari, lirik qahramonining tuygʻulari bilan hanuzgacha arab kitobxonlari koʻngliga yoʻl topib kelmoqdalar. Shuning uchun barcha eslab oʻtgan shoirlarimizning asarlari toʻplamlarda Misrda, Suriyada, Livanda nashr etilib kelmoqda, yangidan tadqiqotga tortilmoqda, tahlil etilmoqda.

Mamluklar saltanati davridagi adabiyot to'g'risida so'z olib borar ekanmiz, uning har bir jihatlarini kichkina bir maqolada qamrab olish amri mahol. Uning ibr qatlamini nasrnavislikda o'z ifodasini topgan hikoyatlar, maqomalar, rivoyatlar tashkil qilsa, yana bir qatlamini shu davrda yozilib olgan xalq ijodi tashkil qiladi. Undan tashqari yangidan XIII asrda yaratilgan 2 tomli "Zohir Beybars" sirasi (xalq romani) bir o'zi ham muhim katta madaniy-adabiy hodisa sifatida baholanib kelmoqda. Misr xalqining quldan chiqqan, kelib chiqishi ko'chmanchi qipchoq qabilasidan bo'lgan sulton Beybars to'g'risida xalq romanini yarvtishi, uning aqlu zakovatiga, jasorati va davlat borasidagi olib borgan samarali faoliyatiga bergan bahosigina bo'lib qolmay, sharq xalqlarining o'zaro munosabatlarini yorqin dalilidir.

Mamluklar davridagi adabiyotning yorqin namunalari bilan tarjimalar va tadqiqotlar olib arab adabiyotshunoslarimiz va tarjimonlarimiz tomonidan tanishtirish o'zbek o'quvchisi oldida arab adabiyotining yaxshi tanimagan qirralarini ochib berar edi.

Nazorat topshiriqlari:

1. Mamluklar davrida adabiy-madaniy holatni aniqlang.
2. Yozma adabiyot shakllanishining usullarini aniqlang.
3. "Adaba" janri poetikasining xususiyati.
4. Birinchi musulmon ensiklopediyalari.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Sharq poetika maktabining shakllanishi va manbalar.
2. "Ilm al-badi'" san'atining ifodaviy-tasviriy vositalari bilan bog'liqligi.
3. Abu-l- Faraj Udma ibn Ja'far (888-948)ning poetik fazilatlar.
4. "Tarixiy poetika".

Asosiy adabiyotlar:

1. Muhammad Zag'lul Salom, Al-adab fi-l-asr al-mamluki (Mamluklar davrida adabiyoti), Iskandariya: Maorif, 1996.
2. Ahmad Muxtor al-Ibodiy, Qiyom davlat al-mamalik al-ula fi Misr va ash-Sham (Misr va Shomda mamluklarning birinchi davlatini barpo bo'lishi). Muassasatu "Shabab al-jamiyat". Iskandariya, 1994.
3. Nuriddin Xalil, Sayf ad-Din Qutuz. Qohira al-mug'ullarni yengan g'olib (Sayf ad-Din Qutuz mug'ul) –Qohira, 2005.
4. Bosvert K.E. Musulmanskie dinastii. –M.: Nauka, 1971.
5. Doniyorov X. Eski o'zbek adabiy tili va qipchoq dialektlari. –T.:TDPI, 1976.
6. Muhammad Abd al-Munim Xafaja. Qissatu al-adab fi Misr (Misr adabiyoti tarixi). –Qohira, 1956.
7. Ribdaviy MAhmud. Al-adab al-hadis. (Yangi adabiyoti) Damashq, 1981.
8. Xanna al-Faxuri. Istoriya arabkoy literaturi. T.2. –M.:Inostrannoe literaturi. 1961.

Qo'shimcha adabiyotlar:

1. Xalizev V.E. Teoriya literaturi. –M., 2000.
2. Shark mumtoz poetikasi: manba va talkinlar. –T., 2006.
3. Kudelin AB. Srednevekovaya arabskaya poetika. –M., 1983.

4. Boriev Yu. Estetika. Teoriya literaturi: ensiklopediyskiy slovar terminov. –M., 2003.

MA'RUZA №12. MAMLUKLAR DAVRI ARAB SHE'RIYATI POETIKASI

Mamluklar davri arab she'riyatining janrlari va shakllari jumladan, muvashshaxning tuzilishi va poetikasi to'g'risida fikr yuritiladi.

Tayanch iboralar

Mamluklar davri, al-qarid, aruz, qofiya, muvashshax, zajil, mavval, al-quma, kana va kana, billiq, al-madxan-nabavi, qufl, g'usn, bandli she'r.

Nazorat savollari:

1. Nega mamluklar davrida an'anaviy she'r-al-qarid boshqa she'riy janrlar qatoridan o'rin olib ulardan ustun qo'yilishgi yoqotildi?
2. Badiiy didni o'zgarishi nimada sezildi?
3. Muvashshax qanday shaklga ega.
4. Yana qanday yangi janrlar va shakllar rivojlandi?
5. Aqidaparastlikka qarshi she'riyatda qanday yo'nalishlar paydo bo'ldi?

Mamluklar davrida (XII-XV) Misr va Shomdagi arab she'riyatiga baho berishda adabiyotshunoslarda yakdillik kuzatilmaydi. Ba'zilar bu davrda arab she'riyati inqirozga uchrab, tanazzulga yuz tutganini qayd qilishsa, boshqalari she'riyatda yangilanish harakati boshlanganligini, yangi janrlar, shakllar paydo bo'lishi bilan ijodiyot umuman o'zgarganligini tasdiqlashadi. Nazarimizda, birinchi qarash mamluklar davri sheriyati yaxshi o'rganilmaganligidan kelib chiqqan, chunki oxirgi o'n yilliklarda unga etibor kuchayib, mamluklar davri adabiyoti, ayniqsa, sheriyatining yangi jihatlarini kashf etilgan.

Tanazzulga kelsak, u ko'proq abbosiy xalifalar davrida takomillashgan saroy sheriyatiga taalluqlidir. Bu sheriyat islomgacha bo'lgan johiliya davridan rivojlanib kelib VIII-XI asrlarda "oltin bosqichidan" o'tdi va Abu Nuvas, al-Mutanabbi, Abu Ala al-Ma'arriy, Abu Tammam, al-Buxtoriy kabi buyuk shoirlarni yetkazib berdi. Aruz metrikasida yaratilgan, janr turlari va obrazlar ko'lamini jihatdan turg'un ananalarga boy ko'pqismlik qasida shaklida yaratilgan bunday asarlar arablarni faxru-iftixori bo'lib, o'sha davr sheriyatini estetik etaloni va manaviy qadru-qiyamatini belgilar edi.

Mamluklar hukm surgan XIII asrga bunday an'anaviy sher yetib keldi, ammo oldingi ustunlik mavqeini yo'qotdi. Bu holatni bazi arab adabiyotshunoslari (masalan, Xanna al-Faxuriy, Muhammad Zag'lul Salom) asli arab bo'lgan abbosiy xalifalar sheriyatni yaxshi tushunganligi, unga alohida ehtiros qo'yib, shoirlarni ijodini targ'ib qilganligi va, aksincha, ko'chmanchi turkiy qabilalar (qipchoq, o'g'iz, mang'it, qo'ng'iroq)dan chiqqan mamluk sultonlari adabiy arab tilini bilmaganliklari tufayli bu tilda yozilgan she'riyatga nisbatan butunlay loqayd munosabatda bo'lishganligini e'tirof etadilar.

Aslida esa masala mamluk sultonlari adabiy til fuxxani yaxshi bilmaganligiga borib taqalmaydi. XIII asr o'rtalariga borib Arab sharqida ijtimoiy-siyosiy muhit butunlay o'zgardi. Bag'doddagi Abbosiylar halifaligi mo'g'ullar zarbasidan yemirildi. Misr va Shomda hokimiyat qudrati ancha zaiflashgan ayyubiyalar sulolasidan mamluklarga o'tdi. Mamluk lashkarboshilari birin-ketin sultonlik taxtiga o'tirishdi va musulmon olamini qaqshatib kelayotgan mo'g'ullar bosqiniga butunlay barham berishdi. Mo'g'ullar bir qancha janglarda qaqshatqich zarbaga

duch kelishdi. Shom va Misrga bostirib kirgan salbchilarni tor-mor etib, arab yerlarini ozod qilishdi. “Shuning uchun ham”, - deb yozadi musulmon sulolalari to‘g‘risida malumotnoma tuzuvchi Klifford Edmund Bosvort - “mamluklar butun musulmon olamida budparast mo‘g‘ullar va xristianlar ustidan g‘alaba qozongani uchun g‘oliblar shuhratiga sazovor bo‘ldilar. Mamluklar davrida Misr va Shomda aholi ijtimoiy ahvoli yaxshilanib, madaniyat va sanatni gullab yashnashi kuzatildi. Ayniqsa binokorlik, kulolchilik va boshqa kasblar rivojlandi, savdo ishlari yo‘lga qo‘yildi [3,102]. Bu vaziyatda badiiy ong va badiiy didlar ham o‘zgardi. Shoirilar ananaviy obrazlar olamida kezmasdan o‘z davri muammolari muhiti va hayot tarzi bilan bog‘landilar. Madaniy yo‘nalishini endi sultonlar-u amirlar va saroy shoirlari hal qilmas edi. U adiblar, devonxonadagi kotiblar, o‘qimishli odamlar doirasida shakllandi, xalqqa yaqinroq bo‘ldi. Yozma adabiyotning nasriy turlari ko‘payib, o‘quvchilar bilim, marifatga bo‘lgan ehtiyojlarini badiiylashtirilgan didaktik janr “adaba” va birinchi musulmon ensiklopediyalaridan qondirdilar.

Sheriyatga kelsak, uning asosan yetti turini ajratishimiz mumkin. Eng avvalo bu **al-qarid** – ananaviy sher. Boshqa sher turlariga nisbatan ustunligini yo‘qotgan bo‘lsa ham, mamluklar davrida aksariyat tasavvuf she‘riyatida va *al-madx an-nabavaiyda* janrida namoyon bo‘ldi. Al-qarid she‘riyatiga mansub bo‘lish uchun quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi lozim edi:

- 1) Faqat aruz baxrlarida yozilishi va sher davomida bitta vaznni saqlashi;
- 2) qofiyadagi yaxlitligini saqlash;
- 3) faqat adabiy tilda yozilishi, lahji yoki omma tilini aralashtirish qat’iyan man etilgan edi.

Ananaviy qasida o‘zining qadimgi kompozitsiyasini saqlab qolishdan tashqari, uning muallifi johiliya davridan qolgan obrazlar, iboralar, ishoralar va boshqa so‘z sanati taalluqli vositalar olamida bemalol hayolan kezib yurardi. Shoir o‘zi uchun Arabiston sahrosining sun‘iy muhitini to‘qib yaratadi va maqsaddan kelib chiqib, ananaviy qasida kompozitsiyasiga oid nasib, vaf, madx, xajv va boshqa janrlar doirasida baytlarni bir- biriga ulab ketar edi. Bu sher o‘z zamonasi muhiti bilan hech qanday ma’naviy–hissiy aloqani o‘rnatmaydi, lekin suniy yasalgan muhitni mohirona tasvirlaydi. Masalan, Johiliya sheriyatida joylarni eslash odat tusiga kirgan bo‘lib, tanish joylar nomi eshituvchida olam–olam xotiralar va tasavvurlar tug‘dirar edi.

Mamluklar davridagi ularga taqlid qiluvchi shoir ham ruhan shu joylarni kezib o‘tadi va anana bo‘yicha xotiralarga beriladi. Masalan, tasavvufiy shoir Ibn al-Qarid;

Zu Silmdagi qo‘shnilarni eslaganda

ko‘zdan oqadi qonga aralashib shashqator yoshlar

Yoki esadi Kozima tomonidan yengil shaboda

Idm zulmatini yoritadi chaqmoq izlari.

Zu Silm, Kozima, Idm – bular Xijoz yonida joylashgan makonlarning nomlari, lekin shoir zamondoshlariga bu nomlar notanish bo‘lganligi uchun ularda hech qanday his-tuyg‘u va zavq uyg‘otmaydi. Ammo payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga bag‘ishlangan al-madh an-nabavi janriga oid qasidalaridagi eslatilgan joylar barcha musulmonlarga tanish bo‘lgani uchun,

ular xotirada Muhammad payg'ambar yashagan, borib ko'rgan, ziyorat qilgan makonlarni jonlantirib o'zgacha zavq baxshida qilar edi. Buni biz al-Busiriyning mashhur "Burda" qasidasida ko'ramiz.

Mamluklar davri she'riyatidagi yangilanishga kelsak, ular aruz vaznlari qoliplaridan chiqish, bandga asoslangan she'r yaratish, yakka qofiyadan cheklanish, adabiy ijodni xalq og'zaki ijodiga yaqinlashtirish, she'r tilini soddalashtirish kabi tamoyillarda o'z aksini topdi. Bu tamoyillar an'anaviy she'r al-qariddan istisno qolgan olti she'riy janrlarda o'z ifodasini topdi. Bular **al-muvashshah, zajal, al-maval (mavali), al-quma, kana va kana, billiq** nomlari bilan ma'lumdir. Bu janrlar ancha ilgari vujudga kelgan bo'lsa-da, faqat mamluklar davri she'riyati tarkibida rivoj topdi va al-qarid – an'anaviy qasida qatorida teng o'rin egallashga haqli bo'ldi. Shu paytgacha bu janrlar kamsitilib, she'riyat sifatida qadr topmagan. Bu janrlarda qalam tebratgan shoirlarni esa didi past deb ayblashgan.

Yangilanish jarayonida aksariyat shoirlarni bandli she'r – muvashshaxga o'tishi alohida ahamiyat kasb etadi. "Muvashshax" so'zi ikki ma'noni anglatadi: birinchisi – bezatilgan, ziynatlangan; ikkinchisi – kamarlangan, yoki marjon kabi o'ralgan. Odatda bayt quflidan - matla' baytdan boshlanadi, keyin mazmunini shartli tugalligi va o'z qofiyasi bilan farqlanuvchi she'r misralarini alohida yig'indisi – g'usnlar (daraxt shoxi ma'nosida) keladi, 2 misralar yig'indisi oldiga matla' bilan qofiyalangan yana bir qufl kamar yoki marjondek she'rni o'rab oladi va shu tarzda bir nechta bandlar tashkil topadi. Muvashshax qufl bilan boshlanib qufl bilan tugaydi. Oxirgi quflga – u xarja nomi bilan ma'lum – o'ziga xos talablar qo'yiladi: u nihoyat nozik did bilan yozilgan bo'lib, o'zida hazil-mutoyiba qaratilgan kayfiyat, lekin chuqur fikrni ifodalashi lozim edi. Bu fikr kimningdir nomidan ifodalanib, nutqqa yaqinlashib arab adabiy til qoidalaridan chekinish ham tavsiya etiladi. Muvashshax butun qufl va g'usnlari bilan xarjaga yo'naltirilgan bo'lgani uchun unga yorqin o'tkir so'zlar bilan yakun yasash shoir mahoratini namoyishiga aylanar edi.

Vazn va qofiyani o'zgartirish nuqtai nazaridan muvashshax arab she'riyatini katta yutug'i hisoblasa bo'ladi. Chunki u she'riyat tizimida salmoqli kashfiyot sifatida qabul qilindi an'anaviy normalardan inqilobiy siljish edi [5, 253].

Aslida muvashshax arab-ispan madaniyatining uyg'unlashuvida vujudga kelgan andalusiya she'riyatini samarasidir. Andalusiya va Mag'ribdan kelgan shoirlar tajribasi mahalliy she'riy an'analar bilan uyg'unlashib o'z navbatida ajoyib sintezni tashkil qildi.

Zajal ham andalusiya she'riyati ta'sirida vujudga keldi, ammo unda xalq og'zaki she'rining unsurlari yanada ustun keladi.

Dubayt - ikki baytdan tashkil topgan she'rni nazarda tutadi, fors tilidan o'tgan tushuncha. Arab she'riyatida masnaviy so'zini tushunchasi misrlari o'zaro qofiyalangan she'r nazarda tutiladi. Vazn jihatdan aruz metrikasidan farq qilinadi. Ba'zida dubayt va masnavi bir ma'noni ifodalaydi.

"Mavval" (mavaliya) va "quma" janrlar so'zlarida oxirgi harakatlar inobatga olinmayldi, so'zlar sukun bilan tugallanadi. An'anaviy mumtoz she'riyatda

bunday hodisaga ayrim istisno bilan faqat yo‘l qo‘yiladi. Bu she‘riy janrlar paydo bo‘lishi atrofida turli rivoyatlar to‘qilgan.

“Bilmiq” – ola-bula yoki rang-barang ma’nosini ifodalab, hech qanday qoidalarga bo‘ysunmagan she‘r nazarda tutiladi.

Biz she‘riy yangilanishda ishtirok etgan janrlarni eslab o‘tdik. Lekin bu harakatni faqat shakllarini o‘zgarishini ta’minlamagan. Birinchi navbatda badiiy tafakkurni o‘zgarishi, yangi badiiy did paydo bo‘lishi to‘g‘risida gap ketishi kerak. Yangi voqelikka yondashish yangi ijodiy uslubni ishlab chiqishga undadi. Tashqi dushman – mo‘g‘ullar va xristian salbchilari bosqini xatarida uzoq yashagan jamiyatda ular mag‘lubiyatga uchragandan keyin hayot go‘zalligini, quvonchini tarannum etish, g‘alabani kuylash, muzaffar fotihlarni madh etish, shuningdek ziyofatlarni, do‘stona majlislarni vasf etish ehtiyoji tug‘ildi. Shoirlarda yana hazil-mutoyibaga, sho‘xlikka, so‘z o‘yiniga moyillik sezilar edi, bular al-xamak (ahmoqlik), al-majun (hazil), al-ixmad (sho‘r) kabi janrlarda o‘z ifodasini topdi. Yangi zavq va zid sherni musiqaga tushirish va ashula tarzida, go‘zal raqqosalarga jo‘r bo‘lishini talab qilardi. Mamluklar davrida musiqa juda rivojlandi. Sher janridan ayni muvashshax va zajal nisbatan oson musiqa ohangiga mos tushardi. Shoirlar asarlari uchun so‘z tanlashda ularni ashulaga mos kelishiga, ohangdorligiga, jozibasiga va misralarning ichki qofiyalashishiga (tasri) alohida ahamiyat bera boshlashdi. Bu “bezatish” tajribasiga mukkadani ketgan bazi shoirlarning izlanishlari oqibatida sherdan mazmun ko‘tarilib asarda faqqat yuzaki shakli joziba qoldi.

Davr shariatini yana bitta belgisi mamlakatning ichki ijtimoiy muammosi va ziddiyatlari bilan bog‘liq edi. Mamluk sultonlari shialar bilan murosasiz kurash olib borib ularni saltanatidan chiqarib yuborishdi. Ammo sunnani to‘rt mazxabi bemalol o‘z faoliyatini olib borib, aqidalarini keng o‘z nuqtai nazaridan targ‘ibot qilar edi. Natijada mamlakatda aqidaparastlik, turli mazxablarning har tomondan bosimi, fiqhchilarni davatlari va shariat nomidan tahdidi ko‘payib ketdi. Shoirlar ham har xil mazhablarga mansub bo‘lganligi uchun asarlarda raqiblari bilan tortishar, mazxablarini manfaatini ko‘zlab turli davatlar va targ‘ibotlar qilar edilar.

Aqidaparastlarni va fiqhxchilarni bosimi va zug‘umiga qarshi kurash bazi shoirlarda be‘mani tus oladi. Ular o‘z sherlarida ahloqiy meyorlardan chiqib behayo mazmundagi sherlar yozishdi, insonning nozik tabiatiga to‘g‘ri kelmaydigan qo‘polsheriy manzaralar yaratishdi.

Shunisi qiziqki, payg‘ambar madhiyasi va inson go‘zalligini tarannum etgan mashhur shoirlar al-Busiriy, an-Nubatalarda ham mana shunday sherlar uchraydi.

Yana bir toifa shoirlar aqidaparastlik va taassubchilarga qarshi o‘zlarida ruhiy g‘urbatlik sezib tasavvuf yo‘lini tanlashdi va unda taskin topishdi. Sufiyona kayfiyatdagi shoirlarda yuksak ilohiy muhabbatga intilish va poklanish rang barang majoziy obrazlarda jilvalanadi.

Yana mamluklar davri shariatini belgisi- bu xalqqa, oddiy hayotga yaqinlashish. Sherning mavzusiga zamondoshlarni orzu-umidlari, ko‘cha

hodisalari, bozor tavsifi, odatlar, bayram onlari, kundalik tashvishlar ko‘lami kirib keldi.

Shunday qilib, mamluklar davri sheriyatda anana va yanglanish tamoyillarini kuzatar ekanmiz, shunga amin bo‘ldikki an’anaviy she’riyat mavjud edi, ammo oldingi ustunligini yo‘qotib boshqa janrlar qatoridan joy oldi. Yanglanish tamoyillari esa mavzularni boyishida, yangi shakllarni paydo bo‘lishida, janrlarni rivojlanishida o‘z ifodasini topdi. Mamluklar davri sheriyati o‘z xususiyatlarga ega ekan, ular bilan tanishish ularni tahlilga tortish sharq adabiyotshunoslik vazifasiga kiradi.

Nazorat uchun topshiriqlar:

1. Mamluklar davrida adabiy-madaniy holatni aniqlang.
2. Yozma adabiyot shakllanishining usullarini aniqlang.
3. “Adaba” janri poetikasining xususiyati.
4. Birinchi musulmon ensiklopediyalari.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Sharq poetika maktabining shakllanishi va manbalari.
2. “Ilm al-badi” san’atining ifodaviy-tasviriy vositalari bilan bog‘liqligi.
3. Abu-l- Faraj Udama ibn Ja’far (888-948)ning poetik fazilatlar.
4. “Tarixiy poetika”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Muhammad Zag‘lul Salom, Al-adab fi-l-asr al-mamluki (Mamluklar davri adabiyoti) “Maorif” nashriyoti. Iskandariya 1996 y.
2. Ahmad Muxtor Al-Ibodiy, Qiyam davlat al-mamalik al-ula fi Misr va –sh-Sham (Misr va Shomda mamluklarning birinchi davlatini barpo bo‘lishi. Shabob al-jamiati. Iskandariya 1994 y
3. Bosvort K.E. Musulmanskii dinastii. M.: Nauka 1971 y
4. Muhammad Abd al-Munim Xafaja. Qissatu-l-adab fi Misr (Misr adabiyoti tarixi) Qohira 1956 y.
5. Xanna al-Faxuri. Istoriya arabskoy literaturi. T. 2. Inostrannaya literatura. M.1961.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Xalizev V.E. Teoriya literaturi. –M., 2000.
2. Shark mumtoz poetikasi: manba va talkinlar. –T., 2006.
3. Kudelin AB. Srednevekovaya arabskaya poetika. –M., 1983.
4. Boriev Yu. Estetika. Teoriya literaturi: ensiklopediyskiy slovar terminov. –M., 2003.

MA'RUZA №13. MA'RIFATPARVARLIK ADABIYOTINING POETIKASI.

Darsning maqsadi: ma'rifatparvarlik adabiyoti poetikasini vujudga kelishi, uning o'ziga xosligi, o'zida milliy va g'arb qadriyatlarini mujassamlashtirganligi to'g'risida.

Tayanch iboralar

Ma'rifatparvarlik adabiyot, An-nahda, publisistika, ilmiy jamiyat, tarixiy roman, maqoma.

Nazorat savollari:

1. Yangi arab adabiyoti qachon shakllanib?
2. Nahda harakatini mohiyati nimada?
3. Ma'rifatparvarlik adabiyotida qanday yangi janrlar paydo bo'ldi?
4. Adabiy arab tili qanday o'zgarishlardan o'tdi?
5. Kimlar yangi arab adabiyoti poetikasini rivojiga salmoqli hissa qo'shdi?

Adabiyot har bir xalqning ma'naviy yuksalish darajasini ko'rsatuvchi mezon bo'lib, uning boshidan kechirgan ma'naviy-ma'rifiy tajribalarning ifodasidir. Ma'lumki, o'zida juda katta ijtimoiy kuchni mujassamlashtirgan badiiy adabiyot inson angining o'sishiga va tafakkur doirasining kengayishiga, estetik didining shakllanishi va axloqini tarbiyalashga faol ta'sir ko'rsatadi. Davrning falsafiy-diniy ta'limotlari ham ko'pincha badiiy adabiyot orqali inson qalbiga yo'l topadi.

Arab adabiyoti Sharq adabiyotining tarkibiy qismi sifatida umumjahon adabiyoti xazinasidan o'rin olgan. U ikki ming yillik ko'hna tarixga ega va mana shu tarix davomida necha-necha o'zgarishlar davrlarini boshidan kechirgan. So'nggi ikki asr arab adabiyotining rivoji yanada alohida ahamiyat kasb etadi, chunki uning tarixida yangi adabiy davr boshlandi.

Yangi davr arab adabiyoti poetikasining shakllanishi yangicha badiiy tafakkur va tushunchalar, yangi mavzu va uslublar, yangi yo'nalish va adabiy maktablar, yangi adabiy tur va janrlarda ifodalanadi.

Poetikani rivoji Rifa'a at-Taxaviy, Jirji Zaydon, Ahmad Shavqiy, Hofiz Ibrohim, Ma'ruf ar-Rusafiy, Jubron Xalil Jubron, Amir ar-Rayhoni, Mahmud Abbos al-Aqqad, Ibrohim al-Maziniy, Abdurahmon ash-Shukriy kabi o'z davri adabiyotining milliy qiyofasi shakllantigan va hanuzgacha arab olamining yorqin siymolari bo'lib turgan adiblar ishtirok etgan.

Misr ma'rifatparvarlari ta'sirida arab adabiyotiga "vatan", "millat", "xalq manfaati", "hokim va xalq", "kengash", "dastur", "dasturiy hukmronlik", "parlament", "inson huquqlari", "vijdon ozodligi", "hurriyat", "ayolning jamiyatda tutgan o'rni", "taraqqiyot" kabi tushunchalar kirib keldi. Ular safidan Muhammad Abduh, Adib Ishoq, Mustafu Komil kabi otashin notiq va so'z ustalari chiqqan bo'lib, arablarga xos nutq san'atini ma'rifatparvarlik davri ijtimoiy-siyosiy muammolari bilan bog'liq holda rivojlantirishga o'z xissalarini qo'shdilar. Shu bilan birga ularning matbuotda e'lon qilingan maqolalari ijtimoiy-siyosiy va ma'rifiy-axloqiy masalalarni yoritadigan barcha turdagi publisistika janrlarining shakllanishiga olib keldi.

Biz Misr ma'rifatparvar publisistlari bilan tanishtirishni, avvalo, Jamoliddin al-Afg'oniydan boshlaymiz. Jaloliddin al-Afg'oniy adabiyotni musulmon

davlatlari taraqqiyotining asosiy omillaridan biri deb bilar edi. U adabiyot xalq ongini oshirishda birdan-bir kuch deb qayta-qayta takrorladi. O'sha zamon adabiyoti davr talabiga javob bermasligini ta'kidlab, unga yangicha shakl berish masalasini ko'tarib chiqdi. Adabiyot ijodkorlarining oldiga xalq tushunadigan tilda asarlar yozish lozimligini vazifa qilib qo'ydi. Uning adabiyotga bo'lgan munosabati va talabini keyinchalik Mustafo Komil, Saad Zag'lul, Muhammad Muvaylihiy va boshqa ma'rifatparvarlar qo'llab-quvvatladilar.

Arab dunyosida ma'rifatparvarlik harakati dastlab Suriyada boshlangan bo'lsa-da, Misrda feodal tuzumdan –kapitalistik munosabatlarga o'tish jarayoni jadallashishi natijasida kengroq tus oldi. Ma'rifatparvarlar qoloqlik, jaholat, zulmdan yorug'likka chiqish yo'lidagi asosiy omilni xalqni ma'rifatga jalb etishda, uning aql-idroki, ma'naviy ongini oshirishda ko'rar edilar.

Til, nahv, nutq san'ati, balog'at, mantiq, tibbiyot, shariat, musiqa sohalarida ijod qilgan Nasif al-Yaziyjiy haqiqiy qomusiy adib edi. Uning ilmiy-ma'rifiy faoliyati nafaqat arab dunyosida, balki G'arbda ham mashhurdir. G'arb sharqshunosi Silvester de Sasi tayyorlagan O'rta asr nasrnasivi al-Hariri maqomalarining nashriga al-Yaziyjiy tomonidan bildirilgan tanqidiy mulohazalar butun sharqshunoslar orasida yuqori baholandi, hatto sharqshunos Meran tomonidan lotin tilida nashr etildi.

Qayd etganimizdek, Nasif al-Yaziyjiy iste'dodli shoir va arab adabiyotida yorqin iz qoldirgan maqomalar muallifi edi. Uning «Majma'u-l-bahrayn» («Ikki dengiz birlashuvi») nomli maqomalar to'plami 1855 yilda nashr etilgan.

«Maqoma» janri arab adabiyotida an'anaviy janr bo'lib, odatda qofiyalangan nasrda – saj' usulida yozilgan. Uning qahramoni ko'pincha shahar fuqarosi, o'ta makkorligi yoki soddaligi bilan ajralib turadi. Maqomada shu qahramonning sarguzashtlari bayon qilinarkan ekan, u doimo yomonlar ustidan mazah qiladi, yaxshilikni ulug'laydi. Al-Yaziyjiy shu usuldan foydalanib, zamonasining dolzarb ijtimoiy-siyosiy muammolarini ko'tarib chiqdi. Bu narsa uning maqomalarini faqat axloqiy masalalar bilan chegaralanib kelgan, O'rta asr maqomalaridan ajratib turardi. U yozgan maqomalar nafaqat Suriya va boshqa arab dunyosida, balki Yevropada ham katta shuhrat qozondi. Ular ketma-ket g'arb tillariga tarjima qilindi. Shunday qilib, Nasif al-Yaziyjiy an'anaviy maqoma janrining so'nggi yirik namoyandasi sifatida ham arab badiiy adabiyotining yangi davrdagi rivojiga katta hissa qo'shdi.

Milliy yuksalish davri "An-Nahda" badiiy adabiyot oldiga yangi vazifalarni qo'ydi. Bu vazifalardan eng muhimlariga rioya qilish, ya'ni zamon talabiga moslashish adabiyotda ijodiy tamoyillarning o'zgarishiga olib keldi. Adabiyotning jamiyat oldidagi mohiyati, mas'uliyati, tarbiyaviy-ma'rifiy ahamiyati oshdi. Vujudga kelgan yangi siyosiy, falsafiy, mafkuraviy, ilmiy tushunchalarni badiiy adabiyotda aks ettirish jarayoni boshlandi. Yangi adabiyot g'oyaviy, mafkuraviy tomondan boyib, uning falsafiy, publisistik va didaktik ruhi kuchaydi. Unda «millat», «hurriyat», «firqa», «siyosat», «vatan», «sho'ro», «vijdon» kabi so'zlar keng qo'llanilib, asar qahramonlari tilida turli vaziyatlarda turlicha jilvalandi. Eng muhimi badiiy adabiyot bosqichma-bosqich hayotga yaqinlashdi. Kundalik hayot hodisalari yoki tarix sahifalari uning mavzu manbaiga aylandi. Adabiyotning

hayotga yaqinlashishi yana bir muammo - ikki til muammosini vujudga keltirdi. Ma'lumki, arab olamida adabiyot va nashriyot uchun adabiy arab tili – fusha ishlatiladi. Ammo har bir arab mamlakatining o'z tili – mahalliy lahjasi bor. Odamlar o'zaro mana shu lahjada gaplashadilar, arab mamlakatining fuqarosi ikkinchi arab mamlakati fuqarosi lahjasini yaxshi tushunmasligi mumkin. O'rta asrlardagi saroy adabiyotida lahjalar butkul tan olinmas edi. Ba'zi ma'rifatparvarlar ommaga o'z ta'sirini kuchaytirish uchun lahja tilida ham asarlar yozdilar. Masalan, Arabiy posho isyonida qatnashgan otashin publisist va mutafakkir Abdulloh Nadim o'z she'rlarini Misr lahjasida yaratib, inqilob g'oyalarini kuyladi.

Adabiy arab tili – fushaning o'zi ham yangilanish jarayonini boshidan kechira boshladi. Uni soddalashtirishda, zamon talabiga moslashishda, eskirib qolgan so'z va iboralardan xoli qilib, til uslubini o'zgartirib, uni tushunarli holga olib kelishda suriyalik ma'rifatparvarlarning, ayniqsa, yoziyjiylar sulolasining xizmati juda katta. Albatta, ma'rifatparvar badiiy adabiyot dastlab o'z ma'rifiy g'oyalarini kitobxonga didaktik nasihatlar, soddalashtirilgan til orqali bevosita targ'ib qilar edi. Bular esa uning badiiy jihatini zaiflashtirar edi. Lekin shuni qayd etish lozimki, ayni shu ma'rifatparvarlik adabiyotidan XX asr boshida tanqidiy realizm ijodiy metodi o'sib chiqdi va adabiyotning yetakchi tasvir tamoyiliga aylandi. Natijada juda salobatli va jiddiy adabiyot vujudga kelib, u «al-mujaddiduna» (“yangilanish tarafdorlari”) yo'nalishi yoki shartli ravishda «Misr modernistlari» yo'nali-shi nomini oldi.

Ikkinchi tomondan, ijtimoiy-hayotiy ehtiyoj ta'sirida ayni ma'rifatparvarlik adabiyotida arab adabiyoti uchun yangi bo'lgan zamonaviy janrlar - roman, hikoya, esse, pesa, ocherk, maqola kabi janrlar shakllandi. Ular o'z navbatida har xil turkumlarga bo'linib ketib, tasvir usuli va tamoyillari, tasvir mavzusi, tasvirlangan voqealarning xususiyatlari bilan rang-barang tus oldi.

1898 yildan to 1900 yilgacha «Misbah ash-Sharq» ro'znomasi-da Al-Muvaylihi «Fitra min az-zamon av hadis Iso ibn Hishom» («Zamonadan bir lahza yoki Iso ibn Hishomning hikoyalari») nomli hikoyalar silsilasi bosilib chiqdi. Al-Muvaylihiga shuhrat keltirgan bu asarni yangi arab badiiy nasrining hikoyanavislikdagi to'ng'ich namunalaridan deb hisoblash mumkin. Adib katta jasorat bilan eski maqoma janri qolipida Misrning yangi ijtimoiy hayotidagi illatlarni oshkor va aniq ochib tashladi.

Al-Manfalutiy O'z hikoyalarida turli usul kompozisiyalardan samarali foydalanishi yozuvchining adabiy iqtidoridan dalolat beradi. Hikoyalarining qurilishi rang-barang bo'lib, muallif voqealarni o'z nomidan bayon qiladi. Ba'zida asarning boshidayoq muallif nomidan bo'lajak hodisalarning yechimi beriladi. Masalan, “Etim” va “Jarlik” hikoyalarining kompozisiyasi shunday tarkibda tuzilgandir. Asar kompozisiyasi makon va zamon jihatidan cheklanmaganligi, muallif tavsiflari, ichki monologlar va dialoglarning ishlatilishi, lirik chekinishlarning kiritilishi, qahramonlar ruhiy iztirobini chuqur tasvirlash kabi usullar arab adabiyoti uchun yangilik edi. Umuman, arab nasrida yangi usulni joriy etishda al-Manfalutiyning xizmati juda katta. U arab adabiy tilini soddalashtirish, keng ommaga tushunarli qilish, lug'aviy arxaizmlardan voz kechish sohasida katta ishlarni amalga oshirdi.

Al-Manfalutiyy ijodida adabiyotning ma'rifatparvarlik va romantik yo'nalishlari uyg'unlashib ketgan. Bir tomondan, ma'rifatparvarlik yo'nalishiga xos tarbiyaviy axloqiy masalalarga, didaktizmga moyillik sezilsa, ikkinchi tomondan, romantizmga xos hissiyotga berilish, shaxsning ichki kechinmalarini ko'rsatish, ayniqsa, uning inson qadr-qimmatini tasvirlash jarayonida yaqqol ko'rinadi. Buyuk Misr shoiri Salox Abd as-Sabur (1931-1980) bu to'g'rida shunday degan edi: "Mening adabiy hissiyotlarimni al-Manfalutiyyning ijodi uyg'otdi". Al-Manfalutiyyning romantizm ruhida yozilgan asarlari o'quvchilar didini, hissiyotini shakllantirishdagi ahamiyati taniqli arab tanqidchisi Ahmad az-Zayat tomonidan ham ko'rsatib o'tilgan.

Shunday qilib, XIX-XX asrlarda ro'y bergan yangi arab adabiyotining rivoji milliy yuksalish harakati – "an-Nahda" ta'sirida o'sib, ma'rifatparvarlik tusini oldi. Bu davrda ko'p zamonaviy janrlarga, shu jumladan, roman, novella, drama, esse, publisistika, maqola, ocherklarga asos solindi. Albatta, bu adabiyotda hali mahorat, serjilvalik yetishmasdi, ba'zida nasihatgo'ylik ustun kelar edi. Lekin ayni shu adabiyotda insonning ijtimoiy shaxs sifatida gavdalanishi an'analari poydevori qurildi.

Nazorat uchun topshiriqlar:

1. I.Yu.Krachkovskiyning ma'rifatparvarlik adabiyoti poetikasi to'g'risida yozganlarini toping.
2. Ma'rifatparvarlik davriga oid publisistikasidan namunalar yoqib uslubini aniqlang.
3. Yangi arab adabiyotida qanday janrlar paydo bo'lganligini aniqlang.
4. Jurji Zaydonning bir nechta romanlarini taqqoslab, ularning kompozisiya va syujetlarida yaxlitligini.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Sharq poetika maktabining shakllanishi va manbalari.
2. "Ilm al-badi'" san'atining ifodaviy-tasviriy vositalari bilan bog'liqligi.
3. Abu-l-Faraj Udma ibn Ja'far (888-948)ning poetik fazilatlar.
4. "Tarixiy poetika".

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xo'jayeva R.U. Yangi davr arab adabiyoti tarixi. –T., 2004.
2. Xodjayeva R.U. Yangi davr arab adabiyoti tarixida ma'rifatparvarlik jarayoni. –T, 1999.
3. Krachkovskiy I.Yu. Izb. Soch. – T.3., M-L., 1956.
4. Murod Naima. Adabiyotda o'qish va izlanish masalalari. –Qohira, 1996 (arab tilida).

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Dolinina A.A. Ocherki istorii arabskoy literatsri novogo vremeni. Yegipet i Siriya. Publisistika. 1968.
2. Dolinina A.A. Ocherki istorii arabskoy literaturi novogo vremeni. Prosvetitskiy roman.1870-1914. –M., 1973.
3. Krimskiy A.E. Istoriya novoy arabskoy literaturi. –M., 1971.

MA'RUZA №14. YaNGI MUMTOZ ShE'RIYAT POETIKASI.

Darsning maqsadi: Ushbu ma'ruzada yangi davrdagi mumtoz she'riyatdagi qadimgi va yangi poetikalarni mutanosibligi o'rganiladi, yangilanish tamoyillari ko'rib chiqiladi.

Tayanch iboralar

Yangi mumtoz, she'riyat, ijtimoiy-siyosiy mavzu, munosabatlar she'riyati, taqlidchilar, at-taqlidiyyuna, amir ash-shuaro, shoir an-Nil, shoir al-qutrayn, hikma, ihvaniyot, hamriyot.

Nazorat savollari:

1. Arab she'riyati tiklanishida qanday merosga tayandi?
2. Arab she'riyatida qanday yangi mavzular paydo bo'ldi?
3. Misrda yangi she'riyat poetikasi qanday tus oldi?
4. Shauqiyy va Hofiz Ibrohimning she'rlari poetikasi Xalil Mutronning she'rlari she'rlari poetikasida qaysi tomonlari bilan ajralib turadi?

Misrda yangi she'riyatning shakllanishi ko'hna she'riy meros an'alarining tiklanishi bilan chambarchas bog'lanib ketdi. Nashriyotlar rivojlanishi tufayli sanoqli nusxalarda saqlanib qolgan nodir she'riy to'plamlarning qo'lyozmalari chop etilib, keng o'qimishli doiralargacha yetib bordi. Endi mumtoz she'riyat durdonalariidan oddiy kitobxon ham bahramand bo'ldi, ularni o'qib zavqlanish imkoniyatiga ega bo'ldi. Nazm san'ati yuksak cho'qqilarni egallagan "Oltin davr" – IX–XII asrlar shoirlardan al-Buxturiiy, Abu Firos Hamadoniyy, Abul-Ataxiyya, al-Mutanabbiyy, Abu Nuvas, Abu Alo al-Maarriyy, Ibn ar-Rumiylarning devonlari nashr etildi. Bundan keyin esa Johiliya davrida yashab ijod etgan al-Muhalxil, Shanfara kabi shoirlar hamda "Muallaqat" nomini olgan mashhur qasidalarining mualliflari - Antara, Tarafa, an-Nabig'a az-Zubyaniiy, Imru-l-Qays ilk islom davridan Kaab ibn Zuxayr, Hasan ibn Sobit, badaviy lirik shoirlardan Jamil Ibn Maammar kabi shoirlarning ijodi bilan tanishish navbati keldi. Bu tengsiz she'riyat xazinasini, bir tomondan, o'z obrazlarining ajib sehri va nozik hissiyoti bilan go'zallik shaydolari qalblarini rom etsa, ikkinchi tomondan, chuqur ma'nolari ma'naviy ozuqa bo'lib xizmat qildi va shoirlarni bu yetuk asarlarga taqlid etishga undadi. Shunday qilib XIX asrning ikkinchi yarmida o'sib ulg'aygan shoirlar ijodlarida ko'hna she'riy uslublardan keng iste'foda etishga intildilar. Oqibatda Misr she'riyatida yangi mumtoz yo'nalishi vujudga keldi.

Demak, arab she'riyatida yangilanish jarayoni dastlab Misrda yangi janr va uslublar joriy etish orqali emas, balki eski qolipga yangi mazmun kiritish bilan boshlandi. Birinchi bosqichda inqiroz davridagi (XVII-XVIII asrlar) she'riyatga xos bo'lgan asosiy kamchiliklar – xalq hayotidan uzilishi, voqelikdan uzoqlashish, zamon muammolaridan bexabar qolish kabi illatlardan qutulish tamoyillari kuchaydi. To'g'ri, bu bosqichda adabiy jarayon oson kechmadi, chunki ba'zi shoirlar taqlidchilik yo'lidan to'ppa-to'g'ri borib, an'anaviy uslub va obrazlardan tashqari hatto an'anaviy mavzularga ham ergashib o'zlariga soxta badaviy muhit yaratishga harakat qilsalar, yana boshqalari yangilanish ehtiyojini o'zlaricha "o'tkirroq anglab" ot yoki zotli tuya vasfi o'rniga endi poezd yoki zamonaviy

paroxodni vasf etdilar. Bu toifadagi shoirlar “at-taqlidiyyun” – haqiqiy taqlidchilar nomini oldilar.

Masalan: Hasan al-Attor (1766-1834), Qosim al-Abdulloh, Mahmud as-Soatiy (1826-1881), Ali al-Jorim (1881-1949), Taufiq al-Bakriy (1870-1932), Muhammad al-Mutalib (1870-1931) kabi shoirlar jarangdor she’rlari bilan o‘z muxlislariga ega bo‘lgan bo‘lsalar ham, ular ijodi yangi she’riyat tarixida arzirli ahamiyat kasb etmadi, chunki ular mumtoz she’riyatga ijodiy yondasha olmadilar. Ular she’riyatida samimiy tuyg‘ularning ifodasi yetishmas edi. Ular o‘z marsiyalarida izhor etgan ba’zi bir his-tuyg‘ularni ham siyqasi chiqqan tasviriy vositalar bilan ifodalashdan, qotib qolgan qoliplardan nari o‘ta olmadilar. Hatto ishqiy lirikada ham ular o‘zlarining ichki kechinmalarini aks ettirish o‘rniga Johiliya yoki Abbosiylar davridagi shoirlarning ishqiy lirikasiga xos obrazlarni qayta tiriltirishga urindilar. Masalan: XIX asrda yashagan shoir sahroni karvon bilan kezib, ma’shuqasi yashagan va endi tashlandiqqa aylangan joyni topib olganida, sevgilisining izlarini qidiradi, nola chekadi. Bunday she’rni o‘qigan kitobxon bu she’r qachon yozilganini tushuna olmaydi, chunki soxta o‘tmish manzarasi qadimgi shoirlar asarlarida ifodalangan manzaradan zarracha farq qilmaydi.

Shuning bilan birga ayni shu mumtoz she’riyatga ergashganlar orasidan Mahmud Sami al-Barudiy, Hofiz Ibrohim, Ahmad Shavqiy kabi yangi davrning eng buyuk shoirlari yetishib chiqdilar. Bu shoirlar o‘z ijodlari bilan arab she’riyatining haqiqiy latofatini tikladilar, go‘zalligi va jozibasini yanada oshirdilar.

Ularning asarlarida kitobxon chin she’riyat jozibasini chuqur his eta boshladi. Bu yangi mumtoz she’riyat namoyandalari arab qasidasining an’anaviy ko‘p qismli kompozitsiyasi tarkibini saqlab qolgan holda uning asosiy komponentlaridan bo‘lgan madh, nasib, vasf, riso, hijo, faxr va boshqalardan ham foydalandilar. Shu yo‘l bilan ular mumtoz she’riyat shakllari yangi mavzuni ifoda etishga qodir ekanligini isbot etdilar.

Ammo aruzda yozilgan madhiya va marsiyalar endilikda sulton va amirlarning ko‘nglini ovlash maqsadida yozilgan madhiya-bozlik bo‘lib qolmasdan, balki xalq g‘amini yegan, vatan ozodligi yo‘lida jonini fido qilgan kurashchilarga, taraqqiyparvar davlat arboblarga, xalqni jaholatdan olib chiqishni ko‘zlagan ma’rifatparvarlarga bag‘ishlandi.

Zamonning fikr-ruhiyatidan aks-sado bergan bu she’riyatning mumtoz she’riyatdan meros qilib olgan bir hislati- u siyosiy she’riyatni tiklashdan ham iborat bo‘ldi. Ijtimoiy-siyosiy masalalarni ko‘tarib, bu yo‘nalish o‘z davrining eng dolzarb masalalariga yuz o‘girdi, mustaqillikka undadi, ezgu insonparvarlik tuyg‘ulari bilan toshdi, vatan taqdirini o‘yladi, yakka hokimlik va istibdodga qarshi chiqib, parlament tuzumiga da’vat etdi, aql-idrokni va ma’rifatni tarannum etdi. Shuningdek, xotin-qizlar masalasi ham bu shoirlar nazaridan chetda qolmadi. Ular ayolga ilm berib, uni jaholat dunyosidan ma’naviyat olamiga olib chiqishga da’vat etdilar. Uning zimmasiga juda katta mas’uliyat – millat shakllanishida sog‘lom va ongli avlod yetishtirish vazifasini yukladilar.

Al-Barudiy an’anaviy janrlarda ijod qilgan bo‘lsa ham, uning qasidalarida madh kam uchraydi. U ko‘proq vasf, faxr, g‘azal, xamriyot, hamasa janrlarini afzal ko‘radi. Uning she’rlarida shaxsiy hayotiy kechinmalar yaqqol namoyon bo‘ladi.

Qatnashgan jangu jadallari, jang oldidan mavhum fikrlar, dahshatli sokinlik hukm surishi, isyon avji, magʻlubiyat, surgunlik, vatanni qoʻmsash kabi boshidan kechirgan voqealar va hodisalar oʻz aksini topgan.

Al-Barudiy sheʼriyatida tabiat vasfi, qishloqdagi falohlarning hayoti, Misr yodgorliklari tavsifi koʻp oʻrin tutadi. Siyosiy va ijtimoiy lirikani tiklagan shoir, eski janrlarda ijod qilib, ularni oʻz zamonasi, shaxsiy hayoti bilan bogʻladi. U qoʻllagan obrazlari orqali kitobxon darhol shoirning kayfiyatini anglab oladi. Shoir oʻquvchi oldida goʻyo moʻyqalam bilan chizgan manzaralarini jonlantirgan rassomdek gavdalanadi.

Vasf janrida yozilgan asarlardan tashqari al-Barudiy “hijo”, “nasib”, “faxr”, “hamasa”, “riso” kabi anʼanaviy janrlarda ham ijod qildi. Uning bir qasidasida bir nechta janrlar mujassamlashgan boʻlar edi. Bu borada al-Barudiy, al-Mutanabbiy, al-Buxturiy, Abu Tammomlarning munosib vorisi boʻlib sheʼr maydoniga chiqdi. Ularning sheʼriyati mazmunidan, usullaridan, tasviriy vositalaridan, obrazlaridan keng foydalandi, iqtibos qildi, qofiya va vazn tanlashda ularga ergashdi. Ayni paytda ijodiy yondashib, anʼanaviy obrazlarga oʻzi ham yangicha sayqal berdi, oʻziga xos ixtirolar qildi, sheʼriy shakllarni boyitdi. Soʻz boyligida, misralar goʻzalligida mumtoz sheʼriyatdan qolishmaganligini bilgan shoir bu toʻgʻrisida faxr bilan shunday deydi:

Sheʼriyat bizga boʻysundi, boʻstoni bermoqda meva,

Xohlasak yetarmiz Jarval kamolotiga

Tavba va Jamil husni kalomi bizga ham qildi nasib.

Jarval, Tavba va Jamil mashhur badaviy shoirlar boʻlib, arab sheʼriyatida asarlarining badiiy qimmatini bilan ajralib turadi.

Arab adabiyotshunoslari al-Barudiyni adabiy yuksalish boshida turgan adiblardan hisoblashadi. Masalan, ad-Dasuqiyning aytishicha, al-Barudiyning ijodi toʻgʻri maʼnoda yangilanish boʻlmasa-da, oʻlim toʻshagida yotgan arab sheʼriyatini qaytadan tiriltirib jon bagʻishladi, kafanlarini yirtib tashlab uloqtirdi. Shuning uchun ham al-Barudiyning ijodi umumiy maʼnoda yangilanish sheʼriyati hisoblanadi.

Shavqiyning katta tugʻma isteʼdodi va nozik didi mumtoz sheʼriyat xazinasidan, yorqin obrazlardan, rang-barang tasviriy vositalardan, tashbihu tavsiflardan, majozu istioralardan, tajnisu tashxislardan, kinoya-yu mubolagʻalardan samarali istifoda qilinishiga yoʻl ochdi. U madhiya yozishda X asrning mashhur madhiyanavisi al-Mutanabbiydan qolishmasdi, ammo bu sheʼrlarda hali shaxsiy hissiyot va lirik kechinmalar yetishmasdi. Shoirning bu asarlarida ichki hayajon va dildan chiqqan tuygʻular tiniqligi sezilmas edi. Bu davrda yozilgan sheʼrlari toʻgʻrisida taniqli adabiyotshunos Marun Abbud shunday degan edi: “Shavqiyning sheʼrlarini oʻqib turib baʼzi bir yangi iboralarga duch kelasam, lekin ularning koʻpchiligi qadimgi shoirlar xazinasidan olib ishlatilgan. Ular Luksor maqbaralaridagi arxeologlar topib olgan buyumlarni eslatadi”.

Shavqiyning bu davrda yozilgan asarlarining tili murakkab va jimjimador boʻlganligi uchun oddiy kitobxon ularni tushunishi qiyinligini nazarda tutib,

to'plamlarini sharhlar va tafsirlar bilan ta'minlagan edi. Masalan, 1898 yil nashr etilgan "Shavqiyot" (Shavqiy devoni) shular jumlasidandir.

Shavqiy hayoti oxirigacha "amir ash-shuaro" degan nufuzli unvonni saqlab qoldi va butun arab dunyosining hurmatiga sazovor bo'ldi. Chunki shoir hayotining oxirgi damlarigacha atrofidagi hodisalarga loqayd bo'lmasdan, arab olami muammolari, Sharq xalqlari muammolari bilan yashadi, insonparvarlikni tarannum etgan jo'shqin she'rlari bilan bu muammolarga o'z munosabatini bildirdi:

Xofiz ijodida biz an'anaviy hikma, xamriyot, ixvoniyyot kabi janrlarda yozilgan qasidalarni ko'proq uchratamiz.

Xalil Mutron yangi janr, she'riy hikoya janrini kiritdi va bu borada voqelikka yaqin bo'lish tarafdori edi. U she'r tilining badiiy qimmatiga o'ta talabchan edi. Tabiatni tasvirlashda esa o'ziga xos yangi tizim yaratdi. Bunday tasvirni arab tanqidchilari "al-vasf al-viddaniy", ya'ni vijdon hissiyoti, vasfi deb atashadi. Uning "Yig'layotgan sher", "Oqshom" qasidaları shunday asarlar jumlasidandir.

Azaldan an'analarga sodiq bo'lib kelayotgan Iroq she'riyatida endi xalq jonli tiliga yaqinlashish, uslubni soddalashtirish tamoyillari kuchaydi hamda inqilobiy ko'tarinkilik xususiyatlari paydo bo'ldi.

Az-Zahaviyning 1929 yilda yozgan "Jahannamdagi inqilob" qasidasi butun arab dunyosida shuhrat topdi. Qasida ruhiga, unda ko'tarilgan mavzuga, ishlatilgan badiiy-ifodaviy obrazlarga, shubhasiz, o'rta asrning buyuk mutafakkir shoiri Abu-l-Alo al-Maarriyning (973-1057) "Risalat-al-g'ufra" ("Kechirimlik risolasi") nomli mashhur qasidasi ta'sir ko'rsatgani yaqqol sezilib turadi. Az-Zahaviy bu qasidasida al-Maarriy kabi o'zi ham asarning bosh qahramoniga aylanib jahannamga shayton kirdikorlari oqibatda tushgan barcha xalqlarning va millatlarning buyuk shoirlari, faylasuflari, adiblari va boshqa ziyolilariga bosh bo'lib isyon ko'taradi. Isyonkorlar jannatga qarab yo'l olishganda, malaklar ularning yo'lini to'sadi. Oqibatda ikki tomon o'rtasida jang bo'lib o'tadi. Jahannamda behuda azoblangan ziyolilar g'alaba qilib jannatni egallashadi. Jannatga nohaq kirib olgan tovlamachilar esa haydalib jahannamdan o'zlariga munosib joylarini egallashadi. Albatta, bu qasida ramziy ma'noni ifodalab ijtimoiy adolatsizlikka qarshi qaratilgan edi va bu fikr mavzuning o'zidan ayon bo'lib turar edi. Shunga qaramasdan az-Zahaviy podshoh Faysal va uning yaqinlari tomonidan dahriylikda, hatto kofirlikda ayblanib, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy hayotidan chetlatildi. Az-Zahaviy 1934 yilda Eronga ketadi va ikki yildan so'ng o'sha yerda vafot etadi.

Az-Zahaviyning ijodiga qaytsak, uning she'rlari ko'proq ro'znomalar va jurnallarda nashr etilib, juda kam qismi to'plamlar shaklida chop etilgan. "Nazmga solingan so'z" nomli birinchi to'plami bosilganidan o'n besh yil o'tgach, 1924 yilda ikkinchi to'plami "Az-Zahaviy ruboiylari" Bayrutda nashr etildi. Shu yilning o'zida Kohirada uning "Az-Zahaviy devoni" va 1928 yili Bag'dodda "Yuraklar" nomli tanlangan asarlaridan tuzilgan majmua chop etildi.

Az-Zahaviyning ayrim katta hajmdagi qasidalari, yuqorida aytilganidek, ro'zнома va jurnallarda e'lon qilingan edi. Ularning ichida Iroqda ro'y bergan falokatli suv toshqini to'g'risidai "Dehqon fojeasi", "Bahor va kuz" hamda mazkur "Jahannamdagi isyon" qasidalari bor.

Az-Zahaviyning she'rlarini tahlil etar ekanmiz, uning qanchalik she'riyatga bo'lgan nazariy qarashlari amalda tatbiq etilganligiga shohid bo'lamiz. Shoirning fikricha, yangi she'riyat siyqasi chiqqan hamda mohiyatini yo'qotgan an'analardan voz kechib, zamonaviy badiiyat qonunlariga buysunishi lozim. Bu borada az-Zahaviy she'riyatda jonli xalq tilini ko'proq ishlatilishi, yuqorida ko'rsatganimizdek, bitta asar tizimida yagona qofiyaga amal qilmasdan turli qofiyalarni ishlatishi, hatto oq she'rga o'tish tarafdori edi. She'r vaznlarida ham faqat Xalil ibn Ahmad aniqlagan aruz vaznlari bilan kifoyalanmasdan, boshqa vaznlarni ishlatish mumkinligini qayd qilib, o'z ijodida namoyish etgan edi.

Az-Zahaviy arab she'riyatiga xos ba'zi bir janrlardan voz kechdi. Masalan, "madhiya" kabi ko'p ishlatiladigan an'anaviy janrdan u butunlay foydalanmadi. Uning fikricha, bunday janrlar oldindan aniq bo'lgan mazmunni o'zida ifodalab, ma'lum janr qolipida yozilgan she'r har qanday holatda ham sun'iy hissiyotni aks ettiradi. Vaholanki, she'r erkin ijodning mahsuli bo'lib, faqat ilhom bilan tug'ilgan his-tuyg'ularni ifodalashi lozim.

Shoirning o'zi ko'proq falsafiy (ash-shahaqat) yoki voqeaband epik (hadis shujun), yurak nolalari (anin al-majruh), vatanparvarlik (vahi ad-damir) mavzularidagi she'rlarni yaratar edi. Xotin-qizlar masalasi ham (al-mar'a) uning ijodida ko'p o'rin egallaydi. She'rlarining tili ravon, jo'shqin kechinmalar bilan to'lib-toshgan bo'lib, ko'pincha, ularga ma'yuslik kayfiyati xos edi. Bu xususiyat, ayniqsa, uning "Jon berayotgan musofir", "Alla qo'shig'i", "Qizi qabri ustida" kabi she'rlariga xos.

Ma'ruf ar-Rusafiy yangi arab she'riyatida "ijtimoiy maktab" asoschisi hisoblanadi. Uning she'rlari turli yo'nalishda: lirik-falsafiy, ijtimoiy-tanqidiy va boshqalar. Shoirning epik she'rlari, asosan, vaf janrlarida yozilgan, shuning bilan birga shoir "faxr", "riso" va boshqa janrlarda ham ijod qilgan. Ar-Rusafiy ezilgan va mazlum xalq hayotini aks ettirib, katta badiiy ta'sirchanlikka erishdi. Ijtimoiy mavzuga bag'ishlangan eng yaxshi asarlari "Etimning onasi" va "Etim bayramda" she'rlaridir. Ar-Rusafiy she'rlariga yoqimli musiqiy ohangdorlik mansubdir. Ularda shoirning ehtirosi, serzavq, jo'shqin yurak urushi aks etgan. Bu sifatlar uning she'riyatini boshqalarnikidan ajratib turadi.

Nazorat topshiriqlari:

1. Mahmud Salim al-Barudiy she'rlarida shaxsiyat ifodasini toping.
2. Yangi mumtoz shoirlar uslubida qadimgi uslublar jihatlarini toping.
3. Qasidalar shakli Yangi ijtimoiy-siyosiy mavzularga mosligi yoki mos emasligini aniqlang.
4. An'anaviy qasida yangi mumtoz shoirlar ijodida poetika jihatdan qanchalik rivojlanganini aniqlang.
5. Misr va Sharq yangi mumtoz she'riyati poetikasida o'xshash va fikrli tamoyillarini ko'rsatib o'ting.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Sharq poetika maktabining shakllanishi va manbalari.
2. "Ilm al-badi'" san'atining ifodaviy-tasviriy vositalari bilan bog'liqligi.
3. Abu-l- Faraj Udama ibn Ja'far (888-948)ning poetik fazilatlarini.

4. “*Tarixiy poetika*”.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xo‘jayeva R.U. Yangi davr arab adabiyoti tarixi. –T., 2004.
2. Xodjayeva R.U. Yangi davr arab adabiyoti tarixida ma’rifatparvarlik jarayoni. – T, 1999.
3. Krachkovskiy I.Yu. Izb. Soch. – T.3., M-L., 1956.
4. Murod Naima. Adabiyotda o‘qish va izlanish masalalari. –Qohira, 1996 (arab tilida).

Qo‘shimcha adabiyotlar:

1. Dolinina A.A. Ocherki istorii arabskoy literaturi novogo vremeni. Yegipet i Siriya. Publisistika. 1968.
2. Dolinina A.A. Ocherki istorii arabskoy literaturi novogo vremeni. Prosvetitel'skiy roman.1870-1914. –M., 1973.
3. Krimskiy A.E. Istoriya novoy arabskoy literaturi. –M., 1971.

MA'RUZA №15. ARAB ADABIYOTIDA ROMANTIZM (AL-ITTIJAH AL-VIJDANIY) YO'NALISHINI POETIKASI.

Darsning maqsadi: arab adabiyotida yangilanish jarayoni ko'rsatilgan hamda badiiy tafakkurni tubdan o'zgarganligi, klassisizm an'alariga qarshi kurashda o'ziga xos yangi poetikasi shakllanishini o'rganish.

Tayanch iboralar:

Al-ittijah al-vijdani, Suriya-Amerika adabiy maktab, tasavvuf, g'arb romantizmi, muhojir adiblar, esse, saj' san'ati, she'r al-mansur.

Nazorat savollari:

1. Nega "al-ittijah al-vijdani" oqimi" an'anaviy adabiyot bilan kurashda shakllandi?
2. Arab romantizmi va tasavvurni nima birlashtiradi?
3. Arab romantizmi g'arb romantizmdan qaysi jihatdan ajraladi?
4. Romantizm poetikasi nimadan iborat?
5. Suriya-Amerika maktabi vakillari qaysi yangi janrlarni arab adabiyotiga kiritdi.

Natijada arab adabiyotida XX asr boshlarida yangi «arab romantizmi» yoki «al-ittijah al-vijdaniy» («viydon yo'nalishi») nomi bilan tanilgan yo'nalish vujudga keldi. Misrlik yosh romantik shoirlar o'z tamoyillarini va prinsiplarini an'anaviy she'r tarafdorlari bilan murosasiz kurashda ta'kidlab, «Devon» maktabiga oid «she'r al-vijdan» oqimi shoirlari sifatida tanildilar. Amerikadagi ularning maslakdoshlari bu kurashni uzoqdan turib diqqat bilan kuzatishdi, o'z adabiy maqolalarida va esselarida ularga madad qo'lini cho'zishdi. Shunday qilib XX asr boshida shakllangan arab romantizmi ikki omilga – G'arb romantizmiga hamda hali yaxshi istifoda qilinmagan milliy merosdan tasavvufga tayandi. Arab romantiklari o'zlari uchun tasavvuf adabiyoti badiiyatini kashf etdilar va undan keng foydalandilar. Bu tamoyil, ayniqsa, she'riyatda bilinib, so'fiyona kayfiyat poklanish va zohidlikni targ'ib qilishda, misoliy yor va fanoni kuylashda namoyon bo'ldi.

Zamonaviy janr yaratishga ham Suriya-Amerika maktabining namoyandalari katta hissa qo'shdilar. Ular arab adabiyotiga kirib kelgan yangi roman, hikoya, qissa janrlarini rivojlantirish bilan birga hali iste'molda bo'lmagan esse va nasriy she'r kabi janrlardan keng foydalandilar.

Esse biror adabiy, ijtimoiy, falsafiy yoki boshqa muammolar atrofida yuritilgan muallifning erkin fikrini ifodalovchi asar bo'lsa, nasriy she'r ko'tarinki ruhga va ma'lum ichki ifodaviy ohangga ega bo'lgan badiiy janr namunasidir. Arab adiblari bu janrda ko'proq saj' – qofiyalangan nasrni qo'llaganlar.

Bir tomondan, Suriya-Amerika muhojir adiblari, ikkinchi tomondan, Misrdagi «Devon» shoirlari tamal toshini qo'ygan romantik yo'nalish "al-ittijah al-vijdaniy" Misr, Suriya, Tunis, Lubnon, Sudan adabiyotida, ayniqsa, she'riyatida keng rivoj topdi va hatto ikkinchi jahon urushigacha o'z ahamiyatini yo'qotmadi. Buning boisi shundaki, bu yo'nalish faqat adabiy yo'nalish bo'lib qolmasdan, balki falsafiy tus olib, muayyan hayot falsafasini o'zida mujassamlashtirgan edi. Bu yo'nalishni to'la ravishda «an-Nahda» harakatining yana bir samarasi deb hisoblash bo'ladi,

chunki ayni shu davrda ma'naviy izlanishlarga va yangi badiiy ongning shakllanishiga tarixiy zaruriy ehtiyoj tug'ildi. Dastlab ma'rifatparvarlik jarayoni ichida vujudga kelgan «al-ittijah al-vijdaniy» yo'nalishi ijodiy kuchga to'lgandan so'ng o'z qiyofasiga ega bo'ldi va ma'rifatparvarlik adabiyoti chegarasidan o'tib, o'zining ijodiy tamoyillarini o'rta surdi.

Bu ijodiy tamoyillardan eng asosiysi insonni ommadan ajratib, alohida shaxs sifatida namoyon qilish, uning ichki dunyosiga, his tuyg'ulariga e'tibor berib, dunyoqarashini, huquqini, erkinligini e'zozlashdir.

Yana bir tamoyil shundan iborat ediki, dastlab aqidaparastlikka, dinlarni qarama-qarshi qo'yishga qarshi chiqqan arab romantizmi ma'naviyatni eng oliy qadriyat deb tushunardi, uning yuksalishini, adabiyot va san'at rivojini hayotni yaxshilikka o'zgartiruvchi asosiy omillardan deb bilar edi.

Arab romantiklari o'zlari yashagan turmushdan norozi bo'lib, boshqa bir misoliy olam yaratishga intilar edilar va bu kamolotga to'la olamning ehsonlarini kuylab, boshqalarni unga yetishishga undardilar. Odatda asarlarining qahramonlari oddiy kishilardan juda farq qilib, ajralgan holda ommadan yuqori turishar edi, ularda avliyolar sifatleri bo'lganligi uchun oddiy turmush tarzi bilan qanoatlanmasdan ezgulik olamiga intilishar edi. Ko'pincha, adiblar o'z romantik qahramonlari orqali o'z mafkuralari, dunyoqarashlarini ifoda etdilar. Romantik adiblar ijodida shoir yoki yozuvchining lirik obrazi alohida o'rin egallaydi, chunki ular bashorat qilish qobiliyatiga ega. Ularning fikricha, adib hayot sirlarining tubigacha yetib boradi, inson taqdirini o'zgartirishga intiladi, ma'rifat nurini sochadi. Lekin omma uni tushunmaydi, undan yuz o'giradi. Adib bundan iztirob chekib yolg'izlikda, g'urbatda qolib ketadi. Shu hazin kezlarda u o'z ijodidan taskin topadi, poklikni, muvozanatni saqlab qolgan tabiat quchog'iga otiladi, asarlarida baxtli bolalik yillarini eslab, ularni qo'msaydi. Bolalik-soflik, poklik davri, soadat mamlakati, ezgu orzular dunyosi bo'lib, gunohlarga cho'mgan yoki orzular paymol bo'lgan kattalar dunyosi unga zid.

Romantiklar tushunchasida azob-uqubatlardan o'tgan insongina haqiqiy poklanadi. Baxtli, farovon hayotda yashagan odam boshqalarning g'am-alamini his qila olmaydi, loqayd shaxsga aylanadi. Romantik adiblarda aql bilan hissiyot doimo qarama-qarshilikda yuradi. Aql sovuqqonlik bilan ish tutadi, qalb iztirobidan tug'ilgan hissiyot hayajonga beriladi. Aql faoliyatini hurmat qilgan romantiklar qalbning hissiyot olamini ham ardoqlaydilar.

Bu adiblar yuksak muhabbat shaydosi edilar. Ayol ular uchun samoviy ma'shuqa, ilhom parisi, go'zallik timsoli. Ayolga pok yuksak muhabbat izhor qilishda arab romantiklari ilk islom davrida yashagan badaviy shoirlar Qays ibn al-Mulyauvax (Majnun), Jamil ibn Maamar va Qays ibn Zarixlardan ilhom oladilar. O'rta asrlarda rivojlangan tasavvuf she'riyati bu shoirlar poetikasidan ko'p istifoda qilgan edi.

Hozirgi zamon adiblari bu adabiyotga xos boy obrazlar xazinasidan, badiiyatidan, uslubidan samarali foydalanib kelmoqdalar. Romantizm umumadabiyot miqdorida ijodiy metod sifatida tugallangan bo'lsa ham hanuzgacha badiiy ahamiyatini yo'qotmaganligi to'g'risida uni alohida olgan adib ijodida yoki to'la bir adabiy qatlam asarlarida takror namoyish bo'lishidan dalolat

beradi. Masalan, Saudiya Arabistonining zamonaviy eng mashhur shoirlaridan «Makka shoiri» taxallusi bilan tanilgan Muhammad Hasan Fiqqiy shu romantizm estetikasi hududida ijod qilib kelmoqda.

Ma'lumki, har bir ijodiy uslub yuzaga kelishi uchun adabiyotning muayyan bosqichida uning badiiy xususiyatlariga, asosiy vositalariga va ijodiy tamoyillariga tarixiy ehtiyoj tug'iladi.

Dastlabki davrdan turg'unlikka, siyqasi chiqqan aqidaparastlikka, andoza va qoliplarga qarshi chiqqan romantizm tor voqelikdan qanoatlanmasdan «barkamollik olamiga» intiladi, tor ma'nodagi hayot tushunchalaridan «mutlaq haqiqatga, go'zallikka, adolatga, muhabbatga» yetishishga undaydi va shu yo'lda uslubiy izlanishlarni talab qiladi. Shuning uchun ham romantizm yangi davrda rivoj topgan turli adabiy izlanishlarga va badiiy shakllarga baquvvat manba va asos sifatida xizmat qiladi, chunki u bir vaqtning o'zida realizm, ramziylik va modernizm tamoyillarini mujassamlashtirgan edi.

Shunday qilib bir tomondan, Suriya-Amerika muhojir adiblari, ikkinchi tomondan, Misr shoirlari bir paytda ta'sis etgan romantik yunalish arab adabiyotiga talay yangi mavzular, yangi tasvir vositalarini olib kirdi. Mana shu barcha xususiyatlarni u yoki bu holda namoyon bo'lishini Jubron Xalil Jubron ijodida ko'ramiz.

Suriya-Amerika maktabini yorqin namoyandalari Jubronning ijodiy faoliyati o'zida Sharq va G'arb madaniyatini mujassamlashtirgani, chinakam insonparvarligi va erksevarligi bilan ajralib turadi. Milliy meros, xalqning ma'naviy-madaniyatiga bo'lgan katta qiziqish yangilatish tamoyillari bilan bog'lanib ketgan. U arab adabiyotiga yangi janrlar - esse, nasriy she'rlar kiritishi bilan birga an'anaviy qadimgi shakllarga ham romantizm poetikasini mosladi. Lubnon xalqi og'zaki ijodining namunalarini qayta ishlab chiqib, ularga adabiy ishlov berdi. O'rta asrlar hikoyatlaridan keng foydalanib, ularning syujeti va obrazlari asosida ajo-yib adabiy lavhalar yaratdi («Tulki», «Dono podshoh» va boshqalar). Jubronning nodir iste'dodi nasriy she'rlari, esse, masal, maqol, hikmatlari va hikoyalarda o'zining to'la ifodasini topdi.

Jubronni «Lubnon ramzi» deb atashlarining boisi shundaki, u butun hayoti bo'ylab o'z vatanini ozod, gullagan, baxtli bo'lishini orzu qildi, bu yo'lda xizmat qildi. Hozirgi lubnonliklar uchun ham uning nomi jasorat va ruhiy qat'iylik ramzidir. Shu bilan birga adib o'z asarlarida chuqur hissiyot va sezgirlik bilan ko'targan muammolari hozirgi kunda ham bashariyat uchun dolzarbdir.

Ar-Rayhoniyni yo'l xotiralari arab adabiyotida o'rta asrlarda vujudga kelgan «rihla» («safarnoma») janriga yaqin turadi. Bu janrdagi asarlar aniq qoidalarga bo'ysunmagan holda adib bo'lmasa ham qalam sohibi bo'lgan sayohatchilar tomonidan erkin shaklda yozilib, o'ziga xos badiiy jozibaga ega bo'lar edi. Ar-Rayhoniyy esa voqeiy tasvirlarini rang-barang his-tuyg'ular, kechinmalar, lirik chekinishlar, o'ylar bilan boyitdi.

Ar-Rayhoniyy asarlari til va uslub jihatidan rang-barang. Kitobxon oldida ajoyib, jilvador olam namoyon bo'ladi. Bu olamga olib kiruvchi muallif esa nozik didli, ko'p mulohazali, yengil hajvga mayl qo'ygan ajoyib suhbatdosh sifatida gavdalanadi. Uning uslubi zamondoshlari uslubidan tubdan farq etuvchi, faqat o'ziga xos xususiyatlarga boy uslubdir. Buning bosh sababini tadqiqotchilar, mantiqqa to'g'ri kelmasa ham ar-Rayhoniyni arab adabiy tiliga va mumtoz adabiyotga yoshligidan emas, balki ulg'ayib, mustaqil fikrga va ongga ega bo'lganidan keyin yondashganligida ko'radilar. Ar-Rayhoniyy hech kimga taqlid qilmasdan va an'anaviy hududlarni buzishdan cho'chimasdan mumtoz so'z san'ati – balog'at xazinasidan o'z ixtiyoricha foydalandi va har xil ifodaviy-tasviriy

vositlarni qo‘llashda ixtirolar qildi. Uning original uslubi ko‘plarni maftun qildi, kimlarnidir ranjitdi. Umuman olganda, ar-Rayhoniylar an’anaviy badiiy tafakkur doirasidan chiqib, ko‘hna olamga yangicha yondashganining o‘zi diqqatga sazovordir.

Ar-Rayhoniylar balog‘at usullaridan sajb san’atini qo‘llab, tovushlarning mos kelishiga alohida ahamiyat berar edi. Hikoya matni jilosida fikrning tekis va sokin ketishini birdan keskinlashgan kinoyali yoki hazil-mutoyibali qit’alar buzganda, yozuvchi o‘sha joyga kitobxon diqqatini jalb etish uchun bu usulni alohida ishlatilganligi ma’lum bo‘ladi. Uslubda ijodiy erkinlikni targ‘ib etgan ar-Rayxoniylar do‘sti Xalil Jubron bilan birga arab adabiyotiga esse janrini kiritdi. Ar-Rayhoniylarning deyarli hamma kichik nasriy asarlari shu janrda yozilgan bo‘lib, unda adib u yoki bu muammolar atrofida erkin fikr yurgizdi, unga o‘z shaxsiy munosabatini bildiradi. O‘rta asrlar tubidan arab essesiga yaqinroq badiiy ijod qidirsak, uning negizlarini o‘sha davrda keng tarqalgan «risola» janrida uchratish mumkin.

Risola ham adabiy, falsafiy-axloqiy masalalarni erkin talqin qilishi bilan birga o‘zining tarkibiy va uslubiy jihatlari bilan ma’lum qoidalarga bo‘ysunadi. Ayni «risolalar» orqali o‘rta asr adiblari o‘z dunyoqarashlarini ifoda etib, ajoyib asarlar yaratganlar. Masalan, buyuk o‘rta asr adibi al-Maarriylarning «Risolatu-l-g‘ufron» – «Kechirimlik risola» yoki «Farishtalar haqida risola» kabi asarlari unga jahoniy shuhrat keltirgan risolalar namunasi bo‘la oladi. Shunday qilib «risola» janri yangi arab adabiyotida esse shaklida tiklandi va zamonaviy mazmun bilan to‘ldirildi.

She’riyat sohasida ham ar-Rayhoniylar o‘zini haqiqiy yangilik targ‘ibotchisi sifatida namoyon qildi. Uning she’riy ehtirosi she’riyat olamiga «she’r al-mansur» – («nasrlashgan she’r») turini kirgizish bilan bog‘liq. Yakka qofiyaga bo‘ysungan baytlar oqimini buzish, bandli she’r – strofikaga o‘tish kabi arab she’riyati tizimi chegarasidan chiqish bilan kifoyalanmasdan, balki o‘z fikrini izchil ifodalash uchun qulay deb topgan, tashqi ko‘rinishi bilan emas, balki ichki ohangi va ko‘tarin-kilik ruhi bilan nazm hisoblangan nasriy she’rga o‘tdi.

Albatta, bu she’riy izlanishlar an’anaviy aruz tizimiga ziyon yetkazmadi, balki she’riyat imkoniyatlarini kengaytirib, uning turli shakllarda javlon urishini yana bir bor isbotladi.

Ar-Rayhoniylar butun umr o‘z shiorlariga va izlanishlariga sodiq qolgan yozuvchilardandir. Hozirgi kundagi ziddiyatlar bilan to‘lib-toshgan arab dunyosida u ko‘targan muammolar o‘z ahamiyatini yo‘qotgan emas. U qalban insonning ma’naviy yuksalishiga ishonar va shu yuksalish yo‘lida hayot jumboqlarini yechish yo‘llarini izlar edi. Uning siymosida jasorat va samimiylik mujassamlashgan bo‘lsa, asarlarida esa chuqur falsafiy fikrlar va vatanparvarlik ruhi sezilib turardi.

Nazorat topshiriqlari:

1. Jubron va Amir ar Rayhoniylar obrazlarida romantizmga xos xususiyatlarini ajrating.
2. Esse poetikasini aniqlang.
3. Romantizm yozuvchilari ijodidan “she’r al-mansurga” oidini ajratib oling.
4. “She’r al-mansur” poetikasini ajrating.

Mustaqil ish mavzulari:

1. “She’r al-mansur” poetikasi
2. Suriya-Amerika maktabini yorqin namoyandalari

Asosiy adabiyotlar:

1. Xo‘jayeva R.U. Yangi davr arab adabiyoti tarixi. –T., 2004.
2. Arabskaya romanticheskaya proza. Predisloviya Dalininoy A.A. –L., 1981.
3. Ar-Reyxani Amin. Izb. –L.:Xudojestvennaya literatura, 1988.
4. Djubran Xalil Djubran. –L.: Xudojestvennaya literatura, 1986.
5. Jubran Xalil. Donishmand xikmatlari. –T., 2006.
6. Akbarova M.X. Yangi davr arab adabiyoti. –T., 2009.
7. Al-Qutt Abd al-Qodir. Al-ittijah al-vijdani fi-sh-shir al-arabi al-muashr. – Qohira, 1995.

Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Jubran Xalil Jubran. Dam’atu va ibtisamad. –Bayrut, 1990.
2. Ribdavi Maxmud Al-adab al-hadis. Damask. Suriya, 1981.
3. Muxtarov T.A., Xodjayeva R.U. Tradisiya i sovremennost (iz ichtorii arabskoy literaturi). –T., 1999.

MA'RUZA №16. ASH-SHI'R AL-VIJDAN POETIKASI

Darsning maqsadi: Misr va boshqa arab mamlakatlarida rivlj topgan ash-shi'r al-vijdani poetikasi bilan tanishtirish, uni shakllantirgan "Divan" va "Apollo" shoirlari qarashlari bilan tanishtirish.

Tayanch iboralar:

Ash-shi'r al-vijdani, "Divan" jamiyati, "Apollo" jamiyati, qasida, yakka qofiyalik, an'anaviy she'r, aruz bahlari.

Nazorat savollari:

1. Nega "Divan" shoirlari yangi mumtoz she'riyati namoyandalari ijodiga qarshi chiqdilar?
2. She'r al-vijdon poetikasi qaysi prinsiplarga asoslangan?
3. "Devon" va "Apollon" shoirlarining ijodi qaysi tomondan farq qiladi?

XX asr boshlarida Misr ijtimoiy-siyosiy hayotining rivojlanishi natijasida jamiyat ongidagi chuqur o'zgarishlar shaxsning ozodlikka, o'z dunyoqarashi va tafakkuriga ega bo'lishga intilishida hamda jamiyatda uning ijtimoiy rolini kuchayishida o'z ifodasini topdi. Jamiyatda shaxsga nisbatan qiziqishning o'sishi adabiyotda inson ichki dunyosiga, hissiyotlar va anduhlar bilan boy olamiga chuqur e'tibor bilan qarashga olib keldi. Inson hissiyot tajribasiga alohida e'tibor bilan qarash butun Misr badiiy adabiyotida XX asrning ikkinchi o'n yilligi oxirida to'liq namoyon bo'ldi va romantik tus oldi. Lekin nasrda romantik bosqich tez o'tib ketdi. Yangi g'oyaviy va estetik qadriyatlarni izlash jarayoni nasrda Misr yangi realistik maktabining shakllanishiga olib keldi. She'riyatda esa romantizm ruhi mustahkam qaror topdi va o'zini yangi badiiy tizim, ya'ni «she'r al-vijdan» deb e'lon qildi.

«She'r al-vijdan» yo'nalishi yangi arab adabiyotida dastlab hukmron bo'lgan an'anaviy mumtoz she'riyat estetikasi bilan kurash jarayonida shakllandi. Bu kurashga shoirlar Abd ar-Rahmon Shukriy (1886-1965), Abbos Mahmud al-Aqqad (1889-1969), Ibrohim al-Maziniy (1890-1949) boshchilik qildilar va ular an'anaviy badiiy ongda eskilik sarqitlarini ko'rib, unga o'zlarining yangi badiiy qadriyatlarni qarama-qarshi qo'ydilar. Shukriyning «Tong nuri» nomli birinchi to'plamida quyidagi bayt mavzusi yosh yozuvchilar ijodida shiorga aylangani yaqqol namoyon bo'ldi:

«A la ya taira-l firdavsi, inna-sh-she'ra vijdan?»

- Ey jannat qushi, she'riyat qalb hissiyotining ifodasi emasmi?

Hissiyotlar olamiga chuqur kirib borish yosh shoirlarning fikricha, insonning qadr-qimmati to'g'risidagi savolga javob izlashdir. Misr romantiklarining ikkinchi avlodi bo'lgan Ahmad Zaki Abu Shadi ta'kidlaganidek, bu xususiyat arab she'riyatining o'rta asrlar oxirlarida ijod qilgan shoirlar va zamonaviy mumtoz she'riyat taqlidchilari asarlarida juda kam uchraydi.

«Mujaddidlar» deb nom olgan yosh shoirlar zamondoshlari bo'lmish yangi mumtoz she'riyat vakillarini o'z asrlarida shaxsiy tajriba ko'rsata olmaganlikda, ular ijodida haqqoniy ilhomlanish o'rniga qadimgi shoirlarga taqlid borlikda aybladilar.

She'riyatni turli janrlarga bo'ladilar va ishqiy lirika, vasf deb aytadilar. Nahotki, she'riyat bilan qaynagan qalb hamma tuyg'u-hissiyotlarini bir joyga jamlab ifoda etaolmaydimi?

Yosh shoirning fikricha, yangi mumtoz qasida samimiylikdan yiroq edi. Ayniqsa, hodisalarga atab yaratilgan «ijtimoiy she'r» deb nomlangan qasidalar «yangi maktab, bank qurilishi yoki yong'in munosabati bilan yaratilgan asarlar»dir. Shukriy bunday munosabatni inkor etadi, chunki uning uchun shoirning munosabati hissiyotlar dunyosi, qalb tug'yoni orqali namoyon bo'-ladi. Shukriy devonining uchinchi qismida «hayot eng yaxshi qasida» deyilib, hayotni hissiyotlar va xayollar orqali bilishni nazarda tutdi.

Shunday qilib asr boshida Misr she'riyatida shaxsiyat mavzusi va uning ichki hissiyotlar dunyosiga e'tibor paydo bo'ldi. Misr yosh shoirlari yangi mezon va qiymatlarni Yevropa tajribasidan izladilar, ammo Yevropa madaniyatiga murojaat qilish taqlid emas, balki boshqa badiiy tizimlar bilan tanishish ehtiyoji edi. Shuning uchun Misr shoirlarining Yevropa adabiyoti bilan aloqasi Misr she'riyatida «she'r al-vijdan» yo'nali-shining paydo bo'lishiga sabab bo'lgan yana bir omil hisoblanadi. Misr shoirlari nafaqat badiiy ijod bilan, balki ingliz romantizmining estetik g'oyalari, ayniqsa, mashhur ingliz shoiri Shellining (1792-1822) «She'riyat himoyasi» nomli risolasi va ingliz publisisti va adabiyot tarixchisi Uilyam Xezlitt (1778-1830) adabiy tanqidiy asarlari bilan ham yaxshi tanish edilar. Misr yosh shoirlari asosan ingliz tilida o'qirdilar, shuning bilan birga XIX asrning oxirlarida sharq adiblarining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan fransuz adabiyotini ham yaxshi bilar edilar. Shuningdek, nemis, italyan, rus, ispan, qadimgi yunon va rim adabiyotlaridan ham ular ingliz tarjimalari orqali xabardor edilar.

Al-Aqqad o'z maktabining estetik asoslari haqida shunday dedi: «Balkim biz ingliz tanqidchilaridan ingliz she'riyatiga nisbatan ko'proq foyda olgandirmiz. Men Xezelett maktabini tanqid sohasidagi maktablarning eng ahamiyatlisi deb aytsam adashmagan bo'laman. U adabiy maktablarga she'riyat va san'atini to'g'ri tushunchasini o'rgatdi, lekin Misr maktabi ingliz maktabiga taqlid qilmaydi, balki undan faqat foydalanadi».

«Devon» tanqidiy asarlarida yosh shoirlar Ahmad Shavqiy va Hofiz Ibrohimni keskin tanqid ostiga oldilar, o'zlarini ularga ijtimoiy tomondan ham qarama-qarshi qo'ydilar. Katta yoshdagi shoirlarni boy qatlamlar namoyandalari deb hisoblab, o'zlarini endi tug'ilib kelayotgan yangi avlod vakillari deb tanitdilar. Yosh shoirlar eski avlod vakillarini loqaydlikda, «zamon bilan birga qadam tashlamaslikda», «ma'naviy qashshoqlikda» aybladilar. Shunday qilib «Devon» shoirlarining kurashi sof adabiy qolipdan chiqib, ijtimoiy tus oldi.

Al-Aqqad Shavqiyning milliy-ozodlik harakatining ko'zga ko'ringan siyosiy arboblarining vafotiga bag'ishlab yozgan marsiyasini tahlil qiladi va keskin tanqid ostiga oladi. Al-Aqqad Shavqiyni yigirma yil oldingi fikrlash usullari hududidan hanuz chiqmaganlikda ayblaydi. U davrda shoirlar e'tiborida she'rning jarangdorligi, qofiyadosh so'zlarning to'g'ri tanlanganligi, musiqiy ohangdorligi turardi. Al-Aqqadning fikricha, bu sifatlarning barchasi Shavqiy marsiyasiga xos va u haqiqatdan ham adabiyot rivoji uchun bor she'riy tajribasini sarflagan. Ammo

unda marhum shaxsiyatining o‘zi yo‘q, u hammaga tanish siyqasi chiqqan so‘zlar bilan ta’rif etilgan.

Al-Aqqad she’riyat tilining jarangdorligiga yangi mumtoz shoirlari ahamiyat berganchalik qaramaydi. Chunki u aniq ishonadiki, umuminsoniy qadriyat jo bo‘lgan she’riyat o‘zining mohiyatini, hattoki o‘zga tilga tarjima qilganda ham yo‘qotmaydi. Al-Aqqad Shavqiyning «Vafd partiyasi vakillarini kutib olish» nomli yana bir qasidasini tanqid qilib turib shunday deydi: «An’anaga tayanuvchi shoirlarning she’rlari asarning mohiyati va hayotiyliigi o‘rtasida vujudga keluvchi aloqalar bilan emas, balki o‘zaro so‘zlar, qofiyalar orqali bog‘lanadi».

unda asl mavzudan tashqari faqat an’anaga rioya qilib qo‘shilgan qismlarni tanqid qiladi.

Yangi arab badiiy ongi shu xildagi an’analarga qarshi chiqdi. Shu munosabat bilan Amin ar-Rayhoniy o‘zining «Ey, shoirlar» essesida shunday deydi: «Sizlar o‘z she’rlaringizni «To‘xtanglar, yig‘laylik» va «Ey, sorbon» kabi siyqasi chiqqan iboralardan tozalanglar, axir siz hozir samolyotda uchyapsiz va yulduzlarga parvoz etishingiz mumkin». Haqiqatda an’anaviy she’riyatda o‘zining ma’naviy vazifasini yo‘qotgan umumiy bir xildagi jummalarni topish mumkin edi. «She’r al-vijdan» shoirlari uchun shaxsiy muammolar muqaddas bo‘lgan bir paytda yangi mumtoz shoirlari o‘z she’rlari orqali o‘z shaxsiyatini, o‘z ichki dunyosini namoyish qilishni ehtiyoj deb bilmasdilar. Shuning uchun yosh shoirlar Shavqiyning she’rlarida o‘zlarining yangi badiiy ongiga tayanib «uning qalbini va «shaxsiyati»ni qidirib topolmay turganida, Shavqiy o‘zi uchun ularni namoyon etishni hattoki maqsad ham qilmagan. Chunki har bir yo‘nalish o‘z badiiy ongidan kelib chiqib o‘zga badiiy qadriyatlarga amal qilar edi.

Shuning uchun «eski she’riyatga» yangicha mezonlar bilan yondashish romantiklar uchun undagi bir nechta «nuqsonlarni» ajratishga imkon berdi. Bular orasida eng muhimi arab qasidasining uzviy bog‘lanmagan bir nechta qismlarga bo‘linishi, tilning jarangdorligiga alohida e’tibor berib, mazmunga putur yetkazish, voqelikka tashqi tomonlar asosida izoh berish, ya’ni yuzaki yondashish kabi nuqsonlari mavjud edi.

Bitta qasidani mustaqil nasib, vaf, madh, faxr, hajv va boshqa qismlarga bo‘linishi – romantiklar tomonidan an’anaviy qasidaga quyilgan eng asosiy ayblardan hisoblanadi. Har biri o‘zida tugallangan fikrni mujassamlashtirgan hamda har xil mavzularga qaratilgan, bir vaznga va bir qofiyaga bo‘ysungan baytlardan tashkil bo‘lgan bu qismlar, al-Aqqadning fikricha, bir butun yaxlit asar bo‘lolmaydi, chunki unda shoir fikri nur kabi har yoqqa sochiladi. Qasida bir butun tugallangan badiiy asar bo‘lishi uchun uning qismlari uzviy birlikda bo‘lishi kerak. Qasida, deb ta’kidlaydi al-Aqqad, har bir a’zosi o‘z o‘rniga ega bo‘lgan tirik tana. Uzviy birlik al-Aqqadning fikricha, yuksak she’riyatning eng asosiy sharti hisoblanadi.

Al-Aqqad tomonidan ilgari surilgan badiiy asarning juz’iy birlik masalasi XX asr boshida Xalil Mutron, A.Shukriy va boshqalar tomonida ko‘tarilgan arab she’riyatidagi eng muhim masala edi. Bu munozaralar natijasida arab qasidasi o‘zining ko‘p janrli tartibini yo‘qotdi va natijada an’anaviy tamoyillarga to‘la itoat etgan she’rlar bilan bir qatorda o‘zgacha lirik she’r paydo bo‘ldi.

Yangi mumtoz she'r namoyandalari qadim she'riyatga taqlid qilishni tabiiy hol deb qabul qildilar. «She'r al-vijdan» shoirlari uni nuqson deb hisobladilar. Shuning bilan birga ular zamonaviy, an'anaviy she'riyatga qarshi chiqa turib she'riy merosni inkor etmadilar, aksincha, «Devon» shoirlarining hammasi al-Maarriy, Ibn Rumi, al-Mutanabbiy kabi o'rta asrning mashhur shoirlari ijodini chuqur hurmat bilan tilga oldilar. «Devon» mualliflarining fikricha, islomgacha va ilk o'rta asrdagi arab she'riyati o'rta asr oxirlaridagi she'riyatda hukm surgan yasamachilik va soxtalikdan yiroq edi. Qadimgi shoirning fikrlashi uni o'rab turgan muhit bilan uzviy bog'liq edi va u soxta hissiyot hamda sun'iy izhorlardan xoli edi.

Shunday qilib «Devon» maktabi shoirlari, asosan, qasida kompozitsiyasining bo'linishiga olib keluvchi tartibga qarshi chiqdilar. Shuningdek, ular she'riyat tilida eski fikr yuritish bilan bog'liq siyqasi chiqqan an'anaviy ritorikadan voz kechishni, shaxsiyatning o'ziga xos ongini aks ettirishni tavsiya etdilar.

«Devon» shoirlari, shuningdek, o'z maktablarining shakllanishida ijtimoiy-tarixiy sharoitning mohiyatini yaxshi tan olishsalar ham, o'z asarlarida ijtimoiy muammolarni juda kam ko'targanlar.

Ularning adabiy nazariyasi Misr jamiyatida turli qarama-qarshi fikrlarning paydo bo'lishiga olib keldi. An'anaviy shoirlar tarafdorlari ularning konsepsiyasi milliy madaniyatga tajovuz qilishda va merosdan voz kechishga olib kelishda ayblandi.

Arab qasidasi janr jihatdan yaxlit asar bo'lmasdan, o'zida bir nechta janrlarni qamrab olishi arab she'riyatida katta epik asarlar, masalan, fors she'riyatidek, «Shohnoma» kabi epik asarlar yaratilmaganligiga asosiy sabab bo'lgan.

«Suriya-Amerika» maktabi vakillari, ayniqsa, M.Nuayme, XX asr boshidagi Misrdagi «she'r al-vijdan» vakillarining nazariyalarini yuksak baholadilar va uzoq Amerikada turib ularga nisbatan o'z ijobiy munosabatini bildirganlar. Bu ikkita maktab orqali arab adabiyotida «al-ittijah al-vijdaniy» yo'nalishi paydo bo'ldi.

Agar «Devon» shoirlari boshda zamondoshlari tomonidan qattiq tanqidga uchragan bo'lsa-da, keyinchalik Ahmad Abu Shadi boshchiligidagi 30 yillar avlod shoirlari, ularni yangi yo'nalish asoschilari sifatida tan oldilar va o'zlarini ularning davomchilari deb hisobladilar. Toha Husayn «Devon» maktabi vakillarining Misr adabiyotiga qo'shgan hissalarini to'g'risida «Muzokara va tanqid» kitobida quyidagicha yozadi: «Al-Aqqad va al-Maziniy she'riyat uchun yangi istiqbol va yangi ufqlar ochdilar. Ular qadimgi shoirlarga taqlid qilmaslikka chorladi. She'riyat o'quvchi va eshituvchilar oldida noma'lum qirralarini ochib, oldinga undashi kerak».

Muhammad Mandur, Ahmad Hasan Kamol Zaki, Umar ad-Dasuqi, Abd al-Aziz ad-Dasuki, Maxir Hasan Faxmi kabi arab tanqidchilarining fikricha, «Devon» shoirlari tufayli she'riyat tushunchasi o'zgardi va lirik shaklga ega bo'ldi. A.K.Zakiyning ta'kidlashicha «Devon» sababli «she'r al-vijdan» («hissiyot she'riyati») yoki «qalb she'riyati» sifatida o'rta qatlam shoirlari orasida keng tarqaldi.

«Devon» maktabining vakillari she'riyatda yangi romantik yo'nalishining keyingi rivojiga asos negiz bo'ldilar. An'anaviy she'riyat yo'nalishi davom etayotgan bo'lsa-da, Misr she'riyatida aruz qonunlaridan chetga chiqish jarayoni

boshlandi. An'anaviylikdan chekinish Misr shoirlari ijodida shaxsiy badiiy ong taraqqiyotida ham ko'rindi.

Al-Aqqad ijodini ikki bosqichga bo'lsak bo'ladi: ulardan birinchisida o'zining kayfiyati, hissiyoti, ko'ngil bo'yoqlari, bor ichki dunyosini she'rlarida to'kib solgan bo'lsa, so'nggi bosqichda u ko'proq chekkadan turib mushohada qilgan, o'zining xulosalari va mulohazalarini ifoda qilsa-da, lekin o'z ichki dunyosini aralashtirmagan shoir sifatida gavdalanadi. Bu she'rlarda ko'proq hajvga moyillik seziladi. Al-Aqqad hayotni ikki dunyoga bo'ladi: birida tashvishli real hayot, ikkinchisida yuksak misoliy va olijanob dunyo; u o'zini ikkinchi dunyoga mansub deb biladi. Birinchi dunyoni tasvir etishdan maqsad, uning qabih manzarasini berish, ikkinchi misolda dunyoning afzalliklarini ko'rsatish: (masalan: «Bizning dunyo», «Muhabbat ilmi» va boshqalari).

Shoir she'rlaridagi badiiy shakliga kelsak, u an'anaviy aruz vaznlaridan uzilmadi, ammo qofiyalarning turlanishiga da'vat etdi va o'z ijodida ko'p bo'lmasa ham bunga amal qildi. Hayot shuni ko'rsatdiki, yangilanish talablarini o'z she'rlariga tatbiq etish ancha murakkabroq chiqdi. Al-Aqqadning she'riyatdagi yangiligi she'rda so'z izchilligini barpo etish va qasidada bir-biri bilan bog'lanmagan qismlardan voz kechish, yaxlit she'riy lavha yaratish bo'ldi. Al-Aqqad insonning ichki dunyosiga alohida e'tibor berdi va zamonaviy lirik she'rlar yaratdi, ularga yangi mavzular olib kirdi.

Yuqorida ko'rsatganimizdek, yakka qofiyalilikni buzish holatlari bu shoirlarda ko'p uchramaydi. Al-Maziniy qofiya tizimida, asosan, an'anaviy yakka qofiyalikni saqlab kelgan. Ba'zi bir «muvashshah» shaklida yozilgan she'rlarida u strofikadan foydalanadi va unda har xil qofiyani qo'llaydi. Qofiyadan butunlay chetlashishni faqat oq she'r shaklida yozilgan («Onang qaerda?»- «Ayna ummuka») she'rda ko'ramiz.

Abd ar-Rahmon Shukriy esa, ko'proq, oq she'rga murojaat qilgan. Umar Dasuqiyning ta'kidlashicha, Shukriy oq she'rni («ash-shi'r al-mursal») ishlatgan birinchi shoirlardan edi. Biz ko'rib chiqqan qasidalarimiz «Ko'ngildan kelib chiqqan so'zlar» («Kalimat al-xavatir»), «Napoleon», «Misr qirg'og'i» («as-Saxil al-misriy») oq she'r shaklida yozilgandir.

Albatta, o'z ichki olamiga sho'ng'ib ketish jirkanch ijtimoiy hayotdan qochishning o'ziga xos yo'li bo'lib, voqelikni tasvir etishda faqat o'z shaxsiy sezgisi, tasavvuri, ongidan kelib chiqishi muqarrar edi, zero sub'ektiv shaxsiy hislarning jilvasi ob'ektiv hayotiy tasvirning o'rini bosdi, lekin boshqa tomondan, shu davrgacha arab adabiyotiga xos bo'lmagan o'zining shaxsiy ichki olamini har tomonlama anglab olishdan dalolat beradi. Demak, «Devon» shoirlari she'riyat sarhadlarini kengaytirdilar, ular Misr she'riyatida ichki kechinmalar lirikasining vujudga kelishi va taraqqiy etishiga turtki berdilar. Ularning she'riyatida har bir shaxsning o'ziga xosligini ko'rsatib berishga bo'lgan intilish yaqqol sezilib turadi. Ushbu maqsad yo'lida shoirlar barcha tasviriy-ifodaviy vositalar, ya'ni timsollar, so'z tuzilishi, tuyg'uning mantiqiy iplar orqali bog'lanishi, she'riy usullar, she'r ohanglarining rang-barangligidan foydalanadi. Al-Maziniy va Shukriy ko'ngilochar lirikani afzal ko'rganliklari uchun ularning ijodida voqeaband qasidalar juda kam.

Shuni ta'kidlab o'tish joizki, «Devon» shoirlari she'riyatda o'ziga xos so'zlardan she'riy lug'at yaratdilar, masalan: «Jamal (go'zallik), hulm (orzu), modi (o'tmish), fajr (tong), dumu (ko'z yoshlar), yas (ma'yuslik)» va hokazo. Ushbu she'riy so'zlarning har biri lirik an'ana bilan yo'g'rilgan. Ammo al-Maziniy kam qo'llaniladigan, eskirib muomaladan chiqqan arxaik so'z-lardan foydalanishni ma'qul ko'rgan. Shuning uchun uning «Devon»idagi aksariyat qasidalarida zamondoshiga notanish bo'lgan so'zlarga o'zi izoh berib o'tadi.

Al-Maziniydan farqli o'laroq, Shukriy she'rlari uslubining yengilligi va ko'rkamligi bilan ajralib turadi, bunda u eng oddiy so'zlardan foydalanadi. Shukriy shoirlarni arxaik so'zlarni ishlatmaslikka, kamdan-kam uchraydigan tushunarsiz iboralarni qo'llamaslikka, yangicha so'zlar o'ylab chiqarmaslikka chorlagan. Shukriy murakkab majozlar va chalg'ituvchi qiyoslashlarni haddan ortiq qo'llashga qarshi chiqqan. Uning ta'kidlashicha, yaxshi shoirlar har xil istiora, majoz va ramziylikni ishlatishni quruq maqsad qilmasdan, balki ular yordamida his-tuyg'ularni, ko'ngil daftari va haqiqatni yanada chuqurroq ifoda ettirib berish uchun tanlaydilar.

Shunday qilib «Devon» shoirlari Mahmud Abbos al-Aqqad, Ibrohim al-Maziniy va Abd ar-Rahmon Shukriylar o'z ijodlarida ko'p asrli qoloqlik va mustamlaka zulmidan qutulish yo'liga tushgan davlatdagi jamiyatning o'rta qatlamiga xos bo'lgan yangi ong, tafakkurni badiiy jihatdan tasvirlab berdilar. Yangi badiiy tafakkurning ma'naviy asoslari milliy an'analarga tayanib, Yevropa madaniyatiga qo'shilishdan iborat edi. Mumtoz she'riyatdan ular o'z hissiyotlarini kuylash, tabiatni jonlantirish, yuksak mukammallikka bo'lgan intilishni madh etish kabi xislatlarni o'rgangan bo'lishsa, Yevropa madaniyatidan romantizm estetikasiga xos shaxsiyatga bo'lgan katta qiziqish, uning shaxsiy kechinmalariga urg'u berish, san'at va adabiyotning rolini alohida ulug'lash kabi xislatlarga ergashdilar.

«Devon» shoirlari ijodida insonning o'zgaruvchan dunyoqarashi va uning voqelik bilan munosabatlari o'z aksini topgan. «Devon» shoirlarining marhamati bilan yangi arab she'riyatidagi mavzular ko'lamiga ancha kengaydi. Bu mavzular zamonaviy arab she'riyati uchun yangi bo'lsa-da, lekin jahon adabiyotiga tanish bo'lgan mavzular edi. Misr romantiklari o'zlariga xos falsafaga ega bo'ldilar va zamonaviy lirik she'riyatga asos soldilar. Ular she'riyatining tiliga kelsak, bu shoirlar arab she'riyatining an'anaviy qoidalaridan va tilidan voz kechmagan holda faqat o'zlariga xos chuqur va hayajonli ifodalarni ishlatdilar. Bu ifodalarda so'z sehri, so'z jozibasiga alohida o'rin berildi.

Yangi arab she'riyatida «devonchilar» asos solgan «she'r al-viddan» yo'nalishi “al ittijah al-viddaniy” nomi bilan butun arab dunyosida tanildi. Misrda uning ikkinchi bosqichi «Apollon» she'riy jamiyat faoliyati bilan bog'liq edi.

Nazorat topshiriqlari:

1. Al-Aqqad she'rlarida poetikani o'ziga xosligini ko'rsating.
2. Romantizmning ikki rejalgini romantizm shoirlarning asarlaridan toping.
3. Nega arab romantiklarni “fil suyagidan qurilgan minorada yashagan adiblar” deb atashganini izohlang.
4. Romantiklar she'riy lug'atni qanchalik o'zgartirganligini aniqlang.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Al-Aqqad she'rlarida poetikani o'ziga xosligini
2. «Devon» shoirlari ijodi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xo'jayeva R.U. Yangi davr arab adabiyoti tarixi. –T., 2004.
2. Arabskaya romanticheskaya proza. Predisloviya Dalininoy A.A. –L., 1981.
3. Ar-Reyxani Amin. Izb. –L.:Xudojestvennaya literatura, 1988.
4. Djubran Xalil Djubran. –L.: Xudojestvennaya literatura, 1986.
5. Jubran Xalil. Donishmand xikmatlari. –T., 2006.
6. Akbarova M.X. Yangi davr arab adabiyoti. –T., 2009.
7. Al-Qutt Abd al-Qodir. Al-ittijah al-vidani fi-sh-shir al-arabi al-muashr. – Qohira, 1995.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Jubran Xalil Jubran. Dam'atu va ibtisamad. –Bayrut, 1990.
2. Ribdavi Maxmud Al-adab al-hadis. Damask. Suriya, 1981.
3. Muxtarov T.A., Xodjayeva R.U. Tradisiya i sovremennost (iz ichtorii arabskoy literaturi). –T., 1999.

MA'RUZA №17. ARAB ADABIYOTIDA “YANGI SHE’R” OQIMI VA UNING POETIKASI

Darsning maqsadi: “Yangi she’r” oqimi bilan tanishtirish, uning shakllanish omillarini aniqlash, yangi poetikani eski poetikadan ajratish.

Tayanch iboralar:

Yangi she’r, al-qasida, al-jadida, badiiy tafakkur, ash-she’r xurr, ash-she’r at-tafa’ila.

Nazorat savollari:

1. Misr, Suriya, Livan, Iroq she’riyatida “yangi qasida” oqimini paydo bo‘lishi?
2. “Ash-shi’r al-xur” shakli va uning aruzdan farqini aniqlang.
3. Yangi she’r oqimi vakillarini qaysi G‘arb shoirlari ta’sir ko‘rsatgan?

Asrimizning o‘rtalariga kelib, arab dunyosida juda ko‘p o‘zgarishlar ro‘y berdi. Ko‘pgina arab davlatlari uzoq muddatli milliy-ozodlik kurashlaridan so‘ng mustaqillikka erishdilar. Bu o‘zgarishlar arab adabiyoti, jumladan, asrlar davomida arab adabiyotining asosi bo‘lib kelgan she’riyatga o‘zining katta ta’sirini ko‘rsatdi.

Bu ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy o‘zgarishlar she’riyatida “yagi she’riyat” nomini olgan oqimni vujudga keltishiga sabab bo‘ldi. Bu oqimning vujudga kelishi zamon ruhiga mos qasidalar yaratish, yangi voqelini aniq aks ettirish, yangi she’riy shakllarni izlash va ular yordamida murakkab ijtimoiy jarayonlarni mohirlik bilan aks ettiruvchi qasidalar yaratish zaruriyati bilan bog‘liq edi. “Yangi she’riyat” zamonaviy hodisalarni aks ettiruvchi omillardan biri bo‘lib dunyoga keldi.

Juda ko‘p arab adabiyotshunoslari “yangi she’riyat” va uning vujudga kelish jarayonlari haqida o‘z fikrlarini bildirganlar. Jumladan, taniqli livan shoiri Ali Akbar (Adonis) “yangi she’riyat” iborasi ostida “ijod jarayonida yangidan-yangi mahorat ufqlarini ochadigan, she’riy hissiyot orqali amalga oshadigan badiiy tafakkurni to‘liq o‘zgartirish”ni tushunish lozim deb hisoblaydi.

Ali Akbar (Adonis)ning fikricha, she’riyatda yangilanishga dastlabki harakat II-jahon urushidan ancha oldin Suriya –Amerika maktabining taniqli adiblari Jubron Xalil Jubron, Ilyos Abu Madiy, Nasib Arida va boshqalar tomonidan bo‘lgan. Darhaqiqat, bu shoirlar XX asrning boshlarida qasida shaklida o‘zgarishlar qildilar, so‘zlarni ixtiyoriy ravishda joyladilar va baytlardan turoqlarning bir xilligiga riyo qilmadilar. Biroq arab dunyosida uzoqligi sababli ularning ijodi arab she’riyatiga unchalik ta’sir qilmadi, ularning yangilanishdagi harakatlari esa g‘arb she’riyatiga taqdim sifatida qabul qilindi. Ba’zilar tomonidan ular arab tilini bilmaslikda aybladilar va ularning she’riyatidagi yaratgan e’tiborga olinmadi.

Iroq shoirlari Abdulvahhob al Bayotiy va Jobro Ibrohim Jabrolar o‘z navbatida she’riyatdagi yangilanish harakati Iroqda 1947-48 yillarda boshlangan deb hisoblaydilar. Iroq she’riyatida zamonaviy shaklda qasida yozgan birinchi shoir Nozik al-Malika bo‘ldi. U 1947 yilda “Al Uruba” jurnalida o‘zining “Vabo” qasidasini nashr ettirdi. Qasida arab she’riyatida umuman noma’lum bo‘lgan vaznda yozilgan edi. Shu sababli u tezda barchani e’tiborini uziga tortdi.

Uning 1949 yilda nashr etilgan “Tarashalar va kul” devonida shunday vazndagi bir qancha qasidalar mavjud edi. Devon muqaddimasida shoira o‘zi yaratgan yangiliklar haqida so‘z yuritgan edi. Bu devon ko‘p bahs va munozaralarga sabab bo‘ldi. Ko‘pchilik bunday she‘riy vaznga qarshi bo‘ldi.

Iroqdagi bu yangilanish harakati juda tezlik bilan yoyildi. Iroqda Abdulvahob al-Bayotiy, Jabro Ibrohim Jabro, Badr Shokir as-Sayyob kabi yirik shoirlar bu harakat boshida turdilar. Ularning yangi vaznda yozgan qasidaları “ash-shi‘r al-xurr” – “erkin she‘r” nomini oldi. Ular bu vaznga murojaat qilib arab qasidasini asrlar davomida an‘ana bo‘lib kelgan aruz vazniga riyao qilmagan holda yozish mumkinligini isbotlab berdilar.

Yana bir guruh livanlik adiblar yangilanish harakati dastlab 1956 yil oxiridan shoir Yusuf al-Xol boshchiligida chiqayotgan “ash-Shi‘r” jurnaliga tegishli deb hisoblaydilar.

Misrliklar esa o‘z navbatida, yangilanish harakatiga 50 yillarning boshida Misr adabiyotiga kirib kelgan yosh shoirlar o‘zlarining hissalarini qo‘shgan deb hisoblaydilar. Bu davrda Misr yangi she‘riyati boshida Salox Abdusabur, Ahmad Xijoziy, Amal Dunqul kabi shoirlar turdilar.

Shuni ta’kidlab o‘tish lozimki, “yangi she‘riyat”ning vujudga kelishida boshqa xalqlarning adabiyoti bilan tanishish juda katta rol o‘ynadi. “Yangi she‘riyat” vakillari ijodiga V.Mayakovskiy, Lui Aragon, Fredriko Garsia Lorka, Andre Breton kabi yangilanish shoirlarining ijodi ta’sir ko‘rsatgan.

Zamonaviy she‘riyatning rivojlanishida 20-30 yillarda Misrda faoliyat ko‘rsatgan “Devon” va “Apollon” jamiyati vakillarining ham katta rol o‘ynagan edi. Ko‘pgina zamonaviy shoirlar bu jamiyatlar vakillarining she‘r yozish nazariyasi va texnikasi sohasidagi yutuqlaridan keng foydalandilar.

40-50 yillarda “yangi she‘riyat” bir xil ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy sharoit vujudga kelgan davlatlar - Misr, Suriya, Iroq va Livanda keng tarqaldi. Bu davrda mazkur davlatlarda milliy-ozodlik harakatlari va ichki qarshi kuchlarga nisbatan kurash kuchaydi, milliy mafkura rivojlandi.

XX asrning ikkinchi yarmiga kelib “yangi she‘riyat” oqimi fors ko‘rfazi davlatlari, Saudiya Arabiston yarim adabiyotida ham keng o‘rin oldi. Arab she‘riyatining beshigi bo‘lgan Arabiston yarim orolida zamonaviy shaklda qasidalar yozgan o‘nlab shoirlar yetishib chiqdi. Ularning ijodiga, albatta, yuqorida qayd etilgan davlatlarning shoirlari ijodi ta’sir ko‘rsatgan edi.

Bu shoirlar sarasiga Ibrohim al-Arid, Ibrohim as-Saabiy, Ahmad ash-Shomiy, Ahmad Solih, Xamza Nur Shuxota, Zohir al-Almoiy va boshqa shoirlarni kiritishimiz mumkin. Bu shoirlar “erkin she‘r”ning barcha xususiyatlaridan unumli foydalandilar va tengi yo‘k qasidalar yaratdilar. Shu bilan birga bu shoirlar aruz vaznida ham qasidalar yozdilar.

Endi “erkin she‘r” bilan aruz vaznidagi qasida o‘rtasidagi farqlar haqida gapirib o‘tsak. Ma’lumki, aruz vazni VIII asrda tilshunos Xalil ibn Ahmad tomonidan shakllantirilgan bo‘lib, u 16 baxrni o‘z ichiga oladi. Aruz vaznida yozilgan qasida har biri tugal ma’noga ega bo‘lgan baytlardan tashkil topib, har bir bayt o‘z navbatida ritmik bo‘lak misralardan tashkil topadi. Har bir misra esa kichikroq bo‘lak - ruknlarga bo‘linadi. Rukn yoki tafilalar - harakatli yoki sukunli

harflarning ma'lum vaziyat talabiga monandlashib, zarur tartib bilan keluvchi maxsus birligidir. Ana shu birlik aruz bahrlarini farqlovchi asosiy o'lchov vazifasini o'taydi. Ruknlar soni esa qasida misralarida to oxiriga qadar bir xil qofiyaga ega bo'ladi. Qasida yozishning bunday shakli XX asrning o'rtalarigacha davom etadi. Masalan:

Dunyo balo, og'ir mehnatdir

G'am-g'ussa boshqarar alam tashvishni

Lekin qasida yozishning bu shakli ma'lum jihatdan shoirlar ijodiga salbiy ta'sir ko'rsatgan edi. Shoirning erkin ijod qilishiga halaqit berar edi. Juda ko'p va uzok, tajribalardan so'ng zamonaviy shoirlar an'anaviy qasida yozishning g'ovlaridan ozod bo'lishga muvaffaq bo'ldilar.

Shoira Nozik al-Maloika o'zining "Zamonaviy she'r muammolari" kitobida erkin qasida haqida shunday fikr bildirgan edi. "Shoir qasidada o'z erkinligi tufayli ko'zga tashlanadi. U qasida misralarini muayyan uzunlikda qilishi yoki qasidaning boshidan to oxirigacha sobit qofiyani saqlab qolishi shart emas. Shoir qasidani boshlar ekan osonlik bilan hammani o'ziga jalb qiladi. U qofiyalashda cheklanmaydi va uning uchun ruknlarning muayyan soni yo'q. Chunki u erkin, erkin, erkinlik bilan mast bo'lgandir.

U erkinlik sarxushligida unutish kerak bo'lmagan qoidalarni ham esdan chiqaradi".

Bundan ko'rinib turibdiki, zamonaviy shoirlar erkin vaznda qasidalar yozishda aruzdan butunlay voz kechmaganlar, balki uning baxrlaridan unumli foydalanganlar. Qasidalar yozishda aruzning biror baxriga suyangalar. Lekin erkin qasida misralaridagi ruknlar soni, an'anaviy qasidadidek bir xil miqdorda emas, balki turlicha bo'ladi. Shoir ruknlar qo'llashda cheklanmaydi. Bunday qasida she'riyatda "shi'r al-tof'ila" – "ruknli she'r" deb yuritiladi. Erkin vaznda yozilgan qasidalarda qaysi so'z yoki so'zlarni ajratib aytish zarur bo'lsa, shu so'z alohida satrlarga chiqariladi. Unda shoir qaysi tartibda his-hayajon va fikrni ifoda etishga intilsa so'zlarni shu tartibda teradi. Ularning joylashuvi shoirning ruxiy holati bilan ham bog'liq bo'ladi.

Maydonlarda o'tiradi u

Yosh boladek chiqadi, toshli nayzasi bilan

U bilan jaroxatlar o'tkinchilarni

Bu qasida taniqli Misr shoiri Amal Dunqul qalamiga mansub bo'lib, "ruknli she'r"ning bir namunasidir. Bu qasidaning rukni "mutadarak" bahrining ruknidir.

Erkin qasidada ba'zan shoir so'zlarni zinapoya tartibda teradi. Muayyan zinapoyalar uyushib misralarni tashkil etadi, ohang yuqoridagidek muayyan ruknlarning takrorlanishi orqali paydo etiladi va doimo yangilanib turadi.

Zamonaviy shoirlar o'z qasidalarida qofiyalanish masalasiga katta e'tibor berdilar. Qofiya yangi she'riyatning eng muhim xususiyati, ustunidir. Zamonaviy shoirlar o'z qasidalarida qofiyalanish masalasiga katta e'tibor berdilar. Qofiya yangi she'riyatning eng muhim xususiyati, ustunidir. Zamonaviy shoirlar qadimgi shoirlar singari bir xil qofiya atrofida to'xtab qolmasdan balki o'zlarini qoniqtiruvchi, o'z hissiyotlariga moslangan holda turlicha qildilar.

*Bu yerda xech kim yo'q.
Chodirimda men o'zimmman atrofimda
botayotgan quyosh shu'lasi,
Guyo u tog'larga zardek to'kilar.
Borliqda yolg'iz qush qanotin qoqar
Do'stlar jag'gohda qolmadi hech sog',
Sizga salomlarim ey, qo'shinlar
Chegaralarda ham hech narsa yo'qdir.*

Ko'rib turganimizdek qasidaning 2, 3, 4-misralari qofiyadosh bo'lsa, 6 va 7-misralari esa o'zaro qofiyalangan.

1 va 5-misralar hech bir misra bilan qofiyadosh emas.

Barcha zamonaviy shoirlar yangi she'riyatning shu xususiyatlarini mukammal o'rganishga harakat qildilar va o'quvchilar ommasini jalb qilgan ko'plab qasidalar yaratdilar.

Nazorat topshiriqlari:

1. "Erkin she'r"ning shakllanish jarayoni haqida so'zlab bering.
2. An'anaviy qasida shakli haqida so'zlab bering.
3. Aruz vazni nima?
4. "Ruknli she'r" deganda qanday she'r shaklini tushunasiz?
5. "Yangi she'riyat" namoyandalaridan kimlarni bilasiz?
6. Quyidagi qasidani tarjima qiling va vaznini aniqlang.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Shoirlarning asarlarini o'rganish.
2. Shoirlarning she'rlarini tahlil qilish.
3. "Yangi she'riyat" namoyandalarining she'rlarining tahlili.
4. "Ruknli she'r" shaklidagi she'rlarni tahlil qilish.
5. "Erkin she'r" shaklidagi she'rlarni tahlil qilish.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Talabov E. Arab aruzi. –T., 1985.
2. Xodjayeva R.U. Ocherki razvitiya yegipetskoy poezii. –T., 1985.
3. Amal Dunqul. "Al-A'mal ash-shi'riyat al-kamila". –Bayrut, 1983.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Xo'jayeva R.U. Yangi davr arab adabiyoti tarixi. –T., 2004.
2. Arabskaya romanticheskaya proza. Predisloviya Dalininoy A.A. –L., 1981.
3. Akbarova M.X. Yangi davr arab adabiyoti. –T., 2009.

MA'RUZA №18. AL-XAMISIY LIRIKASINING POETIKASI

Darsning maqsadi: Misr shoiri al-Xamisiy she'riyati, uning poetikasining o'ziga xosligini bilan tanishish.

Tayanch iboralar:

Romantik kayfiyat, lirik shoir, inqilobiy shoir, insoniy ehtiroslar, falsafiy lirika, Misr qadimgi mif, ruboi.

Nazorat savollari:

1. Al-Xamisiyning ilk ijodiga qaysi adabiy oqim ta'sir qildi?
2. Shoirning ijodida bajiyy metod nuqtai nazardan qanday tadrijiy rivoj namoyon bo'ldi?
3. Shoirning ijtimoiy-siyosiy she'rlarni poetikasi mohiyati nimada?
4. Shoirning poetikasining o'ziga xosligi nimada?

Zamonaviy Misr va Umum Arab Sharqining yirik shoiri Abdurahmon al-Xamisiy (1920 yilda tug'ilgan) o'z ijodini mehnatkash xalq ommasi va uning xizmatiga baxshida etgan adabidir. "Al-Xamisiyning hayoti faqatgina unga taalluqli emas, -deydi u haqida boshqa bir arab shoiri Muin Bsusi – uning hayoti barcha oddiy odamlarning mulkidir, u aynan shu odamlar haqida yozdi va yozishda davom etadi, uning so'lari esa xonadonlarga bir nur bo'lib kirib boradi". Darhaqiqat, Al-Xamisiy o'z xalqidan, o'z mamlakati hayotidan ajralmasdan Vataniga murojaat etib, shunday deydi: "Men ham xuddi sen kabi dehqon mehnatidan yaralganman. Misr ishchilarining mehnatidan tug'ilganman, va menda abadiy yashar, ularning peshona terisi. Xursandchiliksiz tunlar, zorlik va ochlik, qayg'u-qashshoqlik, bularning barini xalq bilan birga boshdan o'tkazdim.

O'zining birinchi inqilobiy she'rini Al-Xamisiy 1936 yilda yozadi. O'shanda Inglizlarga qarshi namoyishda 16 yoshlik bo'lgan Abdurahmonning qo'lida sinfdosh do'sti vafot etadi. "Yodimda o'shanda men hayotimda birinchi bor inqilobiy ruhda she'r yozdim, - deb eslaydi shoir. Aynan o'sha damda qolgan hayot yo'limni belgilab oldim. - Imperializmga qarshi kurash yuli». Va Abdurahmon Al-Xamisiy o'zining yoshlikdagi ahdiga sodiq qoldi. Ikkinchi jahon urushi davrida u Falastinning Yaffa shahrida radiostansiya orkali tinglovchilar orasida antifashist targ'ibotini olib bordi, keyin esa bevosita Suveysh kanali hududida Britaniya mustamlakachilariga qarshi kurashda ishtirok etdi. 1952 yildagi Misr inqilobini jon-dili bilan qabul qildi va mustaqil Misr respublikasi hukumati tomonidan qabul qilingan islohotlarni qurishni qattiq qo'llab-quvvatladi.

Al-Xamisiy Arab Sharqida serqirra adabiyotchi-novellist, drammaturg, radiopostanovkalar muallifi va ssenarist sifatida mashhur bo'lsada, arab adabiyotiga shoir sifatida kirib keldi.

1938 yil o'n sakkiz yoshli Al-Xamisiy Qohiraga keladi va bu yerda Xalil Mutron bilan uchrashishga muvaffaq bo'ldi. Barcha yosh shoirlar kabi, Al-Xamisiy kuchli hayajon bilan o'zining ilk she'rlarini ushbu buyuk shoir hukmiga havola etadi. O'z o'rnida Xalil Mutron uning she'rlarini nafaqat maqtaydi, balki ularni Qohira gazetalarida chop etilishida ishtirok etadi. Bu she'rlar lirik she'rlar bo'lib, romantika va qayg'uga to'la edi. Shu bilan birga ularda burjuaziya jamiyatida inson shaxsiyatining yerga urilishiga bo'lgan qarshilik va g'azab

jaranglardi. Misr yozuvchisi Yusuf Idris ta'kidlashicha, Al-Xamisiy 17 yoshidayoq, adabiy doiralarda «O'tkir kuzatuvchanlik maishiy hayotning yorqin ifoda eta oluvchi shoir» sifatida tanilib bo'lgandi.

1943 yilda Al-Xamisiyning «O'tmish» poemasi dunyo yuzini ko'rdi va kitobxonlar orasida keng tarqalib, tanqidchilarning yuqori bahosiga ega bo'ldi. Poema g'oyalar yangiligi, tuyg'ular samimiyligi va ehtirosli ifodalar bilan yonardi. «O'tmish»da mustaqil hayotning qiyinchiliklariga erta ro'para bo'lgan 23 yoshli Al-Xamisiyning hayotiy tajribasi sezilib turardi.

*Oh, necha-necha bahorlar o'tdi!
Ularning bog'laridan!
Ko'z yoshimla sug'ordim umid gullarin,
Lek, kuz shamoli uning barglarin,
Xuddi libos kabi yechib tashladi.*

Al-Xamisiy she'rlarini devon sifatida chop ettirish turli sabablarga ko'ra ortga surilgan. Birinchi devon «Insoniy extiroslar» - 1958 yilda, ikkinchisi «Kuz yoshlar va olov» - 1962 yilda chop etilgan. Bu ikki devon bir qator adabiyotchilar va tanqidchilar tashabbusi ostida chop etilgan bo'lib, shoir ijodining tanlangan irod namunalari kiritilgan edi.

Ba'zi arab tanqidchilari, shuningdek Luis Avadning fikricha, Al-Xamisiy ijodining erta davrlariga 30-40 yillarda Misrda tarjima qilingan va ko'p o'qilgan Yevropa romantizmining vakillari Shelli, Vordsvort, Bayron kabilarning ta'siri katta edi.

Bunday tahlil uning ilk she'rlarida chindan ham mavjud va o'rinlidir, chunki Al-Xamisiyning o'zi Vordsvortning bir qator she'rlarini ingliz tilidan arab tiliga tarjima qilgan. Undan tashqari misr romantizmining ham ta'siri kuzatiladi, ayniqsa, Ibrohim Nagi ijodi. Ammo bularning hech biri Al-Xamisiy she'riy ijodining yorqin individualligiga ta'sir qilmadi. Shoirning ilk she'rlari lirik va ta'sirchan bo'lib, shoir kayfiyatini timsollar orqali ochib beradi. Al-Xamisiy lirikasining jo'shqinligi uning she'rlarida bugungi kungacha saqlanib qolgan.

Yuqorida qayd etib o'tilgan ilk devonlar tahlilida shoir ijodidagi evolyusiya diqqatni jalb qiladi. Shaxsiy ichki kechinmalarni ifoda etuvchi lirik she'rlardan zamonaning dolzarb mavzulariga bag'ishlangan she'rlar. «Insoniy extiroslar» saylanmasiga yozilgan so'z boshida M. Mandur shunday deydi: «Ushbu 9 ta qasida Abd ar-Rahmon ijodidagi evolyusiyani yaqqol ko'rsatib beradi. Yoshlik samosida parvoz etayotgan shaffof romantizmdan, milliy ozodlik harakatining chuqur mafkuraviy she'riyatiga bo'lgan yo'li. Buni ayniqsa, «Jazoirlik Abdul Qosim» va «Iroq haqida qo'shiq» qasidalarida ko'rishimiz mumkin.

1957 yilda yozilgan «Jazoirlik Abdul Qosim» qasidasi shoir ijodining chuqurlashgani va dunyoqarashining kengayganligidan dalolat beradi. Qasida o'sha davr adabiyotchilarining barcha talablariga javob berardi - adabiyotni hayot uchun barpo etish, uning ijtimoiy mavqeini anglash ma'suliyatlilik, mafkuraviylik va uning Milliy Ozodlik harakatiga bo'lgan munosabati.

«Jazoirlik Abul Qosim», «Moskva hakida qo'shiq», «Iroq haqida qo'shiq», «Gagarin mening qishlog'imda» va boshqa qasidalari liro-epik janrda yozilgan

bo'lib, ular shoirning ilk qasidaları («O'tmish», «Tunda, "G'alayon" va xokazo)dan o'z formasi va ijtimoiyligi bilan ajralib turardi. Ularda vatan mustaqilligi va ozodligi va bu yo'lda fido qilish kuylanardi.

“Moskva haqida qo'shiq” qasidasi 1956 yilda yozilgan bo'lib, shoirning bu shaharga qilgan birinchi safari taassurotlaridir. Qasidani shoir o'z xalqining og'ir taqdiri va o'zining achchiq qismatini kuylashdan boshlaydi. Bu lirik muqaddima o'zining shoirona go'zalligi bilan shu qadar ajralib turadiki, arab she'riyati bilimdoni Muhammad Mandur «Insoniy extirosalar» she'riy to'plami kirish qismida bu haqda to'xtalmay o'tmadi. «Bu she'rlar shunchalar maftunkor-ki! Ularning ohangi shu qadar shirin, uzoq g'amdek qayg'uli! Uning she'riy metaforalari va ajoyib timsollari naqadar kuchli va ta'sirchan! Qanchalar ravshan va samimiy she'riy muqaddima!»

Qasidada shaxsiy mavzu asta-sekin ommaviy mavzuga aylanadi. Moskvani kuylayotganda esa, shoir hofizning ovozi kuchayib, unda bayramona quvnoq avj boshlanadi:

Fleyta tamog'idan.

Qalban tor yaralgan, ammo yuragida urib turgan so'z

serma'no, sen haqingda qo'shiq, ey ajoyib shaxar-Moskva.

Shoir katta shaharga bo'lgan muhabbatining hor etishda o'zigagina ma'lum so'zlardan foydalanadi, chunki uning o'z Moskvasi bor:

O, Moskva!

Sen yagonasan, ammo o'r kim qalbida unikidirsan.

Keyinchalik esa “Devon Al-Xamisiy” (1968) chop etilib, unda shoirning 1937 - 1967 yillarda yozilgan barcha she'rlari o'rin olgandi. Shuningdek rafiqasi xotirasiga bag'ishlangan “Muhabbat kitobi”, “Men rad etaman” (1972), “Moskva uchun olti qizil chinnigul” (1980), “Suyukli inqilobchi Misr” (1980) she'riy to'plamlari chop etildi.

Al-Xamisiyning o'zbek va rus kitobxonlariga ham yaxshi tanishdir. Al-Xamisiyning rus tilida bir necha she'riy to'plamlari chop etilgan: “Monolog” (1973), “Qasamyod” (1979), «Muhabbat kitobi» (1980), «So'nmas umid» to'plami shoirning mashhur she'rlarini o'z ichiga oladi. Kirish so'zi taniqli shoir Anatoliy Sofronov tomonidan yozilgan. Taniqli arabshunos G.Sh.Sharbatov qalamiga mansub xotima qismi Al-Xamisiyning ijodi bilan tanishtiradi, albatta avvalo shoir sifatida. 1979 yilda Toshkentda G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'ati nashriyotida shoirning she'rlar to'plami “Ko'ngil dardi” nomi bilan nashr etildi.

Al-Xamisiyning hayoti oson kechmadi. Bolaligidan yolg'iz qoldi, qashshoqlik, ishsizlik keyin esa xibslar... Yagona va eng katta baxti -mashhur dramatik aktrisa bo'lgan rafiqasi baxtsiz hodisa natijasida vafot etadi. Og'ir qayg'u - eng yaqin insonni yo'qotish qayg'usida shoir ko'plab dardli misralar yozdi:

Qalbm toridan

nola ayladim

Qirlaru qushlarga,

Yulduzlar, tongga,

Mening achchiq taqdirim

bilsin barcha oshiq shoirlar

Bilsinlar qanchalar baxtsizdir

Inson Suyuklissh butkulga yo'qotgan damda.

Al-Xamisiyning «Muxabbat kitobi» betakror muhabbat yodgorligiga aylandi, ammo unda shaxsiy motivlar fuqarolik va falsafa lirikasi bilan uyg'unlashib ketardi, aynan shu jihat Al-Xamisiyni boshqa shoirlardan ajratib turardi:

Ammo yashash kerak -

Men esa baxtni kuylayman

Baxtsizlik zulmatida

Yoruglik uchqunin

Insonlarga tortiq etish-chun.

70-yillardan keyin hokimiyat tepasiga A. Saodat kelganidan so'ng, Al-Xamisiy uni olib borgan siyosatini qabul qila olmasdan, vatanidan chiqib ketib, muxojirga aylandi. Ammo u taqdir past-balandliklaridan qo'rqmadi va boshqalardan farqli ravishda o'z she'rlarida xalq kuchiga ishonib, uni ozodlik yo'lida g'ov bo'lib turgan qora kuchlarga qarshi kurashga chorladi:

Sizning noxaq olamingizdan yuz o'giranman!

Yuz o'giranman butun jonim-la!

Ko'zdamgi uchqun-la o't qo'yib unga,

Erta tong bedorlikdagi orzularimdan

Ko'zni qamashtiruvchi dunyo yaratgum.

Abdurahmon Al-Xamisiy o'z umrini va qalamini baxsh etgan ideallarining qaytishiga ishonib yashaydi:

Mayli hozir og'ir va qo'rqinchli,

Bor azoblar xalq yelkasida, -

Vaqt o'tadi

Va kelar baxor,

Har doimgiday kechikmay yana.

Uning she'rlarida shuningdek Vatan sog'inchini ham ko'ramiz.

O, Vatan! Senga bo'lgan muhabbatim sofdir azoblar ostida,

to'pponcha ostida,

Mag'rurona takror-takror aytardim bu yagona izhorimni.

Al-Xamisiy ijodida vatanparvarlik ruhi bilan shoir-internasionalist tuyg'ulari qorishib ketgan bo'lib, u yangi-yangi urushlari xavf-xatari ostida qolgan dunyo xalqlari taqdirini o'ylaydi. Aynan shunda biz uning ijodidagi g'oyasini ko'ramiz. Shoir «Chet el adabiyoti» jurnaliga bergan intervyusida buni o'zi ham ta'kidlab o'tadi: «Mazmunga kelsak, mening she'rlarimda Misr mavzusi insoniyat borlig'ining bir bo'lagiday jaranglaydi. Men, misrlikni -ham dunyodagi boshqa odamni o'ylantiradigan muammolar xavotirga soladi. Ularni hal etishda menga vodiy bergan ming yillik tajribaning birqisimini baxshida etishni istardim».

Bu dumaloq, qattiq

Yer sharin

Bulamiz, inson tanasidek!

Bir tomonda paydo bo'lgan og'riq

Boshka tomondan

Aks-sado bulib qaytajak.

70-yillarda yuzaga kelgan «XX asr qaroqchilari», “Terezin», «Kolizey», «Gavanaga elt meni, ey Samoy» kabi yirik she’riy asarlari milliy ozodlik harakatlarida mehnatkash xalq ommasiga dalda bo’ldi.

Al-Xamisiy she’rlari haqida so’z borar ekan, ta’kidlash joizki, uning birinchi she’rlari mumtoz she’riyatga yaqin edi. Keyinchalik esa uning she’rlarida erkinlikni kuzatamiz - qofiyalar xilma-xilligi, oq she’rga o’tish uning qasida va she’rlarida folklor va mumtoz she’riyat nafasi sezilib turadi. «Jazoirlik Abulqosim», «Moskva haqida qo’shiq», “Gagarin mening qishlog’imda» kabi qasidalar arab milliy rivoyatlarini yodga soladi.

Al-Xamisiy ijodining qisqacha tahlili shunday xulosa beradi-ki, uning ijodi - ulkan vatanparvarlikdir. U o’z ijodida dunyoda yuz berayotgan voqea-hodisalarni ko’rsatib bera olgan. G.Sh.Sharbatov Al-Xamisiyning «Monolog» to’plamining rus tilidagisiga yozgan muqaddimasida shunday deydi: *«Hali kuchiga ishonch, hyotga optimistik ruh bilan qarash, Al-Xamisiy she’riyati va hikoyanavisligi - bu sotsialistik realizmning Misr adabiyotidagi pionerlaridandir»*.

Nazorat topshiriqlari:

1. Al-Xamisiyning “Inson” she’rini o’qing va qaysi ijodiy uslubda yozilganligini aniqlang.
2. Al-Xamisiylarning ruboilari poetikasini tahlil qiling.
3. “Toshkentga izhori muhabbat” she’ridagi ifodaviy-tasviriy vositalarni aniqlang.
4. Al-Xamisiy she’rlarida qadimgi miflar ta’sirini toping.

Mustaqil ish mavzulari

1. Al-Xamisiyning “Ko’ngil dardi” to’plamida romantizmga oid she’rlarni aniqlang.

Asosiy adabiyotlar:

1. Al-Xamisiy, “Ko’ngil dardi”. –T.:G’ofur G’ulom nashriyoti, 1979.
2. Al-Xamisiy Abdurahmon. Myatejnaya nadejda. –M., Progress, 1982.

Qo’shimcha adabiyotlar:

1. Kirpichenko V.N., Safronov V. Sovremennaya yegipetskaya literatura. Ch.2., – M., 2002.
2. Xodjayeva R.U. Ocherki razvitie sovremennoy yegipetskoy poezii. –T.:Fan, 1985.

MA’RUZA №19. SALAX ABD AS-SABUR ShE’RIYaTI POETIKASI

Darsning maqsadi: Salax Abd as-Sabur ijodi tahlil qilinadi, uning ijodida ijtimoiy she’rdan tasavvufiy kayfiyatda yozilgan she’rga o’tish ko’rsatiladi hamda she’rining poetikasini o’rganish.

Tayanch iboralar:

She’riy drama, tasavvufiy kayfiyat, “shoirilar amiri”, “yangi she’riyat”, ramz, abstrakt gumanizm.

Nazorat savollari:

1. Salax Abd as-Sabur she'r poetikasi to'g'risida qanday fikr bildirgan?
2. Salox Abd as-Sabur qanday ijodiy evolyusiyasidan o'tdi?
3. Uning ijodida sufiyona kayfiyat nimada berildi?

Salax Abd Sabur 50-60 yillarda Misr «Yangi she'riyati»ning ko'zga ko'ringan namoyondalaridandir. Oliy ma'lumotni Qohira Universitetida olgan. 50-yillarda «Al Axram» gazetasi bilan hamkorlikda ish olib borgan, 60-yillarda Madaniyat vazirligida Nashriyot Instituta direktori lavozimini egallagan.

Ishlarini 40-yillardan nashr qila boshlagan. Shoirga katta mashhurlikni olib kelgan asarlari uning quyidagi 3 devonidir. Bular «Mening mamlakatim odamlari», «Men sizga aytaman» (1961) va «Qari chavandoz orzusi» (1964) devonlaridir. Bulardan tashqari shoir «Tunga sayxat» (1968), «Kun va tunni kutib» (1970) nomli she'riy to'plamlarni ham yaratdi. Yana «Al-Xallaj fojeasi» (1966), «Majnun va Layli» (1970) va boshqa she'riy dramalarni yaratdi. Tanqid Salox Abd Sabur iste'dodini yuqori baholadi, xattoki ba'zi Luis Avvad kabi tanqidchilar uni «Shoirlar amiri» «Shavqiyga tenglashtirdilar.

Salax Abd Sabur adabiyotshunos va tanqidchi sifatida mashhur bo'lgan. U Adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid mavzularida izlanishlar olib borgan. Bulardan «Ulardan so'ng tarixda qoluvchi narsalar» (1958), «Asr sadolari» (1961), «Bizni eski she'riyatimizning yangicha o'qilishi» (1968) va boshqalar shular jumlasidandir. Ushbu izlanishlarida u yangi arab she'riyati analiziga va ba'zi shoirlar ijodiga katta e'tibor bergan. Shoir 60-yillarda vujudga kelgan Misr «yangi she'riyati» borasidagi bahsda qizg'in ishtirok etadi. U «Al Adab» jurnalida «Yangi she'riyat»ning o'rta asrlar mumtoz she'riyati bilan bog'liqligini e'lon qiladi. «Yangi arab she'riyati»da romantik yo'nalishining paydo bo'lishiga Yevropa adabiyoti ta'sir etganligini aytib o'tadi. Shoir shunga amin bo'ladiki 60-yillar o'rtalariga kelib Misr she'riyati inqirozga uchraydi.

Uning fikricha, Misr yangi she'riyati, tushunarlilik, tabiiyligi bilan ajralib turadi va aynan shu sababli oddiy, sentimental tus oladi. Salax Abd Sabur inqirozdan chiqish yo'lini ramzlar olamiga murojaat qilishda deb biladi. Ular yordamida umuminsoniy muammolarni yanada nozik tomonlarini ochib berish mumkin deydi shoir.

Shoir, turli xil falsafiy oqimlar va modernistik konsepsiyalar she'riyat rivojiga katta hissa qo'shishiga ishonadi. U shunday yozadi: «Agar bizning she'riyatda turli xil fikriy oqimlar bo'lganida va shoirlar uning ta'sirida bo'lganlarida, she'riyatimiz darajasi hozirgidan ancha yuqori bo'lgan bo'lar edi. Shoirlarimizning 100 dan 90 tasi ushbu oqimlardan bexabarlar, aksi holda bu kabi inqirozli holatga uchramagan bular edik.»

Biz Salox Abd Saburning estetik qarashlariga bir oz to'xtalib o'tdik, bundan maqsad uning ijodida 50 va 60-yillar o'rtasida yuz bergan evolyusiyani tushuntirish edi. Bu paytda Salox Abd Saburning she'riy uslubi yangi asar yaratgani sari rivojlanib, yaxshilanib borgan bo'lsa, uning asarlari tarkibi yanada mukammallashib, o'lim, hayot ma'nosi, ko'ngil, vijdon kabi falsafiy mavzularni yoritib boshladi.

Birinchi devon «Mening mamlakatim odamlari» tarkibiga 40-50-yillarda yozilgan she'r kiritilgan. U shoirning shaxsiy hayotiy tajribasi natijasidir. Bu tajriba «Ishchilar va talabalar uyushmasi» va Misr xalqining ozodlik uchun kurashi paytlarida g'ayrimonarxik va gayri imperialistik manifestlarda orttirilgan. Salax Abd Sabur buyuk arab shoirlari Hofiz Ibrohim va Shavqiylar izidan borib «Denshaviy fojeasi»ga murojaat etdi, va unga atab «Zaxran o'limi» she'rini yozdi.

Yuqori gumanistik g'oyalari, she'riy tasavvur kuchi bilan o'quvchini o'rab oluvchi she'rlaridan biri «Tunga sayohat»dir. Ijtimoiy kuchli she'rlari esa «Mening otam» va «Mening mamlakatim odamlari»dir. Nozik insoniy tuyg'ular, ko'ngil tug'yonlari mavzulari «Muhabbat qo'shig'i», «Sevgi gimni», «Dugonamga xat» kabi she'rlarida uchraydi. Qishloq hayoti, shovqinli shahardan voz kechish esa «Sayoxat», «Estaliklar» she'rlarida kuylangan.

Shoir qishloq tongidan xayratlanib yozadi:

*Tun boshin o'girib
Tong keldi porlab
Ox, g'aflatdagi og'alarim
Ne bor olamda go'zalroq
Dunyo tong quchog'ida
Fikrlar pokizadir.*

1956 yil iyun oyida Jamol Abdul Nosir Misr milliy bayrog'ini chet el monopoliyalariga tegishli bo'lgan Port Saiddagi oxirgi bino uzra kutardi. Salax Abd Sabur Ushbu buyuk hodisaga atab «Abadiy porla!» qasidasini yozdi:

*Quyosh nuri yuzing silab, erkalasin
Osmon doim senga kulib, charchamasin
Saxiy bulut soya ila taqdirlasin.
To'lin oychi sendan shirin bo'sa olsin
Tun nuriga g'arq bo'lginu
Boshim uzra porla abadiy
Vujudimiz tuprog'inga in'om bo'lsin
Xayotimiz zzginangga fido bo'lsin
Shubxa yo'qki sensan olam aro
Yagona muqaddas zot.*

«Qurg'oqchilik, kasallik va zulmat» keltiruvchi chet ellik bosqinchilarga qarshi «Men seni yakson qilurman» kabi qatorlar yozilgan. Ular 1956 yilda Misrga zulm o'tkazilganda, yosh davlatni qurolli kuchlar yordamida bo'g'ish va yo'ldan urish choralari qurilganda yozilgan edi. Axir bu paytda Misr xalqi yangi hayotini qurayotgan edi:

*Qurmoqdamiz yangi olam
Dunyo senga hadya deya
Axir dunyo istaydi
Inson insonga do'st bo'lsa
Axir dunyo xohlaydi
Ayol o'g'li, yori, yaqiniga
Vidolasha turib
Aytgan achchiq so'zin unutsa*

*Axir olam istaydi
Mexr muhabbat ila
Farzandlarin o'stirs
Umid gullari kabi
Ularni ardoqlasa.*

O'z ishining to'g'riligiga va yutishiga ishonib, qo'rqmas hiimoyachi kabi shoir bosqinchilarga yuzlanadi:

*Qadamingda kasalligu
Tunni boshlab kelgan sen
Qalbimizda umidlarni
So'ndirmoqchi bo'lgan sen
Piramida, ishonch va olam
Ila ichaman qasam
O'chim aro azoblarim jo yetib
Seni qilurman yakson.*

Yashashni istovchi xalq urush va xurlikni istamaydi. Ammo u o'z yeri uchun kurashmog'i lozim. Ona vataniga, oddiy xalqga bo'lgan muhabbati shoir yuragini to'lib toshiradi:

*Vatanim insonlari
Bir birlarin ko'rganda
Tinchlik tilab tolmaslar
Tinchlik sizga!
Sizga ham!
Bunga sabab
Vatanimiz har burchagi
Nafas olar tichlikdan.*

Uzoq kurashlar evaziga mustaqillikka erishgan xalq ozodlik uchun jonini bergan kurashchilarini unutmaydi. Ushbu g'oya «Xalok bo'lgan qahramon» she'rida ilgari surilgan:

*Har kechada
Xalok bo'lgan qahramon
O'z shahriga tushar osmondan
Yuragida mehr ila
Kecha yana paydo bo'ldi
Nur yog'ildi oydek yuzidan
Baland shahar tepaliklari uzra
Ko'rinardi qo'rqmas qahramon
Yarador yuragi malham topib
Uning yurak nuridan yorishdi tunlar
Go'yo otganday tonglar.*

«U orom olmoqda endi» nomli qasida esa Giza sahrosida samolyoti bilan portlab ketgan uchuvchiga bag'ishlangan. Uchuvchi o'zining yosh umrini kelajak avlod baxti uchun, yosh qizlar yanada go'zal bo'lishi, otalar o'g'illari bilan faxrlanishlari va osmonda doim tinchlik kabutari parvoz qilishi uchun fido qilganini bilardi. Qo'rqmas uchuvchidan bobolar xoklari bilan qo'shib ketgan bir

hovuch xok qolgan edi. U Misr changiga aylanib, guli dalalar uzra sochilgan. Bu borada shoir shunday yozadi:

*Yuraklarimiz kabi oq gullar
Uning va boshqalar yuragi kabi oqdir!
Bizning kurashdagi xalqimizdan
Xayotni uluglovchi Xalkimizdan.*

Salox Abd AS-Saburning «Mening mamlakatim odamlari» to‘plamida vatanga cheksiz muhabbat bilan farq qilib turuvchi fuqarolik she’riyati ilgari suriladi. Shu bilan birga bu to‘plamda g‘am, qayg‘u, dard xislari ifodalangan «G‘am», «Tunga sayoxat» kabi she’rlarini uchratishimiz mumkin. Bu kayfiyat uning keyingi to‘plamlarida kuchayib boradi. Shaxsiy g‘am yaxshilik va yomonlik, sevgi va nafrat, go‘zallik va xunuklik, tushkunlik kabi insoniyat boshiga tushgan nomutanosib xislatlar dardida kuyishgacha o‘sgan. Shoir kamdan kam hayotning aniq bir hodisalarini yozadi, uning uslubi falsafiylashib, umumlashtirib darajasiga ko‘tarildi.

Arab tanqidchilari bu o‘zgarishlarga sabab etib Salax Abd Sabur yaxshi tanish bo‘lgan g‘arb adabiyotini ko‘rsatadilar. Uning ijodiga va dunyoqarashiga ingliz shoiri T.S.Eliot katta ta’sir o‘tkazgan. Eliot ijodida burjuaziya rivojlanishga qarshi bosh ko‘taradi, Salox Abd Saburda esa inson adolatsizlik va yomonlikka qarshi bosh ko‘taradi:

*Mavjudlik go‘zalligin yo‘qotdi.
Yoshligim o‘tdi, sezmabman hatto
Endi esa g‘amginman, bejo...*

Eliot hech bir ikkilanishsiz burjuaziya olmini inkor etadi va asta sekin xristianlik axloqini nizomlarini kuylay boshlaydi. Salax Abd Sabur bu kabi azoblardan qutilish yo‘li o‘lim yoki tarki dunyo etish deb biladi, ya’ni so‘fiylikka yaqinlashadi. Bunda biz uning o‘rta asrlar mumtoz she’riyati bilan aloqasini ko‘rishimiz mumkin. «Sufiy Bashar Al-Xafiy bitiklari» qasidasida biz inson baxtsizligi sabablarini ko‘rishimiz mumkin. Inson tushkunlikka tushganining sababi yaxshilik kuchiga, go‘zalikka va baxtga bo‘lgan ishonchining yo‘qolishidadir. Sufiy Bashar Al-Xafiy shunday deb hisoblaydi: «Dunyo boshqa adolatsizlik va xurlikka bardosh berolmaydi». Ammo uning ustози bo‘lmish Shayx Bisom Ad-Din unga qarshi chiqib shunday deydi: “Bizning dunyo sen o‘ylagandan yaxshiroqdir». Ular hayot aslida qanday ekanligini ko‘rish uchun odamlar orasiga, bozorga tushadilar. Bozor ularga qalin o‘rmondek ko‘rinadi. Odamlarning hayvonlardan farqi qolmaganini ko‘radilar. Biri-buriga, ikkinchisi-tulkiga, uchinchisi-chiya bo‘riga, to‘rtinchisi esa ilonga o‘xshaydi va ularning hammasi bir-birlarini go‘shklarini yeyishga tayyorlar. Sufiylar chinakam insonni topa olmaydilar. Bisom ad-Din Bashor Al-Xafiyga taskin berib, ular bunday insonni albatta topishlarini aytadi:

Sabr qil, bir kun kelar u dunyoga...

Bisom Ad-Din ana’naviy ishonchni ilgari suradi, inson orzuidagi o‘zga dunyoga ishonadi. Bashar Al-Xafiy esa faqat o‘limgina uni bu azoblardan qutqaradi va u intilgan xotirjamlikni ato etadi degan fikrga keladi. Uning asaridagi qahramonlar o‘z jonlar»ga qasd qiladilar. Shu yo‘l bilan ishonchlarini yo‘qotgan

qahramonlar qalbi saqlab qolinadi. Salax Abd Sabur tushkunlikka tushib qoladi. Ba'zi asarlarida uning qahramoni buyuk muhabbat izlaydi, bunda biz optimistik ruhni kuzatishimiz mumkin. «Qari chavandoz orzulari» qasidasining qahramoni insonlarga qanday muhabbat bilan yashashini ko'rib chiqsak. U och qolganlarni yuragi parchalari bilan to'ydirishga tayyor, shamga aylanib yo'ldan adashganlarni yo'lini yoritishga tayyor. Uning tuyg'ulari sof va beg'ubor, u chin qalbdan yosh boladek kuladi va yig'laydi. Ammo u oddiy insonlar hayotini bilmoqchi bo'ladi va odamlarga qo'shiladi. U o'zgara boshlaydi, fikrlari sofliğini, o'zining beg'uborligini yo'qotadi. So'ngra avvalgi holiga qaytishni, avvalgiday bolalarcha sevishni istaydi:

*Chavandozga ne bo'ldi
Yuragi yo'qoldimi
Orzulari sindimi
Kim yo'l boshlar endi
Beg'ubor ko'z yosh tomon
Kim yo'l boshlar endi
Sof kulgiga tomon
Boshing uzra tinchlik bo'lsin
Xadya etay bu olamda yig'gan tajribam
Soflik ila bir kunlik ko'rishuvga.*

Ushbu qasida parchasida Salax Abd Sabur «Sufizm belgilarini qo'llaydi, sufiy she'riyatining ikki tomonlamaligini. Bir qarashda gap insonga xos «bokiralik»ka qiziqish haqida ketayotgandek - «bakaratun», ko'chma ma'noda esa bu so'z «poklik» «tozalik» ma'nolarini bildiradi, qaysiki, oliy muhabbat izlanishidagi harakatlar ramzidir. 1966 Salax Abd Sabur Sufizmga qiziqishi ta'siri ostida «Al-Xallaj fojeasi» nomli tarixiy she'riy dramasini yaratadi. Al-Xallaj chinakam tarixiy shaxs. U sufizm islomda keng tarqalgan davrda yashagan. Al-Xallaj xalqyada mashhur sufiy bo'lgan. U aholining kambag'al qatlamlaridan kelib chiqqan, uning ismi ham bundan dalolat beradi «al-xal-laj»- arab tilidan tarjima qilganda «paxta tozalovchi» ma'nosini beradi. Mashxur sufiylar Imrul Malak va Al-Janidlar shogirdidir. Ular o'zlarining «asketizmlar»i bilan mashhurlar. Ammo Al-Xallaj sufiylarning tashqi dunyodan, odamlardan uzilgan holda hayot kechirishlariga qiziqmas edi. U ijtimoiy adolatsizlikka qarshi da'vat qila boshladi. U oddiy xalqni birlashib xalifaga qarshi chiqishga chorladi. Al-Xallajning bu kabi harakatlari kambag'allar va mehnatkashlarni o'ziga tortdi va xalifaning g'azabiga uchradi. Bundan tashqari unga musulmon imomlari ham qarshi chikdilar. Al-Xallaj qo'lga olinib kamoqqa tashlandi. Zindonda 8 yil umrini o'tkazgandan so'ng, u Bag'dodda oyoq qo'llari butga tortilib mixlangan edi.

Salox Abd Saburning ushbu she'riy dramasi Al-Xallajning real hayoti asosida tuzilgan. Bu inson taqdiri o'zining dramatikligi, uning dunyoqarashining rivojlanishi natijasida u nafaqat musulmon olami boshliqlariga qarshi chiqdi, balki tashqi dunyodan uzilgan ustozlari g'oyalariga ham qarshi chiqdi.

Pesa syujeti oddiy. Sufiy shayx adolatga chaqiradi, u zindonband etiladi va u yerda jinoyatchi bilan tanishadi. U shayx nasixatlarining kuchli ta'siri ostiga tushib qoladi va qamoqdan qochib, Al-Xallajni qatldan saqlab qolmoqchi bo'ladi. Ammo

u shayxni qutqarib olishdagi uddasidan chiqolmagan harakatlarda vafot etadi. Shayx Al-Xallaj qatl etiladi.

Pesada obrazlar kam, chunki Salax Abd Sabur tarixiy materialga ehtiyotkor bo'lgan, u o'zining birinchi dramaturgik asarida badiiy to'qimaga erk berishdan qo'rqqan. Ammo bu she'riy tilning boyligi, obrazlarning o'ziga xosligi, dramatik tuzilish kuchi, shoirning asar falsafiy yo'nalishda yaratilganligini mohirona ko'rsatib berganligi bilan to'ldirilgan. Bularning bari Al-Xallajning Bag'dod shahri asosiy maydonlaridan birida qilgan da'vat sahnasi, unda shayx ijtimoiy adolatning zarurligi, barcha odamlar teng bo'lishlari kerakligini gapirganida, yoki sud sahnasida, bundan tashqari mohirona tuzilgan dialoglarda ko'rinib turadi. Misol tariqasida Al-Xallaj va uni urayotgan askar sahnasiga murojaat qilsak:

Askar: nima uchun baqirmaysan?

Al-Xallaj: O'g'lim, axir o'lik tana baqirishi mumkinmi?

Askar: Baqir! Shunda seni urishdan to'xtayman!

Al-Xallaj: Kechir o'g'lim. Ammo baqirishimdan senga ne foyda?

Askar: Yolvoraman baqir! jimliging bilan meni qiynama! Shayxning ruxiy kuchi uni vaziyat hukmdori etadi, uni qiynayotgan jallodni emas!

Shoir ruxiy osoyishtalikka erishishning yo'lini topgan, boshqalarga ayniqsa, xo'rlanganlarga yordam berish istagida yonayotgan insonning psixologik holatini mohirona ochib beradi.

1967 yilda sahnalashtirilgan «Al-Xallaj fojeasi», katta muvaffaqiyatga erishdi va mukofotlandi. Bu esa Salox Abd Saburning mohirligidan dalolat berardi, u she'riy pesa janrini rivojlantirgan Shavqiy va Aziza Abzo davomchisi nomiga munosib edi. Ammo ulardan farqli ravishda Abd Sabur butunlay ana'naviy she'riyat shakillaridan uzoqlashdi, chunki u erkin she'r tarafdori edi. Tajriba shuni ko'rsatdiki, she'rning zamonaviy shakli she'riy dramaga juda mos. Ayniqsa, ular sahnalashtiriladigan bo'lsa, aktyorlarga ularni yodlash qiyinchilik tug'dirmasdi.

Shu tariqa, Salax Abd Sabur 60-yillardagi asarlarida abstrakt gumanizm g'oyalarini ilgari suradi va uning ildizlarini o'rta asrlar falsafasidan izlaydi. Birinchi navbatda, sufizmda, umidsizlik, tushkunliklarga qaramay 60-yillarda Salox Abd Sabur Misr she'riyatining ko'zga ko'ringan namoyondasi bo'lib qoladi. Axir uning insonni adolatsizliklardan, yomonliklardan qutqarish yo'lini izlash g'oyalari asosida buyuk gumanistik maqsadlar yotar edi.

yilda Salox Abd Sabur Toshkentdagi umumxalq uchrashuvida ishtirok etgan. Salox Abd Sabur 1981 yilda vafot etgan. To oxirgi kungacha, u Hindistondagi elchixonada madaniyat ishlari maslahatchisi bo'lgan. Siyosatda Saodatning ziyolilarga nisbatan olib borgan «ommaviy tozalash» ishlari uni chetlab o'tdi. Aksincha, u Saodat siyosatini chet el mamlakatlariga tanishtirar edi va ular Bilan hamkorlikda ish olib borar edi. Ammo bu ishlari uchun xalqi oldidagi vijdon azobi uni o'lgunicha tark etmagan. Bu kayfiyat va hayotini behuda o'tkazganlik hissi quyidagi qatorlarda sezilib turadi:

Ox, zulmatning qizg'ish rangi

Ox, mendan kechgan hayotim rangi

Umr kechdim estaliklarimda.

*Kun payxon qilgani kabi
Tun ham uni yakson etdi.*

YoKI

*Biz- vaqt qulligidamiz
Qurlarcha sargardonmiz
Tor yo 'lak bo 'ylab yurib
Butunlay maqsadsizmiz.*

«Fallox o'limi» she'rida u maqsad sari intiluvchi ammo oddiygina Misr dehqoni haqida yozadi:

*Hech o 'limni shoshirmasdi
Bizlar kabi
Har tong olam yorishardi yerda
H o 'zi atrofida shovqin ko 'tarmasdi
Bizlar kabi u Bunga hech vaqt topolmasdi.*

Ushbu qatorlardan ko'rinib turibdiki, bu Arab Sharqining iste'dodli shoiri, hayoti so'ngida o'zining abstrakt gumanizm g'oyalariga tayanishini va ularning hozirgacha dolzarb muammo ekanligini tushundi.

Nazorat topshiriqlari:

1. Salax Abd as-Sabur she'rlarida so'z san'atiga e'tibor bering.
2. Ijod bosqichlarida shoirning poetikasi qaysi tomonga o'zgardi?
3. Salox Abd as-Saburni tasavvur bilan qaysi jihatlari yaqinlashtiradi.

Mustaqil ish mavzulari:

1. "Mamlakatim odamlari" she'riy to'plamga tayanib Salox Abd as-Sabur she'rlarini tahlil qiling.
2. Salox Abd as-Sabur ijodiy evolyusiyasi.

Asosiy adabiyotlar:

3. Salox Abd as-Sabur. An-nas fi Biladiy. –Qohira, 1965.
4. Xodjayeva R.U. Ocherki razvitie yegipetskoy poezii. –T.:Fan, 1985.
5. Kirpichenko V.N., Safronov V. Yegipetskaya literatura vo 2 polovine XX veka. –M.:Nauka, 2003.

Qo'shimcha adabiyotlar:

3. Kirpichenko V.N., Safronov V. Sovremennaya yegipetskaya literatura. Ch.2., –M., 2002.
4. Xodjayeva R.U. Ocherki razvitie sovremennoy yegipetskoy poezii. –T.:Fan, 1985.

MA'RUZA №20. AMAL DUNQUL SHE'RIYATI POETIKASI

Darsning maqsadi: mashhur arab shoiri Amal Dunqul she'riyati, uning obrazlar tizimi, baytlarini shakli va asarini kompozitsiyasi bilan tanishish.

Tayanch iboralar:

"Qarshilik shoirlari", rivoyat va asotirlar, obrazlar tizimi, mubolag'a, ramz, Antara, Zarqa al-Yamama.

Nazorat savollari:

1. Amal Dunqul-"qarshilik shoirlari amiri" deb nega atalgan?

2. Amal Dunqulning ijodini o‘ziga xosligi nimada?
3. Hozirgi arab adabiyotida Amal Dunqul ianday uirin tutadi?

«She’riyat voqelik bilan birga harakat va qarshi harakat, kabul kilish va rad etish konuniga binoan rivojlanadi. Shu tariqa haqiqat tug‘iladi. Shoir jamiyatda narsalar va hodisalarning mavjud tartibiga doimiy opponent rolini o‘ynaydi, uni yaxshilash, takomillashtirishga harakat qiladi. Zero shoirning maqsadi - orzuni voqelikka, voqelikni esa orzuga aylantirishdir»¹ - taniqli misr shoiri Amal Dunqul shunday yozgan va o‘zi yozgan narsalarga amal qilib yashagan.

Amal Dunqul 1941 yilda Misrning Kena viloyatidagi al-Kala kishlogida tugilgan. Uning bolaligi yaydoq chul sharoitida, sillani quritadigan og‘ir mehnat bilan uttan. 1950 yilda otasi vafot etgach, oilani bokish tashvishi tukqiz yashar bolaning yelkasiga tushgan.

Amal Dunqul 60-yillarda o‘z asarlarini chop eta boshladi. Oradan o‘n yil o‘tgach, u Misrning eng mashhur yosh adiblaridan biriga aylandi. Ularning orasida ekzistensializmga qiziqish ancha kuchli edi. Amal Dunqul tirik paytda uning to‘plamlari vatanida kam chop etilgan. U Bayrutda nashr etilgan asarlari tufayli adib sifatida shuhoat qozongan. Misrda uning asarlari ogir kasallikdan so‘ng yuz bergan o‘limidan keyingina keng chop etila boshladi.

Amal Dunqulning shaxsiy hayot tajribasi uning she’riyatida o‘z aksini topgan. Yuksak grajdanlik burchi, vatanparvarlik insonparvarlik oddiy inson muammolariga kizikish, erkinlik va adolatga intilish grajdan va shoir Amal Dunqul hayotining leytmotividir.

Amal Dunqul shoir sifatida 22 yoshidayoq rasmiy darajada e’tirof etilgan. U Adabiyot va san’at ishlari buyicha oliy kengashning 30 yoshga to‘lmagan shoirlarga beriladigan mukofotiga sazovor bo‘lgan. To‘g‘ri, buning uchun Amal Dunqul mazkur tanlovga an’anaviy klassik qasida yozishiga ham to‘g‘ri kelgan. Shoirning o‘zi bu haqda shunday deb yozadi: «Mukofot menga aruz vaznida bitilgan qasida uchun berildi (qasida amudiyya – aruz vaznga va yakka qofiyaga to‘la amal qilgan she’r). Men uni shoir sifatida tan olinish uchun yozdim. Shu tariqa men «yangi she’riyat» tarafdorlari an’anaviy texnikani ishlatmasalar-da, lekin uni yaxshi bilishlarini namoyish qildim»².

Amal Dunqul o‘ziga adabiy mukofot berilganidan keyingi yillarda yuz bergan «sukut saqlash davri»ga izoh berar ekan, shunday deb yozadi: «Men shoir she’r yozishga qodir inson bo‘lishining o‘zi kifoya emasligini angladim. Mafkura va madaniyatda juda ko‘p oqimlar mavjud va men ular bilan tanishishga qaror qildim. Shu sababli 1962 yildan 1966 yilgacha men she’riyat bilan shug‘ullanmadim, bu davrda men o‘z umrimni tinimsiz mutolaada o‘tkazdim»³.

Shundan so‘ng Amal Dunqulning «Ta’lik ala ma xadasa» («Yuz bergan voqeaga sharx», 1971), «Maqtal al-qamar» («O‘ldirilgan oy», 1974), «Al-ahd al-ati» («Kelayotgan davr», 1975), «Maktal Kulayb au al-Vasaya al-ashara» («Kulaybning o‘ldirilishi yoki O‘n vasiyat», 1976), «Axadis fi gurf a (vasiyat)

¹ Дункул А. «Ибда» журналига интервью. 1983 йил октябрь.

² Дункул А. «Ибда» журналига интервью, 1983 йил октябрь.

³ Дункул А. «Хаводис» журналига интервью, 1982 йил 16 апрель.

mug‘laka» («Eshigi berk xonadagi so‘zlashuvlar», 1978) to‘plamlari oldinma-ketin chop etildi. Bu to‘plamlardan o‘rin olgan she‘rlar, shuningdek Amal Dunqulning keyingi davrdagi asarlari shoirning ulimidan keyin 1983 yilda nashr etilgan asarlar to‘plamidan o‘rin oldi.

1978 yilda prezident Anvar Sadat tomonidan imzolangan Kemp-Devid bitimlariga javoban yozilgan «La tusali» («Sulh tuzma») va Maktal Kulayb au al-Vasaya al-ashara» («Kulaybning uldirilishi yoki O‘n vasiyat») qasidalarini Amal Dunqulga ayniqsa katta dovuq keltirdi. Qasidalar arab mamlakatlarida chiqadigan ko‘pgina gazetalarda chop etildi va tez orada Isroil bilan tuzilgan separat sulh muxoliflari uchun o‘ziga xos chorlovga aylandi.

Rasmiy siyosatdan norozilik 1972 yilgi talabalarning namoyishlarini qo‘llab-quvvatlash shunga olib keldiki, Amal Dunqul qariyb o‘n yil muddatga radio va teleefirdan uzoqlashtirildi, hukumat gazetalari uning asarlarini chop etmay qo‘ydi. «Shoir jamiyatda narsalar va hodisalarning mavjud tartibiga doimiy opponent rolini o‘ynaydi, uni yaxshilash, takomillashtirishga harakat qiladi»⁴ - Amal Dunqul shoirning xalq, jamiyat oldidagi vazifasini shunday tushuntiradi.

Amal Dunqul biron-bir partiya yoki siyosiy guruh a‘zosi bo‘lmagan. Uning fikricha, shoir biron-bir partiya yoki guruh manfaatlarini ifoda etishi - uning ichki ma‘naviy e‘tiqodi mahsuli. Misrga va arab millatiga, ijtimoiy adolat va taraqqiyot g‘oyalariga sodiqlik oddiy insonga e‘tibor - shoir Amal Dunqul ijodining asosiy motivlari. 1972 yilgi talabalarning norozilik chiqishlari paytida e‘lon qilingan «Ugniya al-ka‘ka al-xajariyya» («Tosh non haqida qo‘shiq») qasidasining quyidagi misralarida shoirning kayfiyati aniq aks etgan:

“Al-ard... va-l-jurx allazi la anfatix” (“Er ... va ochilmaydigan qalb jarohati”, 1966) she‘ri 1967 yilgi mag‘lubiyatdan so‘ng bashoratnamo she‘r sifatida baholandi. 1967 yil iyuni voqealariga javoban Amal Dunqul “Al-Buka’ bayna naday Zarka al-Yamama” (“Zarka al-Yamama qarshisidagi yig‘i”, 1967) qasidasini yozdi. Shoirning birinchi to‘plami (1969) ayni shu nom bilan chop etildi va Amal Dunqulning shuhrati butun arab dunyosiga yoyilishiga sabab bo‘ldi. To‘plamdan o‘rin olgan bu va boshqa qasidalarda shoir ramzlar va mubolag‘alardan foydalanib, rasmiy shiorlarning soxtaligini, urush arafasida Misr jamiyatida mavjud bo‘lgan va mamlakatni urushda mag‘lubiyatga olib kelgan tanazzulni fosh qiladi, urushda halok bo‘lganlar xotirasini yodga oladi. “Protez” deb nomlangan qasidada shoir urushdan nogiron bo‘lib qaytgan yosh yigitning fojiasi haqida oddiy, tushunarli tilda hikoya qiladi. Shoir qahramonga qo‘shilib yig‘laydi: “...Meni ulkan qayg‘u o‘z komiga tortdi, achchiq ko‘z yoshlar bo‘g‘zimga tiqildi”⁵.

Amal Dunqul Misrda «yangi she‘riyat salafarlari» Saloh Abd as-Sabur va Abd al-Mu‘ti Xigaziy o‘rniga kelgan avlodning eng taniqli shoiriga aylandi. «Uning she‘rlariga xatto salafar she‘riyatida ham kam uchraydigan xalqchilik xos», deb qayd etadi Amal Dunqul haqida Nasim Magliy. U Amal Dunqulni «qarshilik shoirlari amiri» («amir shu‘ara ar-rafd») deb nomlagan.

2. Amal Dunqul ijodi tanqidchilar «qarshilik shoirlari» («shu‘ara ar-rafd») degan nom bergan shoirlar guruhining kayfiyati haqida ancha aniq tasavvur hosil

⁴ Дункул А. “Ибда” журналига интервью, 1983 йил октябрь.

⁵ Дункул А. Махтарат Амал Дункул.

qilish imkonini beradi⁶. Ularning she'riyati o'z ohangiga ko'ra g'amgin, qayg'uli va achchiq hasrat ruhi bilan sug'orilgan. Bu hasrat Misr xalqining achchiq qismati bilan bog'liq.

«Norozilik» shoirlari rivojlangan arab mamlakatlarini 40-yillarning oxirlaridan boshlab qamrab olgan keng adabiy harakat – “yangi she'riyat”ning ikkinchi avlodiga mansub. She'riyat yo'liga ziddiyatlarga to'la, og'ir davrda qadam qo'ygan bu shoirlar o'zlarining yoshligiga qaramay o'z asarlarida Ahmad Xigaziy, Saloh Abd as-Sabur, Nagib Surur va oldingi avlodning boshqa taniqli shoirlari ijodining dastlabki davriga xos bo'lgan romantik ruhni chetlab o'tdilar.

«Norozilik» shoirlarida Misr inqilobi, mamlakatda misrliklar hayotini yaxshi tomonga o'zgartirishga qodir bo'lgan tub o'zgarishlar yasash, yangilanish jarayonlariga bo'lgan umid allaqachon so'ngan. Misr voqeligiga nisbatan bunday tanqidiy yondashuv 1967 yil iyunda Isroil bilan bo'lgan urushda Misrning mag'lubiyati natijasida yanada kuchaydi.

Amal Dunqul ijodi avvalboshdan uning tasavvurida o'z xalqiga nisbatan zo'ravonlik qonunsizlik korrupsiyani o'zida mujassamlashtirgan, og'ir sinovlar davrida zaiflik va irodasizlik qilgan hukmron davrlar, byurokratik apparatga qarshi satirik ruh bilan sug'orilgan. Amal Dunqulning «Zarka al-Yamama qarshisidagi yig'i» deb nomlangan mashhur she'ri ayni shu mavzuga bag'ishlangan. U 1967 yil iyunidagi urushdan keyin oradan bir necha kun o'tgach, Misr armiyasining misli ko'rilmagan mag'lubiyati va Sinay bosib olinishi natijasida yuz bergan shokdan mamlakat hali o'ziga kelib ulgurmagan paytda paydo bo'ldi.

Zarqa al-Yamama - arab rivoyatlarining mashhur personajlaridan biri, juda o'tkir qurish qobiliyatiga ega bo'lgan ayol. Rivoyatlarga ko'ra, u har bir buta va daraxt ortida arab qabilalarining azaliy dushmani -Eron podshosining sahroda qo'qisdan paydo bo'lgan askarlari o'rmonini qurgan va qabila oqsoqollarini xavfdan ogoh etgan. Ammo ular ayolga ishonmaganlar, uning ustidan kulganlar va o'z huzuridan quvib chiqarganlar. Dushman arablar ustiga qo'qisdan bostirib kelgan, erkaklar qilichdan o'tkazilgan, ayollar va bolalar asir olingan va haydab ketilgan. Dushman bashoratgo'y ayolning ko'zini o'yib olgan. Zarka al-Yamama obrazi yunon mifologiyasidagi folbin Kassandra obrazini eslatadi: ma'lumki, u ham Troyaning halokatini bashorat qiladi, hech kim uning gapiga ishonmaydi, lekin bashorati o'ngidan keladi.

Amal Dunqul Zarka al-Yamama obrazidan u bilan boshqa bir obraz -islom dini paydo bo'lishidan oldingi davrda yashagan, ko'pgina arab rivoyatlarining qahramoniga aylangan Antara (525-615) obraziga soya tashlash uchun foydalangan. Joriya va qabila shayhining o'g'li bo'lgan Antara o'zining ko'p sonli fazilatlarini yordamida oddiy cho'pondan o'z qabilasi lashkarining sarkardasi darajasiga ko'tarilishga muvaffaq bo'lgan. Amal Dunqulning qasidasida u o'z mamlakatida ovoz berish huquqidan mahrum etilgan va uni boshqarishga qo'yilmagan Misr xalqini aks ettiradi. Mag'lubiyat sabablarini Amal Dunqul xalq sukuti va uning muteligi bilan tushuntiradi.

⁶ Луис Авад. Шуъара ар-радф. Аль-Ахрам. 1973 йил 7 июль.

«Zarka al-Yamama qarshisidagi yig'ib» she'rini jamoatchilik Kamol Abdul Nasrga qarshi to'g'ridan-to'g'ri huruj sifatida qabul qildi. Ammo bu yanglish fiqo edi, shoir Misr Respublikasining birinchi prezidentiga, Misr xalqining buyuk o'g'loni xotirasiga chuqur ehtirom bilan qarardi. Bu huruj prezidentni qurshagan muhitga, o'zi va xalq o'rtasida o'tib bo'lmaydigan devorni vujudga keltirgan byurokratik amaldorlar apparatiga qarshi qaratilgan edi. Bu davlat muassasalarida hukm suruvchi korrupsiya va xalq, taqdiriga loqaydlikka qarshi huruj edi.

Amal Dunqul asarlarida urushda mag'lubiyat, arablarning hamjihat emasligidan, ular o'z umumiy manfaatlarini himoya qilish uchun bir yoqadan bosh chiqara olmayotganidan qattiq kuyinish va g'am-hasrat hissi seziladi. Arab dunyosidagi hozirgi holatlarga shoir o'tmishdan tarixiy analoglarni topadi. Masalan, «Abu Muso al-Ash'oriy bilan suhbat» qasidasida uning qahramoni - o'rta asrlarda yashab ijod qilgan shoir Misr podshosi Kafur va Xaleb amiri Sayf ul-Davla umumiy dushman - vizantiyaliklarga qarshi birlashish o'rniga bir-biri bilan urushayotgani tufayli Qohiradan o'z ona shahri Xaleb (Aleppo)ga qayta olmaydi. Kafur - X asrning o'rtalarida taxtni qonuniy merosxo'rdan tortib olib, Misrda podsholik qilgan real tarixiy shaxs. U mashhur shoir Abu-t-Toyyiba al-Mutanabbiy (915-965)ni, agar u saroyini tark etgudek bo'lsa, o'zini masxaralovchi she'rlar yozishidan cho'chib, bir necha yil mobaynida fahriy asirlikda saqlagan⁷.

Kafir amalda ikki marta mazahlangan - al-Mutanabbiy tomonidan (Dunqulning qasidasida u - Abu Muso al-Ash'oriy) va hozirgi davrda Amal Dunqul tomonidan.

Dunqul poeziyasi majozlar, o'xshatishlar, ramzlar va tarixiy analoglarga boy. Ba'zan maxsus tayyorgarlikka ega bo'lmagan kitobxon uning asarlari semantikasini tushunishi qiyin.

Amal Dunqul «boshqa arab mamlakatlarida «yangi she'riyat»ning rivojlanish darajasini belgilagan yutuqlarni o'zlashtirgan va o'ziga xos ijodiy uslubga ega bo'lgan»⁸ shoirlar qatoriga kiradi. Amal Dunqul ijodini o'rgangan adabiyotshunos Sayyid al-Bahraviy Misrda «yangi she'riyat»ning amalda shakllanishini ayni shu shoirning ijodi bilan bog'laydi. Amal Dunqul o'zlashtirgan yangi prinsiplar orasida Sayyid al-Bahraviy quyidagilarni qayd etadi:

1. «Aniq va tiniq ohanglarni yaratuvchi oddiy sof hajmlar»ni tanlash. Shoir she'rlarining taxminan 35% zamirida rajaz, 32% zamirida mutadarik, 14% zamirida ramal, 6% zamirida mutakarib va komil, 4% zamirida vofir yotadi.
2. Qofiya boshqa shoirlarga qaraganda ko'proq ishlatiladi.
3. Qasidada qofiyaning o'rni she'rning ohangini kuchaytirishi lozim.
4. Amal Dunqul she'rlariga o'ziga xoslik baxsh etuvchi, ularni boshqa shoirlarning she'rlaridan osongina ajratish imkonini beruvchi alohida ohang⁹.

Amal Dunqul ijodiy betakrorligining boshqa bir elementi –mifologik motivlar, obrazlarga, yanada kengroq olib qaraganda, arab va yevropa madaniy merosiga tayanish. Shoirning qasidalarida ramziy obrazlar sifatida qullar qo'zg'olonining sardori Spartak qabiladoshlarini yaqinlashayotgan xavfdan ogoh etgan qadimgi

⁷ Ханна аль-Фахурий. История арабской литературы. Т.2. –М.: Иностранная литература, 1961. –Б.95.

⁸ Кирпиченко В.Н., Сафронов В.В. История египетской литературы XIX-XX веков. Т.2. –М., 2003. –Б.65.

⁹ Ал-Бахравий С. Ал-Хадаса ал-арабиййа фи ши'р Амал Дункул (Амал Дункул ше'риятида араб модернизми). –Байрут-Уммон, 1966. –Б. 113-136.

bashoratgo'y ayol Zarka al-Yamama, o'ldirilishi «Al-Basus xolaning tuyasi tufayli» urush boshlanishiga sabab bo'lgan qadimgi rivoyatlar personaji Kulayb, tarixi Injil va Qur'onda keltirilgan payg'ambar Nuh (Noy), mashhur shoirlar Antara ibn Shadad, Abu Nuvas, al-Mutanabbiy, salb yurishlari ishtirokchilarini yenggan Saloh ad-Din amal qiladi. Amal Dunqulning qasidalarida hozirgi tarixning taniqli shaxslari - 1968 yil Los-Anjelesda Robert Kennedini o'ldirgan Sirxan Sirxan, misrlik sarkarda, 1973 yilgi urush ishtirokchisi Mazin Abu Gazala ham bor.

Shoir tarixiy personajlarni ular hayotining fojiali davrida, ular mag'lubiyatga uchrab, o'zlarini tarix qahramonlariga aylantiruvchi fazilatlarini namoyon etuvchi paytda tasvirlaydi.

Sayyid al-Bahoaviy Amal Dunqul ijodining asosiy mavzularini yoritarkan, jumladan, uning «mag'lubiyat pallalari» (laxayaat al-xazima)ga, o'z hayotidan ayrim lavhalarga qilgan murojaatlarini qayd etadi.

Amal Dunqul o'z ijodida Abd al-Mu'ti Xigaziy tufayli misr she'riyatida yetakchi o'rinlardan birini egallagan shahar mavzusini ham chetlab o'tmagan. Ammo uning shahar hayotiga bo'lgan munosabati Xigaziyniki kabi aniq va uzil-kesil emas. Aynan shaharda u adabiy muhitni topgan, shoirlar yig'ilib, bir-birlariga o'z she'rlarini o'qiydigan qahvaxonaga tez-tez kelib turgan. Ayni vaqtda XX asrning ikkinchi yarmida yashab ijod qilgan arab shoirlaridan aksariyatining ijodida yetakchi o'rinlardan birini egallagan kichkina odam ulkan megapolisda o'zini yo'qotishi motivlariga Amal Dunqul asarlarida ham duch kelish mumkin. Shaharliklar atrofda hech kimni va hech narsani, hatto osmondagi oyni ham payqamaydilar. Shoirning 1974 yilda chop etilgan to'plamining nomi shundan kelib chiqqan: «O'ldirilgan oy». Amal Dunqul katta shahar haqidagi taassurotlarini shunday ifodalaydi:

Katta shaharlarda odamlar –vaqtning yurishiga o'xshaydi:

To'xtamaydilar,

Kechikmaydilar,

Og'ishmaydilar -

Mexanizmlar, mexanizmlar, mexanizmlar¹⁰.

Amal Dunqul asarlarining poetik tili o'zining soddaligi va ravonligi bilan ajralib turadi. Muallif hamma tushunadigan oddiy so'zlar bilan she'riy fikrni kitobxonga yetkazishga harakat qiladi. Amal Dunqul o'z she'rlarida mubolag'a, majoz, afsonaviy timsollar va ramzlardan keng foydalansa-da, lekin uning poetik leksikasi aniq va tushunarli. U murakkab so'z birikmalarini, mavhum o'xshatishlarni yoqtirmaydi, tushunish qiyin bo'lgan iboralar, xayratomuz obrazlar, so'z o'yinlarini chetlab o'tadi. Ammo bu alohida mahorat va iste'dod bilan erishiladigan soddalik va tushunarlilikdir.

Ko'pgina arab adabiyotshunos olimlari, munaqqidlar va shoirlar Amal Dunqul ijodini va uning hozirgi zamon she'riyatidagi rolini yuksak baholaydilar.

Yaman shoiri Abd al-Aziz al Mukalix Amal Dunqulning she'rlarini «soddalik madhiyasi» deb hisoblaydi, misr shoiri Faruk Shusha uni «arab millatining haqiqiy shoiri» deb ataydi¹¹.

¹⁰ Дункул А. Ўлдирилган ой. –Қоҳира, 1974. –Б.43.

Magliy N. Amal Dunqulni «o‘z davrining shifokorlari sanalgan shoirlar» - Federiko Garsia Lorca, Nozim Hikmat, Pablo Neruda bilan bir qatarga qo‘yadi¹².

Amal Dunqul vafotidan sung misr shoiri Sayyid Talab uning xotirasiga bag‘ishlab yozgan maqolasida shunday dedi: «Saraton kasalligi Amal o‘limining bevosita sababi bo‘ldi. So‘nggi olti yil ichida Nagib Surur, Fauazi al-Antil, Saloq Abd as-Sabur, ulardan oldinroq - Ali Kindil va Abd as-Sabur Munir kabi misrlik shoirlar oldinma-ketin vafot etdilar, endi Amal Dunqul bizni tark etdi. Bunda qandaydir ilohiy qonuniyat ko‘zga tashlanadi. Agar bu qayg‘uli ro‘yxatga ko‘p sonli publisistlar, mutafakkirlar va olimlarning ismlarini qo‘shsak ularning vafoti bejiz emasligi ayon bo‘ladi. Buning sababi shundaki, biz hammamiz va har birimiz jiddiy ijtimoiy sinov va madaniy inqirozga, erkinlik adolat va tenglik tamoyillariga zid bo‘lgan voqelikka duch keldik. Hozirgi hayot fojialari ulkan iste’dod egalariga birinchi bo‘lib o‘z ta’sirini o‘tkazdi»¹³.

Mashhur misr shoiri Abd al-Mu’ti Xigaziy Amal Dunqulni «davr shoiri» deb nomladi¹⁴. Nufuzli munaqqid Sami Xashaba esa shunday dedi: «Amal Dunqul - bu shoir nomigina emas, balki davr ramzi, ulkan ma’naviy va adabiy tajriba timsolidir»¹⁵.

Nazorat topshiriqlari:

1. Amal Dunqul ijodida tarixiy shaxslar obrazlarini aniqlang.
2. Amal Dunqulning poetik tilini izohlang.
3. Shoirni obrazlar tizimiga xarakteristika bering.
4. Shoir she’rlari shaklini tahlil qiling.

Mustaqil ish mavzulari:

1. Amal Dunqul “Zarqa al-yamama qarshisida yig‘i” qasidasini tarjima qiling va poetikasini tadqiq eting.

Adabiyotlar:

1. Amal Dunqul. Asarlarini to‘la to‘plami. –Qohira, 1982.
2. Kirpichenko V.N., Safronov V. Yegipetskaya literatura vo 2 polokine XX veka. –M.:Nauka, 2003. Bultakov I. Amal Dunqul ijodi. –T., 2006.

GLOSSARIY

ADABIY AN’ANA - o‘tmish adabiyoti to‘plagan ijodiy tajribalar qaymog‘i, davrlar o‘tishi bilan ahamiyati va dolzarbligini yo‘qotmagan, boqiy qadriyatga aylanib, avloddan-avlodga o‘tib ke-layotgan qismi. Demak, A.a. doirasiga o‘tmish adabiyoti erishgan yutuqlar, to‘plagan tajribalarning hammasi ham emas, balki uning muayyan davr ijodkorlari tomonidan dolzarb deb topilgan, boqiy qadriyat sifatida baholangan va o‘z ijodiy faoliyatlarida namu-na deb hisoblagan qismigina kiradi. Adabiyotdagi *vorisiylik*, A.a.larga sodiqlik milliy adabiyotdagi o‘ziga xoslik, milliy qiyofani yo‘qotmaslik kafolatidir. Tabiiyki, boy A.a.ga tayangan ada-

¹¹ Иқтибос қуйидаги китобдан олинди: Мағлий Н. Амир шу’ара ар-радф Амал Дункул. –Б.16.

¹² Ўша ерда. –Б.17.

¹³ Ад-Дауха. 1982 йил июль, –Б.5.

¹⁴ Ал-Маукиф ал-арабий. Никосия. 1983 йил 30 май.

¹⁵ “Ибда”. 1983 йил октябрь

biyotning rivojlanish imkoniyatlari boshqalarga nisbatan yuqori bo‘ladi. Mas, xalqimizning boy adabiy-madaniy an‘analari XX asr boshlarida kuzatilgan yangi o‘zbek adabiyotining shakllanish jarayoni tez kechishini ta‘minladi.

ADABIY YO‘NALISH (ruschadan kalka: "literaturnoe napravlenie", "literaturnoe techenie") - adabiy jarayon bilan bog‘liq kategoriya. A.y. tushunchasi *hayotni badiiy aks ettirish prinsiplari, metod va uslub* tushunchalari bilan bevosita bog‘liq, u badiiy tafakkur tarzi, metod va uslub kesishgan nuqtada yuzaga keladi. Adabiyot taraqqiyoti, badiiy tafakkurning rivojlanish tamoyillari A.Y.-lar almashinuvi, ular orasidagi kurashda ochiq namoyon bo‘ladiki, shu jihatdan A.y. adabiy jarayonni o‘rganishdagi muhim adabiy-estetik kategoriya sanaladi. Mas, Yevropa adabiyotida *klassisizm* yo‘nalishining g‘oyaviy-estetik prinsiplari bilan ziddiyat, bir tomondan, *barokko*, ikkinchi tomondan, *ma‘rifatparvarlik realizmit* maydonga chiqardi, o‘z navbatida, keyincha xuddi shunday zid-diyatlar asosida *romantizm* va *tanqidiy realizm* yo‘nalishlari yuzaga keldi.

ADABIY MAKTAB (ruschadan kalka: "literaturnaya shkola") -adabiy yo‘nalish ichidagi hodisa, muayyan g‘oyaviy-estetik qarashlar, ijodiy prinsiplarni dasturiy tarzda qabul qilgan ijodkorlar guruhi. Mas, fransuz romantizm adabiyotidagi "Parnas" guruhi shunday ijodkorlarni birlashtirgan bo‘lib, "parnas"chilarning g‘oyaviy-estetik qarashlari, ijod namunalari "Yangi Parnas" nomi bilan chop etilgan to‘plamlarda o‘z aksini topgan. XX asr boshlarida rus adabiyotida maydonga chiqqan *modernistik* yo‘nalish ichida *simvolizm*, *akmeizm*, *futurizm* kabi *oqimlar*, futurizm oqimi ichida esa, mas, *kubofuturizm* deb yuritiluvchi adabiy maktab bo‘lgan. V.Xlebnikov, V.Mayakovskiy singari iste‘dodli ijodkorlarni birlashtirgan kubofuturistlarning "Gileya" guruhi o‘z adabiy-estetik qarashlari, ijodiy prinsiplarini "Jamiyat didiga tarsaki" nomli manifestda e‘lon qilgan.

ADABIY OQIM (ruschadan kalka: "literaturnoe techenie") -adabiy jarayon bilan bog‘liq kategoriya, muayyan davr adabiyotidagi adabiy yo‘nalishning bir ko‘rinishi, o‘ziga xos bir varianti. Tipo-logik umumiylik bir yo‘nalishga mansub ijodkorlarning ham g‘oyaviy yoki estetik jihatdan o‘ziga xos tomonlari bo‘lishini inkor qilmaydi. Ya‘ni bir yo‘nalish doirasidagi asarlarda turlicha ideallar, dunyoqarash aks etishi, badiiy-estetik prinsiplarda muayyan farqlar kuzatilishi tabiiy hodisadir. Bu narsa bir yo‘nalish ichida alohida guruhni tashkil etayotgan ijodkorlarga xos tipologik umumiylik haqida, adabiy yo‘nalishning varianti sifatida bo‘y ko‘rsatuvchi A.o. haqida gapirishga imkon beradi. Mas, *barokko* yo‘nalishining varianti sifatida ispan adabiyoti-dagi *gongorizm*, italyan adabiyotidagi *marinizm* yoki fransuzlar-ning *presioz adabiyotit* ko‘rsatish mumkin. Deylik, *gongorizm* g‘oyaviy-estetik prinsiplari (Uyg‘onish davri ideallariga ziddlik, uslubning jimjimadorligi, obrazlarning metaforikligi) jiha-tidan barokkoga mansub etiladi, ayni chog‘da, unda arab she‘riyati ta‘sirida bu xususiyatlar (majoziylikning o‘ta kuchayishi, uslub-ning murakkablashuvi, fikrni yashirin ifodalash, fikrni zakiy-lik bilan aytishga intilish va b.) o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

ADABIYOT TARIXI - adabiyotshunoslik fanining asosiy sohalaridan biri. A.t.ning predmeti - o‘tmish adabiyoti bo‘lib, uni jarayon yoki shu jarayonning bir bo‘lagi (bosqichi) sifatida tadqiq etadi. A.t.ning asosida tarixiylik prinsipi yotadi.

Tarixiylik prinsipi adabiy jarayonni konkret ijtimoiy-tarixiy sharoit bi-lan bog'liq hodisa sifatida o'rganishni taqozo etadi. Ya'ni A.t. o'tmishdagi adabiy hodisalarni, yaratilgan asarlarning g'oyaviy-mazmuniy xususiyatlarini belgilagan, badiiy tafakkur rivoji, poetik usul va vositalarning o'zgarishi va sh.k.larga asos bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy omillarni ochib beradi. A.t. nuqtai nazaridan konkret badiiy asar tahlil qilinganida ham, o'sha asar yaratilgan davr sharoiti, davr adabiy jarayoni xu-susiyatlarini nazarda tutish shart qilinadi. A.t.ni qiziktiradigan masalalardan yana biri konkret ijodkor faoliyatini o'rganishdir. Ijodkor faoliyatini o'rganganda, uning ijodiy o'sish jarayonini kuzatganda ham asosga qo'yilgan prinsip tarixiylik bo'lishi lo-zim. A.t. o'tmish adabiyoti xususiyatlarini ochib berarkan, birinchi-dan, o'tmish adabiyoti tajribalarini bugungi adabiyot xizmatiga safarbar etadi, ikkinchidan, keng ko'lamli nazariy xulosalar chiqarish uchun zarur material hozirlaydi. Shunga ko'ra, A.t. badiiy tafakkur taraqqiyotida ham, adabiy-nazariy tafakkur rivojida ham katta ahamiyat kasb etadi.

ADABIY TA'SIR (ruschadan kalka: "literaturnoe vliyanie") -adabiy jarayonda tabiiy ravishda va qonuniyat maqomida mavjud bo'lgan, badiiy tafakkur rivojida muhim ahamiyatga molik hodisa. A.t. adabiy-badiiy hodisalarning zamon va makondan qat'i nazar, o'zaro aloqada yashashi oqibati o'laroq voqe bo'ladi. Demak, A.t. bit-ta milliy adabiyot yoki adabiyotlararo aloqalar, bir davr ada-biyoti yoki turli davrlar adabiyoti doirasida ham kuzatiladi. Shunga ko'ra, A.t.ning ko'lamli va darajasi turlicha (umumiy va shaxsiy) bo'lib, ular bir qator omillarga bog'liqdir. Ma'lumki, A.Qahhor ijodida, ayniqsa, uning ilk hikoyalarida rus adibi A.P.Chexov asarlarining ta'siri yaqqol seziladi. Chinakam iste'dod egasi sifatida A.Qahhor salafiga ijodiy ergashish bosqichidan u bilan ijodiy musobaqalashish darajasiga ko'tarila oldi. Alisher Navoiy ijodining ta'siri mumtoz she'riyatimizning undan keyin qalam tebratgan deyarli barcha namoyandalari ijodida seziladi. Deylik, Munis va Ogahiy ijodida bu ta'sir bo'rtib ko'zga tashlansa, boshqa ijodkorlarda yaqqol ko'rinuvchi ta'sir alomatlar kamroq.

Umuman olganda, adabiy aloqalar va ularning hosilasi bo'lmish A.t. adabiyot taraqqiyotida ijobiy hodisa sanaladi. Adabiy aloqa va A.t. tufayli u yoki bu milliy adabiyot taraqqiyotida sezilarli sifat o'zgarishlari, keskin siljishlar kuzatilishi mumkin.

ADABIY TANQID (ar. - ■& muhokama qilish, saralash) - adabiyotshunoslikning asosiy sohalaridan biri. A.t. hozirgi adabiy jarayon muammolarini o'rganish, yangi paydo bo'lgan asarlarni bugungi kun nuqtai nazaridan g'oyaviy-badiiy tahlil va talqin etish, baholashni maqsad qilib qo'yadi. A.t. adabiyotshunoslikning operativ, joriy adabiy jarayonga bevosita aralashadigan sohasidir. Aytish kerakki, A.t.ni adabiyotshunoslikning tarkibiy qismi sifatida tushunish umume'tirofga molik qarash emas. Ayrim mutaxassislar A.t.ni adabiyotshunoslik ilmining tarkibiy qismi emas, balki adabiy yoki publisistik ijodning bir turi deb hisoblaydilar. Bu narsa A.t.ning o'zigagina xos, adabiyotshunos muhimki, ularning yetarlicha anglanmasligi asarni chala, o'z mohiyatidan o'zgacha tushunishga olib kelishi mumkin. Zero, har bir qism butun talabiga mos kiritilgan, demak, qismlar orqali butun tushuniladi, qismning mohiyati butun tarkibidagina namoyon bo'ladi. Demak, B.a.ni o'qiyotgan

odamdan uning sistem butunlik ekanini hamisha yodda tutish, har bir qismni alohida va boshqa qismlar bilan aloqadorlikda, shuningdek, uni bir butun holicha ham tasavvur eta bilish talab qilinadi.

BADIIY OBRAZ - adabiyot va san'atning fikrlash shakli, olam va odamni badiiy idrok etish vositasi, badiiyatning umumiy kategoriyasi. Lug'aviy ma'nosida har qanday aksni bildiruvchi "obraz" so'zi turli fan sohalarida (falsafa, psixologiya) muayyan terminologik ma'noda qo'llanadi. Jumladan, estetika va adabiyotshunoslikda u "badiiy obraz" ma'nosida tushuniladi. B.o. deganda, borliq (undagi inson, narsa, hodisa va h.)ning san'atkor ko'zi bilan ko'rilgan va ideal asosida ijodiy qayta ishlangan ak-si tushuniladi. Albatta, bu aksda borliqning ko'plab tanish izlari bor, biroq endi u biz bilgan borliqning ayni o'zi emas, balki undan shartlilik asosida ajralgan yangi mavjudlik - badiiy borliqdir. Xuddi shu hol B.o.ni ob'ektiv va sub'ektiv ibtidolar birligiga aylantiradi. Ya'ni, bir tomondan, borliqning aksi si-fatida B.o. makon va zamonda mavjud bo'lgan konkret narsadek his etiladi. Ikkinchi tomondan, u tushuncha, tasavvur, faraz va sh.k. tafakkur unsurlariga xos xususiyatlarga ega: ijodkor B.o. vosita-sida fikrlaydi, borliqni oddiygina aks ettirmasdan, uni ijodiy qayta yaratadi. Shunga ko'ra, B.o.ning vujudga kelishini quyidagicha sxemada ko'rsatish mumkin: borliqning hislar orqali ongda akslanishi - tafakkur kuchi bilan o'z ma'naviy-ruhiy ehtiyojlariga mos ijodiy qayta ishlash va umumlashtirish - konkret his etiladigan tarzda (B.o. shaklida) ifodalash.

B.o.ning muhim xususiyatlaridan biri uning *ko'p ma'noliligi* bo'lib, bu uning *metaforikligi* va *assotsiativligi* bilan bel-gilanadi. B.o.ga xos "metaforiklik"ni "o'xshashlik" bilangina bog'lab qo'ymaslik lozim. Mas, Oybekning "Na'matak" she'ridagi tabiat manzarasini B.o. deb olsak, tabiiyki, uning birinchi ma'nosi tabiat manzarasining o'zi. Holbuki, o'z vaqtida shoir assotsiativ ravishda shu manzarada istibdod tuzumi sharoitidagi ijodkor taqdirini ko'rgan va shu ma'noni ifodalagan. Shu bilan birga, obrazning ma'no ko'lami shular bilangana cheklanmaydi: o'quvchi o'z hayotiy tajribasi, she'rni o'qish paytidagi ruhiy holati bilan bog'liq ravishda unda tamom boshqa mazmunni, o'z mazmunini ham topishi mumkin. B.o.ga xos shu xususiyat tufayli ham asarni turli davrlarda turlicha tushunish, uning zami-ridan yangi-yangi ma'nolarni ochish imkoni yaratiladiki, ayni shu narsa chinakam san'at asarini boqiylikka daxldor etadi.

BADIIY OBRAZ TURLARI - adabiyotshunoslikda badiiy obrazlar turlicha tasnif etiladi, bu turlichalik tasnif uchun qaysi jihat asos qilib olingani bilan bog'liqdir. Jumladan, ijodkor estetik ideali bilan munosabatiga ko'ra *ijobiy* va *salbiy* obraz-lar, ijodiy metodga ko'ra *realistik*, *romantik* va b., yaratilish usuliga ko'ra *fantastik*, *grotesk* va b., xarakter xususiyati va estetik belgisiga ko'ra *tragik*, *satirik*, *yumoristik* obrazlar farqlanaveradi. Shuningdek, ba'zan badiiy obrazning tasvir planidan kelib chiqib, *inson obrazi*, *jonivorlar obrazi*, *narsa-buyumlar obrazi* tarzidagi atamalar ham qo'llanadi. Albatta, il-miy muomalada bu kabi tasniflar, atamalar ham o'rni bilan ke-rak. Biroq mavjud tasniflarning hech biri badiiy obrazlarni to'la qamrab ololmaydi. Qamrov ko'lami kengroq tasniflardan biri badiiy obrazlarni 1) predmetlilik darajasi; 2) umumlashtirish darajasi; 3) tasvir

va ifoda qatlamlari munosabati (strukturasi)ga ko'ra guruhlashni (M.Epshteyn) ko'zda tutadi.

Umumlashtirish darajasiga ko'ra badiiy obrazning qator ko'rinishlari farqlanadi. Jumladan, inson obraziga tatbiqan *individual obraz*, *xarakter* va *tip* ajratiladi. Biroq ularning orasidagi farq doim ham yaqqol emas, bu xil tasnifda muayyan shartlilik saqlanib qoladi. Individual obraz deb o'ziga xos fe'l-atvori, gap-so'zlari, betakror xarakter xususiyatlari bilan namoyon bo'luvchi obraz tushuniladi. Xarakter esa muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim, xarakterli umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni o'zida mujassam etgan obrazdir. Muayyan ijtimoiy-tarixiy sharoit, davr va muhitga xos muhim xarakterli xususiyat-larni o'zida namoyon etgan obraz esa tip deb yuritiladi. Umumlashtirish darajasiga ko'ra badiiy obrazning yana adabiy-madaniy an'analar doirasida muayyan turg'un shaklga aylanib, asardan asarga ko'chib yurish xususiyatiga ega bo'lgan *motiv*, *topos*, *arxetip* deb yuritiluvchi ko'rinishlari ham ajratiladi. Motiv (motiv obraz) shakliy va mazmuniy jihatlardan muayyan turg'unlik kasb etgan, bir yoki bir necha ijodkorning asarlarida qaytarilib turishi bilan ularning ijodiy intilishlarini namoyon etib turuvchi obrazdir. Arxetip deganda esa inson tafakkuri, ijodiy tasavvuriga xos bo'lgan turg'un "sxema"lar, konstruksiyalar, qoliplar tushunilib, ularning izlarini eng qadimgi davrlardan boshlab to hozirgi adabiyotgacha ko'rish mumkin bo'ladi. Arxetip konstruksiya va sxemalardan o'ziga xos "syujet va syujet holatlari" jamg'armasi hosil bo'ladiki, ular asardan asarga, davrdan davrga ko'chib yuradi. Mas, "bulbul - gul -chaqirtikanak".

Yuqorida aytilganidek, badiiy obraz voqelikdagi narsa-hodisaning ijodiy qayta ishlangan aksi, shunga ko'ra, u o'sha narsa-hodisani konkret his etiladigan tarzda tasvirlaydi. Ayni chog'da, tasvirlangan narsa muayyan mazmunni ifodalashga xizmat qiladi. Demak, strukturasi ko'ra badiiy obraz tasvir va ifoda planlaridan iborat ekan. Badiiy obrazning tasvir va ifoda planlari bir-biri bilan turlicha munosabatda bo'ladi, shundan kelib chiqqan holda, *avtologik*, *metalogik* va *superlogik* obrazlar ajratiladi.

Adabiy yo'nalish-adabiy jarayon bilan bog'liq kategoriya. Bu tushuncha yaratni badiiy aks ettirish prinsiplari, metod, uslub tushunchalari bilan bevosita bog'liq, u badiiy tafakkur tarzi, metod, kslkb kesishga nuqtada yuzaga keladi.

Adabiy oqim- muayyan davr adabiyotidagi adabiy yo'nalishning bir ko'rinishi, o'ziga xos bir yo'nalish.

Dialog – ikki yoki undan ortiq shaxs orasidagi uzluksiz nutq shakllaridan biri. Dramada dialog dramatik holatni rivojlantiruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Didaktik adabiyot – axloqiy-ta'limiy xarakterga ega bo'lgan badiiy asarlar.

Drama - inson xakteri va taqdirini dramatik vaziyatda ko'rsatuvchi, hayotning murakkab damlarini qahramonlarning amaliyoti – harakatlari vaositada ifodalovchi sahna asari. Drama atamasi ikki ma'noda – biri adabiy tur, ikkinchisi dramatik janr ma'nosida ishlatiladi. Dramaning qahramoni hayotning o'zi bo'lishi kerak. Lekin drama epik xarakterda bo'lishiga qaramay, uning shakli yuqori darajada dramatik bo'lishi lozim. Dramatizm faqat suhbatda emas, bulki

gapiruvchilarning bir-biriga nisbatan harakatidadir. Dramada muhim narsa – uzundan-uzoq hikoyalarning yo‘q bo‘lishidir, har bir so‘z dramada harakat – amal bilan ifodalanishi lozim.

Komediya – ijtimoiy hayotning ayrim jihatlarini va kishilar hayotidagi, xarakteridagi nuqsonlarni, eskilik sarqitlari, qoloqlik va boshqalarni masxara qilish, ular ustidan xushchaqchaq kulish ruhi bilan yo‘g‘irilgan pesa. Komediya dagi kolliziya, harakat va xarakterlar kulguli tusda bo‘ladi yoxud komik ruh bilan chuqur sug‘oriladi. Hayotda o‘z ijtimoiy mavqeini saqlab qolish uchun kurashayotgan, ammo aslida umri tugab borayotgan ijtimoiy qarashlar va ma‘naviy-axloqiy tushunchalar o‘rtasidagi hayotiy ziddiyat komediyaning konfliktini tashkil etadi. Muayyan ijtimoiy-siyosiy tizimning inqirozga yuz tutishi va taraqqiyparvar kuchlar faoliyatining faollashuvi taqozasi bilan badiiy adabiyotda komediya janri tug‘ilgan. Chin badiiy komediyaning asosida eng chuqur yumor yotadi.

Mif – mif, asotir, rivoyat, hikoya, masal. Xalq og‘zaki ijodining eng qadim davrlarida paydo bo‘lgan, voqelik (olam) haqidagi tasavvurlarni konkret obrazlar vositasida aks ettiruvchi roviyaviy asarlar.

Mifologik obrazlar – asotir obrazlar. San‘at va adabiyotda mifologiya negizida yaratilgan obrazlar bo‘lib, ular realistik asoslarga ega, ya‘ni voqelikning fantastik tasviri va xalq orzu-umidlarining badiiy ifodasini tashkil etadi.

Monolog – badiiy asrda ishtirok etuvchi shaxslarning o‘z-o‘ziga yoki o‘zgalarga qaratilgan nutqi.

Munozara - tortishuv, fikr olish ma‘nolarini bildiradi. Poetik atama sifatida esa fors-tojik va o‘zbek poeziyasida ma‘lum janrning nomidir. Munozarada turli narsa, hodisa, tushuncha, holat va boshqalar konfliktga kirishadi. Obrazlar ko‘pincha ramziy mohiyat kasb etib, munozara qiladilar. Munozara nasrda ham, nazmda ham yozilishi mumkin. Munozara qissadan hissa chiqarish yoki muallifning asar asosida yotgan masala yuzasidan chiqarilgan xulosasi bilan yakunlanadi

Novatorlik – adabiy jarayon bilan bog‘liq kategoriya, adabiy jarayonda an‘ana bilan har vaqt dialektik aloqada mavjud bo‘lgan hodisa, adabiyot taraqqiyotining muhim ichki omili, badiiy tafakkur rivojiga sezilarli ta‘sir o‘tkazib, keyinchalik an‘anaga aylanuvchi muhim badiiyo-estetik yangilik.

Pamflet – publisistika janri, aniq bir shaxs yoki ijtimoiy tuzilma (tuzum, partiya, harakat, guruh va b.) ni keskin fosh etish maqsadiga qaratilgan kichik hajmli asar.

Publisistika – ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritadigan barcha turdagi asarlar: publisistik maqolalar, ocherk, pamflet, murojaatnoma, proklamatsiya, feleton va h.k.

Ramziylik – tushuncha va his-tuyg‘ularning shartli belgilar, ramzlar yordamida ifodalash.

Taqlid – adabiyotda o‘zigacha mavjud bo‘lgan asar xususiyatlarini qayta yaratish, ijod amaliyotida u yoki bu san‘atkorga ergashish tarzida namoyon bo‘luvchi hadisa.

Tragediya – qahramonlarning ruhiy kolliziyasi (bir-biriga zid boʻlgan manfaat va intilishlarining toʻqnashuvi) ga asoslanadigan, gʻoyatda joʻshqin, ehtirosli, taʼsirli va oqibati fojia bilan tugaydigan dramatik janr. Tragediya murosasiz kurash, gʻoyatda oʻtkir ziddiyat, favqulodda keskin konflikt zaminiga quriladi. Unda xarakterlar va ehtiroslarning hayot-mamot kurashi ifodalanadi. Tragediyaning ijtimoiy-siyosiy, gʻoyaviy yoki psixologik konfliktida koʻplab kishilar qismati koʻrsatiladi. Konfliktlar milliy hodisalarga boʻlinib qolmasdan, balki umumbashariy xarakterga ham ega boʻladi. Bunday asarlarda, odatda, yirik tarixiy fojialar, davrlarning almashinuvi kabi ulkan hodisalar tasvirlanadi. Tragediyada koʻpincha haqiqat va adalat uchun kurashgan buyuk insonlarning fojiasi beriladi. Tragediyaning qahramonlari, odatda, ulugʻvor favqulodda xarakterli odamlardir. Tragediyada inson qalbining rang-barang tomonlari, hayotning nurli va fojiali hodisalari gʻoyatda yorqin ochib beriladi. U hayotdagi shiddatli, qaygʻuli, mungli voqealarni aks ettiradi.

Avangardizm – shartli ravishda modernistik adabiyotning bir qator oqimlariga xos boʻlgan xususiyatning umumiy nomi sifatida qoʻllanuvchi atama. Yaʼni Avangardizm adabiy jarayondagi muayyan bir yoʻnalish yoki oqim emas, balki bir qator oqimlarga xos xususiyat, yana ham aniqrogʻi, modernizmning keskin, radikal qanotidir.

Adabiy tanqid – adabiyotshunoslikning asosiy sohalaridan biri, hozirgi adabiy jarayon muammolarini oʻrganish, yangi paydo boʻlgan asarlarni bugungi kun nuqtai nazaridan gʻoyaviy-badiiy tahlil va talqin etish, baholashni maqsad qilib qoʻyadi.

Antologiya – biror milliy adabiyot, davr, adabiy yoʻnalish va shu kabilarga mansubligi jihatidan tanlangan ijodkorlar asarlaridan namunalarni jamlovchi toʻplam.

Mif – mif, asotir, rivoyat, hikoya, masal. Xalq ogʻzaki ijodining eng qadim davrlarida paydo boʻlgan, voqelik (olam) haqidagi tasavvurlarni konkret obrazlar vositasida aks ettiruvchi roviyaviy asarlar.

Mifologik obrazlar – asotir obrazlar. Sanʼat va adabiyotda mifologiya negizida yaratilgan obrazlar boʻlib, ular realistik asoslarga ega, yaʼni vrqelikning fantastik tasviri va xalq orzu-umidlarining badiiy ifodasini tashkil etadi.

Monolog – badiiy asrda ishtirok etuvchi shaxslarning oʻz-oʻziga yoki oʻzgalarga qaratilgan nutqi.

Munozara - tortishuv, fikr olish maʼnolarini bildiradi. Poetik atama sifatida esa fors-tojik va oʻzbek poeziyasida maʼlum janrning nomidir. Munozarada turli narsa, hodisa, tushuncha, holat va boshqalar konfliktga kirishadi. Obrazlar koʻpincha ramziy mohiyat kasb etib, munozara qiladilar. Munozara nasrda ham, nazmda ham yozilishi mumkin. Munozara qissadan hissa chiqarish yoki muallifning asar asosida yotgan masala yuzasidan chiqarilgan xulosasi bilan yakunlanadi

Publisistika – ijtimoiy-siyosiy hayot masalalarini yoritadigan barcha turdagi asarlar: publisistik maqolalar, ocherk, pamflet, murojaatnoma, proklamatsiya, feleton va h.k.

Ramziylik – tushuncha va his-tuyg‘ularning shartli belgilar, ramzlar yordamida ifodalash

Fabula – asar voqealarining mantiqiy jihatdan uzviy bog‘liqlikdagi yaxlit silsilasi.

Feleton – badiiy-publisistik janr, dolzarb mavzuda yozilgan tanqidiy ruhdagi, ko‘pincha hajviy-satirik yo‘nalishdagi asar.

Folklor – xalq ohzaki badiiy ijodi

Xat (maktub – arabcha, xat) – biron joy yo biron atoqli kishiga yuborilgan she‘riy xat, alohida lirik janr epistolyar poeziya namunasi

Shi’a – arabcha so‘z bo‘lib, ma‘nosi «guruh», «tarafdor» demakdir. Guruhlar o‘rtasida hokimiyat uchun kurash oqibatida kelib chiqqan. Ular faqat Hazrati Ali va uning tarafdorlari nomi bilan bog‘liq bo‘lgan hadislarni tan olganlar va shunday hadislardan iborat mustaqil to‘plam tuzganlar. Bu to‘plamni umumiy nom bilan «Axbor» deb ataganlar. Shi‘alar Hazrat Ali va uning avlodlaridan iborat 12 imom hokimiyatini tan oladilar. Hozirgi vaqtda shi‘alikning asosiy tayanchi Eron Islom Respublikasi. Eron, Iroq, Afg‘oniston, Hindiston, Pokiston, Ozarbayjon va Tojikistonning Pomir tog‘lari atrofida bor.

“So‘fiy” – arabcha «suf» so‘zidan olingan bo‘lib, «jun kiyimlilar» degan ma‘noni anglatadi. So‘fiylik ta‘limotlari avvalo Qur‘oni Karimga, so‘ngra payg‘ambarimiz hadislariga suyanadi. So‘fiylar moddiy boylikni qoralab, haqiqiy boylik ma‘naviy, ruhiy boylik deb hisoblaganlar va asosiy e‘tiborni ularga qaratganlar.

“Sunna” – arabcha so‘z bo‘lib, odat, an‘ana, xatti-harakat tarzi ma‘nolarini anglatadi. Islomda musulmonlar uchun ibrat hisoblangan Muhammad (s.a.v) ning so‘zlari, qilgan ishlari, xatti-harakatlari, hayoti va faoliyati, ko‘rsatmalari haqidagi rivoyatlar hadis deyiladi. Hadislar to‘plami esa «Sunna» nomini olgan. Sunniylik deb, diniy qonun-qoida va tartibotlarga amal qilishda Qur‘oni karim va payg‘ambarimiz hadislar – «Sunna»ga birdek rioya qiluvchilarga aytiladi.

Marsiya (arabcha, yig‘lash)- yaqin yo mashhur kishining vafot etishi munosabati bilan motam, aza tutib, nola, hasrat va qayg‘u bilan yoziladigan she‘r, goho vafot sanasi abjad hisobida ko‘rsatiladi

Qizilbosh – ozarbayjon tilidan olingan bo‘lib, bu nomni olgan ko‘chmanchi jangchilar o‘n ikki shi’a imomi sharafiga o‘n ikkkita qizil rangli yo‘l-yo‘l tasma o‘tkazilgan salla kiyib yurishgan

«Ong oqimi» (ilk bor mazkur istiloh U.Jeymsning «Psixologiya asoslari» kitobida qo‘llanilgan, 1980; J.Joysning «Uliss» (1922) romanida ijodiy mazmun kab etdi) istilohi g‘arb va rus adabiyotshunosligida keng qo‘llanilib, modernizm, neomodernizm va uning har xil ko‘rinishlari adabiy konsepsiyasini ifoda etadi. U qahramonning ma‘naviy dunyosini ochuvchi ichki monologi, u personaj miyasi, aql-idrokining faoliyati, harakati sifatida mavjud bo‘lgan dialektik hodisa, ana shu dialektik hodisa jarayonining badiiy ifodasi va mazkur badiiy ifoda yoxud badiiy tasvir orqali yuzaga kelgan adabiyot, adabiy oqim, adabiy yo‘nalishdir. Adabiyotshunoslik uchun muhimi inson miyasining faoliyati bo‘lmish ong oqimining badiiy ifodasi, tafakkur harakati jarayonining badiiy tasviri va uning natijasidir. (Bu haqda to‘liq ma‘lumot olish uchun qarang: «Estetika Teoriya

literaturi Ensiklopedicheskiy slovar terminov» Moskva, Astrel AST, 2003, 312-str;
Jo‘raev T.S. «Ong oqimi va tasviriylilik» fil.f. nomzodi darajasini olish uchun
yozilgan kan.dis. avtoref.T., 1994, 8-9-sah., Jo‘raev T. “Ong oqimi, modern”)

Reminissensiya - badiiy yoki musiqiy asarda boshqa bir kishi ijodining aks
etishi, ta’siri.